ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

6^{1}-son

(Noyabr-Dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
H. Turdiyeva	4	O'quv-uslubiy majmualarga ilmiy tadqiqot natijalarini kiritishning ijtimoiy-pedagogik asoslari (Adabiyotshunos olim Sherali Turdiyev tadqiqot natijalari va asarlari misolida)
K. Umarova	10	Adabiyotda an'ana va navotorlikning namoyon bo'lishi (Irlandiyalik yozuvchi va shoir James Augustine Aloysius Joyce hamda yozuvchi, senarist, jurnalist Nazar Eshonqulning asarlari misolida)
Yu. Kudratova	15	Koreys tilida hissiy leksemalarning nazariyasi, ularning grammatik – ma'noviy jihatdan farqlash xususiyati va reklama matnlarida qo'llanishi
M. G'oziyeva	21	Ingliz tili darslarida nofilologik yo'nalish talabalarining sotsiopragmatik kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar
F. Ibadova	24	Akademik yozuv - ta'lim oluvchilarda fikrlarini qisqa, ishonchli va ilmiy asoslangan matn orqali ifodalash kompetensiyalarini shakllantirish asosi sifatida
A. Kobilova	27	Oliy ta'limda bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish usullari
O. Azimova	30	Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik madaniyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari
F. Tilabov	33	Yoshlarda milliy birlik tuyg'usini shakllantirish
M. Zaripova	36	Badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlarning ilmiy-nazariy asoslari va masalaning o'rganilish tarixi
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
I. Anvarova	40	Gid nutqi milliy – madaniy fenomen sifatida
T. Pardayev	43	Gid nutqining lingvomadaniy tahlili asoslari
F. Burxanova, M. Xamraqulova	45	Badiiy adabiyotda ayollar obrazi: ijtimoiy, shaxsiy va ruhiy holatlar tadqiqi
D. Xoshimova, D. Norova	51	Trigonometriyani vujudga kelishi, rivojlanishi va trigonometrik ifodalarni hisoblash
G'. Suyunov, M. Jamolov	57	Biologiya laboratoriya mashg'ulotlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati
N. Xolbozorova	59	"Differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quvbilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi" (boshlang'ich ta'lim yo'nalishi misolida)
F. Usmonova	63	Qiyoslash orqali tarjima qilish metodiтning ahamiyati va dolzarbligi
F. Tilabov	65	Yoshlar ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish muammosiga tarixiy yondashuv
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
M. Baxromova	69	Koreys tilini o'rganishda interaktiv metodlar
A. Raxmatov	71	Texnologiya darslarida o'quvchilarning loyihalash va konstruktorlik ko'nikmalarini shakllantirish orqali robototexnika bo'limini rivojlantirish
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT

S. Shodiqulov	76	Kurash va belbog‘li kurashning texnikasi va taktikasini o‘rgatish
		PSIXOLOGIYA
B. Ziyatova	79	Innovatsion tafakkurning falsafiy, psixologok va didaktik mohiyati
Sh. Sattorova	83	Katta yoshli talabalarni milliy tarbiyalash muammosining psixologik jihatlari
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
С. Орипова	86	Понятие дискурса в современной лингвистике и экономике
Д. Ҳакимова	89	Влияние билингвизма на когнитивные способности детей школьного возраста в узбекистане
		СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
Э. Азмиева	94	Роль детского фольклора в воспитании и развитии личности: классификация и исследование жанров
		THEORY OF EDUCATION AND UPBRINGING
D. Boboqulova	100	Types of international words and their lexicographical interpretation in english and uzbek languages (Xalqaro so‘zlarning turlari va ularning ingliz va o‘zbek tillarida leksikografik talqini)
J. Fayzullayev	104	Philological analysis in the process of language teaching (based on research into existential themes in the work Ernest Hemingway “The Old Man and the Sea”) Til o‘rganish jarayonida filologik tahlil (Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” asaridagi ekzistensial mavzularni o‘rganish asosida)
N. Imomova	108	Linguistic features of the English dimunitives (Ingliz tili va diminitutlarning lingvistik xususiyatlari)
		METHODS OF EDUCATION AND UPBRINGING
G. Ruziyeva	114	Representation of time category in english and uzbek by phraseological units (Ingliz va o‘zbek tillarida vaqt toifasini frazeologik birliklar bilan ifodalash)
		MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES
R. O‘ktambaeva	122	Challenges indeveloping teaching materials for students at non-philological faculty (Filolog bo‘lmagan talabalar uchun o‘quv materiallarini ishlab chiqish muammolari)
F. Djalaletdinova	127	Learning language through animation movies - stereotypes and cultural impact (Annimatsion filmlar orqali til o‘rganish - stereotiplar va madaniy ta’sir)
I. Dusmurodova	132	Developing speaking competence of students using authentic materials in english language teaching (Ingliz tilini o‘qitishda autentik materiallardan foydalangan holda talabalarning nutqiy malakasini rivojlantirish)
Sh. Maxmudova	136	Improving student training based on multimedia technologies (Multimedia texnologiyalari asosida talabalarni o‘qitishni takomillashtirish)
		NATIONAL EDUCATION TECHNOLOGIES
A. Mirsaidov	140	Linguistic characteristics of guide speech in national tourism (Milliy turizmda gidlar nutqining lingvistik xususiyatlari)

Hulkar TURDIYEVA,
"Alfraganus University" nodavlat oliy ta'lim muassasasi, "Xorijiy filologiya" kafedrasi dotsenti, (PhD)

O'QUV-USLUBIY MAJMUALARGA ILMIY TADQIQOT NATIJALARINI KIRITISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI (Adabiyotshunos olim Sherali Turdiyev tadqiqot natijalari va asarlari misolida)

Annotatsiya

Maqolada umrining ko'p qismini XX asrning birinchi yarmida adolatsizlik qurboniga aylangan ma'rifatparvarlar hayoti va taqdirini o'rganishga bag'ishlagan olim va yozuvchi Sherali Turdievning hayoti va faoliyati haqida so'z boradi. Olim qatag'on qilingan ziyolilar va jadidlarning faoliyatini batafsil o'rganib, ularni tatqiq qilishga katta hissa qo'shgan. Maqola muallifi ilmiy tadqiqot natijalarini uzluksiz ta'lim o'quv majmualariga kiritish dolzarbligini asoslab bergan.

Tayanch so'zlar. Sherali Turdiyev, ziyoli, ma'rifatparvar shaxslar taqdirini o'rganish, adolatsizlik qurbonlari, qatag'on qilinganlar, jadidlar, ilmiy izlanishlar, o'quv majmualari.

В статье рассказывается о жизни и творчестве ученого и писателя Шерали Турдиева, который большую часть своей жизни посвятил изучению жизни и судьбы эрудированных и образованных личностей, которые стали жертвами несправедливости в первой половине XX века. Ученый подробно исследовал деятельность и работы репрессированных интеллектуалов и джадидов и внес значительный вклад в их изучении. Автор статьи обосновывает актуальность включения результатов научных исследований в учебные комплексы непрерывного образования.

Ключевые слова. Шерали Турдиев, изучение, судьбы эрудированных и образованных личностей, жертвы несправедливости, репрессированные, интеллектуалы, джадид, научные исследования, учебные комплексы.

The article tells about the life and work of the scientist and writer Sherali Turdiev, who devoted most of his life to studying the life and fate of erudite and educated individuals who became victims of injustice in the first half of the twentieth century. The scientist studied in detail the activities and works of repressed intellectuals and Jadids and made a significant contribution to their study. The author of the article substantiates the relevance of including the results of scientific research in educational complexes of continuing education.

Key words. Sherali Turdiev, study, fate of erudite and educated individuals, victims of injustice, repressed, intellectuals, Jadid, scientific research, educational complexes.

Sherali Turdiev o'zbek adabiyotidagi ma'rifatparvarlar, jadidlar, ilm istar kishilar faoliyati, ijodi, hayoti, qismati tadqiqotiga umrining katta qismini bag'ishladi. Shuning bilan birga, adabiyotning rivoji omillari sirasiga kiruvchi tadbirlardan biri "adabiy hamkorlik" masalalarini yoritish, shuningdek, hissa qo'shishda ham zalvorli mehnat qildi. Qardosh turkiy va xorijiy xalqlar adabiyotlari bilan aloqalarimiz tarixini chuqur o'rganib, qator ilmiy maqolalari bilan tatqiq va targ'ib qildi, qardosh adabiyotlar va milliy adabiyotimiz orasidagi hamdo'stlik, hamfikrlilik va yakdillikni ochib berdi.

Sherali Turdiyev 20-yillar adabiyoti, uning qardosh turkiy va xorijiy xalqlar ada-

biyotlari bilan aloqalari tarixini chuqur o‘rganib, qator ilmiy maqolalari bilan tatqiq va targ‘ib qildi. Bu sohada “O‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi bibliografiyasi” (1967-yil Bois Qoriev bilan hamkorlikda), “Adabiy do‘stligimiz tongida” (1974), “Hayotbaxsh ta’sirlar” (1977), “O‘zbek adabiyotida kichik epik janrning shakllanishi” (1978), “Adabiy hamkorliklar samarasi” (1985) va boshqa kitob, risola hamda 400 dan ortiq maqolalarni e’lon qildi.

Sherali Turdievning adabiy aloqalarga oid “Adabiy do‘stligimiz tongida”, “Hayotbaxsh ta’sirlar” kitoblarida 20-yillar o‘zbek adabiyotining qardosh tatar, ozarbayjon, usmonli turk adabiyotlari bilan aloqalari haqida qimmatli ma’lumotlar bilan birga chuqur ilmiy mulohazalarni taqdim etadi. Ularda Hamza, So‘fizoda, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom va boshqalarning qo‘shni va xorijiy turkiy xalqlar adib va shoirlari – Abdulhaq Homid, Tavfiq Fikrat, Jalil Muhammadqulizoda, Sobir, Abdulla To‘qay, Olimjon Ibrohimov bilan ijodiy aloqalari boy faktik adabiy materiallar asosida batafsil ifoda etiladi. “Adabiy hamkorlik samaralari” kitobida esa olim 20-yillar o‘zbek poeziyasi, prozasi va dramaturgiyasi rivojida tatarlarning mashhur dramatik va ma’rifatparvar yozuvchi va dramaturglari Abdulla To‘qay, Olimjon Ibrohimov, G‘aliaskar Kamol, Fotih Amirxon va boshqa ijodkorlarning samarali hamda barakali ta’sirlarini o‘rganadi. Olim bu ishni yozishda o‘sha davr o‘zbek, tatar matbuoti va adabiyotining nodir manbalari, turli xil arxiv materiallari va xotiralardan keng foydalangan. Olim adabiyot instituti katta ilmiy xodimi sifatida “Adabiyot nazariyasi va tanqid tarixi” bo‘limi tayyorlagan “Adabiyot nazariyasi” kitoblarining 2-jildida “Adabiy ta’sir” (professor M.Yunusov bilan hamkorlikda), 1917-yil inqilobgacha bo‘lgan o‘zbek adabiyoti ko‘p jildlik kitobining 5-jildida “XX asr boshlaridagi o‘zbek va qardosh xalqlar adabiy aloqalari”, Adabiy aloqalar va tarjima nazariyasi bo‘limining “O‘zbek adabiy aloqalari” (1984), “O‘zbek va Ozorbayjon adabiy aloqalari” (1985), “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari adabiyotidagi roman janrini tipologik o‘rganish” (1991) kitoblarida o‘zbek adabiyotining qardosh tatar, ozarbayjon va O‘rta Osiyo xalqlari bilan adabiy hamkorliklariga to‘xtalgan. Shuningdek, Tatariston, Rossiya, Germaniya, Avstriya, Turkiya, AQSh, Yaponiya, O‘rta Osiyoning barcha mamlakatlari va boshqa davlatlardagi ilmiy konferensiyalarda o‘zining ilmiy ma’ruzalari bilan qatnashib, xorijiy davlatlar olimlari bilan muntazam ravishda do‘stona ilmiy yozishmalar bilan muloqotda bo‘lgan.

Olimning o‘z qalamiga mansub 400 dan ortiq manbalar, jumladan, publitsistik, ilmiy, tanqidiy maqolalar, she’riyat, nazariy ma’lumotlar, tarjimalar, asarlarga taqrizlar, tarixiy faktlar bayoni, ilmiy monografiyalar va h.k.larda adabiyotimiz va tariximizning pinhon hilqatlari yoritiladi hamda xorij adiblarining insonni ma’naviy yuksalishga undovchi asarlari bilan o‘zbek tilida tanishamiz.

Taniqli adabiyotshunos Sherali Turdievning adabiy merosimiz va adabiy aloqalarimizni o‘rganish va targ‘ib qilish borasida ko‘p yillik xizmatlarini hisobga olib, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining badiiy adabiyotini targ‘ib qilish markazi uni Xalqaro Cho‘lpon mukofoti bilan mukofotladi.

O‘zbek va qardosh xalqlar adabiy aloqalari o‘rganilishi ustida zalvorli mehnat qilgan, qardosh xalqlar adabiyotini o‘zbek adabiyoti bilan mulohaza qilgan holda qator tadqiqot ishlari yaratgan olim Sherali Turdievning 1997-yilda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali 4-sonida nashr qilingan “Cho‘lpon va tatar adabiyoti (Aloqalar tarixi, manbalari)” nomli maqolasini yodga olishni joiz deb bildik. Quyidagi maqola Cho‘lpon ijodiga ham qaratilar ekan, Sherali Turdievning Cho‘lpon ijodi, hayoti va qismati bo‘yicha e’lon qilgan maqola, tabdil va tadqiqotlar bilan tanishish ahamiyatli: “Cho‘lponning nutqi”

(1989, O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi, 1/9); “Quturg‘on mustamlakachilar” (A.Cho‘lpon “Farg‘ona gaz” 1924.12.03. Erk) (Turdiev Sh. nashrga tayyorlagan, 1990, Erk, 25-son, noyabr); “Ko‘ngil yangilik qidiradir” (Sh.Turdiev nashrga tayyorlagan, 1990 O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi, 24.08);“Tarixning zararlik takabburi”(-Turdiev Sh. nashrga tayyorlagan, 1991, Erk, 3/2); “Tong yulduzi qismati. Cho‘lpon merosini o‘rganish tarixidan” (1991, Yoshlik. №3. B.23-25.); “Baynalmilalchilik an’analari (Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon qarashlari)” (1991, Sovet O‘zbekistoni, 2/02); “Besh yuz yil” (Sh.Turdiev nashrga tayyorlagan, 1991, O‘zbekiston ovozi, 20/09); ”Malikai Turandod” , “500 yil” (Sh.Turdiev nashrga tayyorlagan, 1991, Yosh Leninchi, 13/06); “Cho‘lpon javohirlari haqida” (1991, Xalq so‘zi, 13/02); “Yo‘l esdaliklari” (Sh.Turdiev nashrga tayyorlagan, 1992, Xalq so‘zi); “Shamol nimadan paydo bo‘ladir” (Sh.Turdiev nashrga tayyorlagan, 1993, Xabar, 30/10); “Cho‘lponing “Shulay bitamiz” maktub lavhasi xususida” (1994, O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 29/04); “O‘tkir publitsist ham edi (Cho‘lpon tavalludining yuz yilligi)” (1997, Markaziy Osiyo madaniyati, 3/12); “Tong yulduzi (Tong yulduzi - Cho‘lpon)” (1997, Nurli jol, 22/11);“Tong yulduzi. Cho‘lpon tavalludining 100 yilligiga” (1997, Adolat, 29/11); “Abdulhamid Cho‘lpon tavalludining 100 yilligi” (1997, Markaziy Osiyo madaniyati, 3/12); “Cho‘lpon va tatar adabiyoti” (1997, O‘zbek tili va adabiyoti, 4-son); “Cho‘lpon va Navoiy (Homil Yoqubovning “Cho‘lpon va Navoiy”: risolasi haqida)” (1998, O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 15/05); “Qalb isyoni (Cho‘lpon haqida)” (1998, Markaziy Osiyo madaniyati, avgust).

“1905-yilgi birinchi rus inqilobidan keyin Turkistonga turli g‘oyaviy va estetik yo‘nalishdagi turk, ozarbayjon va birinchi navbatda tatar adabiyoti matbuoti, teatri keng tarqala boshladi. Ular bu davrda o‘lkada M. Behbudiy, S. Ayniy, Hamza, Abdulla Qodiriy, Fitrat, S. To‘rayg‘urov, M. Seralin singari Cho‘lponning ham ilk ijodiga muayyan ta’sirlarini ko‘rsata boshladi. Bu ayniqsa uning 1914-1917-yillarda yaratgan “Do‘ktir Muhammadyor”, “Qurboni jaholat”, “Shulay bitamiz!”, “Muhtaram yozuvchilarimizga”, “Adabiyot nadur?” singari dastlabki milliy hikoya va publitsistik maqolalarining g‘oyaviy-tematik yo‘nalishi, til va uslubiga ham ta’sir etmay qolmadi. Cho‘lpon ayniqsa “Adabiyot nadur?” (1914) maqolasida o‘sha vaqtlardayoq xalq ichida adabiy kechalar o‘tkazishning muhimligi, bunda ilg‘or Ovro‘po millatlarining, jumladan, qardosh tatar ziyolilarining tajribalaridan ibrat olishga va bu sohada bizdagi kamchiliklarni tugatishga da’vat etib: “Mana tatar qardoshlarimiz yilda bir daf’a bo‘lsa ham shahar, qishloqlarda “Adabiyot kechalari” qilur, xalqga ruh berib, ko‘p olqishlar, ofarinlar olganini oldingi gazetalardan o‘qub turmoqdamiz”, deb yozgan edi. Uning bu fikrlari keyinchalik ijodkorning “Kecha va kunduz” romanida (1935) yanada rivojlantirildi. Unda endi yozuvchi roman qahramonlaridan ilg‘or fikrli turkistonlik bir jadid tilidan Moskvaga ketayotgan hamrohi o‘qimagan Miryoqubga tatarlarning dunyoviy ilm-ma’rifati, yangi maktab, matbuot va adabiyotlari, bunda ayniqsa, Qrimdagi Ismoil G‘aspiralining “Tarjimon” gazetasining foydali tomonlari xususida ibratli fikrlarni so‘zlaydi. Bu yerda Ismoilbek G‘aspiralining ma’rifatparvarlik g‘oyalarini faqat Cho‘lponning inqilobdan burungi Turkiston ijtimoiy hayotidan olib yozilgan mazkur romanining qahramonlaridan biri ilg‘or fikrli jadid so‘zlaridangina emas, umuman XX asr boshidagi M.Behbudiy, Hamza, Avloniy, Fitrat kabi Turkistonning boshqa ziyolilari singari Cho‘lponning ham ilg‘or ma’rifatparvarlik qarashlariga, ayniqsa, uning 1914-yilda yozgan “Do‘xtur Muhammadyor” hikoyasining g‘oyaviy-tematik yo‘nalishiga ham kuchli ta’siri seziladi. Cho‘lponning bu davrdagi tatar adabiyoti va matbuoti, ziyolilari bilan aloqalari faqat shu bilangina cheklanmaydi. U bu yillarda ilg‘or boshqird ziyolisi, keyinchalik Boshqirdiston va Turkiston milliy istiqlol

harakatniing rahnamolaridan biri bo‘lgan yirik siyosat va jamoat arbobi Ahmad Zaki Validiy bilan ham tanishadi. Cho‘lpon o‘sha vaqtlardayoq “Tatar turk tarixi” (1912) asarini o‘qib, 1914-yilda olimni Ufadan Andijonga mehmonga ham taklif etadi. Ahmad Zaki Validiy o‘sha yili Nazir To‘raqulov bilan Andijonda Cho‘lpon xonadonida mehmon ham bo‘ladi. Keyinchalik Cho‘lpon (1917-yil) u bilan Orenburgda Boshqirdiston milliy hukumati idorasida ham ishlaydi. Shu yillarda Orenburgda chiqib turgan “Sho‘ro” jurnalida Cho‘lponning “O‘sh”, “Vatanimiz Turkistonda temir yo‘llar” kabi publitsistik ocherklari bilan birga “Shulay bitamiz!” nomli sevgi va sog‘inch iztiroblariga to‘la bo‘lgan maktub-lavhasi ham e’lon qilinadi. Ayniqsa, maktub lavhada shu davrdagi tatar jonli tili va uslubi ta’siri ochiq aks etgan. Mazkur sevgi va sog‘inch, ayriliq dardlari bilan yoniq bo‘lgan maktub-lavhani o‘qiganda beixtiyor tatar adabiyotidagi Olimjon Ibrohimovning “Ishq qurbonlari”, “Yosh yuraklar”, Abdulla To‘qayning “Esimda”, “Sen bo‘lmasang”, “Muhabbat”, “Bir rasmga”, “Bo‘lmasa” (1908-1912) singari ilohiy muhabbat onlari va iztiroblarining samimiy tasvirlari esga tushadi. Ayniqsa, u To‘qayning 1909-yilda yozgan “Esimda” nomli she’riga nihoyatda hamohangdir.

1917-yil Rossiyadagi fevral inqilobidan so‘ng butun Rossiya musulmonlari orasida qo‘zg‘olgan kuchli milliy istiqlol va ozodlik harakatlari ular orasidagi bunga qadar bo‘lgan ko‘pchilik turkistonlik ma’rifatparvar ziyolilar kabi Cho‘lpon dunyoqarashi va faoliyatida ham yangi o‘zgarishlarga olib kela boshladi. Ismoil G‘aspirali vafotidan so‘ng Rossiya musulmonlari ichida yangi ijtimoiy-siyosiy harakatlar boshiga kela boshlagan tatar-boshqird ziyolisi Ahmad Zaki Validiyning rol va ahamiyatlari muhim bo‘la boshladi.

Bu yillarda Turkistonda muxtoriyat g‘alabasiga qadar uning g‘oyalari tantanasi uchun kurash yo‘lidagi faol ijtimoiy-siyosiy harakatda M. Behbudiy, Hamza va boshqalar bilan birga shoir Cho‘lpon ham Boshqirdiston milliy hukumatining boshlig‘i va keyinchalik Turkiston muxtoriyatining ham tarafdori bo‘lgan mashhur siyosat arbobi Zaki Validiy bilan juda yaqin aloqada bo‘ladi. Hatto bu o‘zaro ijtimoiy-siyosiy aloqa va hamkorliklar shu davr o‘zbek adabiyotida yaratilgan M. Behbudiyning “Bayoni haqiqat”, Hamzaning “Uyon, vatan”, “Turkiston muxtoriyati” asari kabi Cho‘lponning ozodlik va erkinlikni targ‘ib qilib yozgan “Ozod turk bayrami” (“El bayrog‘i”, 1917, № 13) kabi she’rlariga ham g‘oyaviy ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. “Birinchi inqilob oylari juda yaxshi bir zamon bo‘ldi, - deb xotirlab yozgan edi Zaki Validiy keyinchalik bu hollarni eslab, bir-birlarimizga chin ko‘ngildan ishonib, jonajon va samimiy do‘stlar topdim. Ko‘p vaqtlarda o‘rtoqlarcha so‘zlagan fikrlarim bu do‘stlarim tomonidan maqola yoki she’r bo‘lib maydonga chiqa boshladi. Shoir Cho‘lpon saylov Qonuni masalalarimiz bo‘yicha kurashlarimizni juda bir chiroyli doston qilib yozdi.

1917-yil dekabrida uchinchi Butun Boshqirdiston Qurultoyi yigirma ikki kishilik kichik sho‘ro (predparlament) sayladi. Shoir Abdulhamid Sulaymon (Cho‘lpon) men bilan birga mening sarkotibim bo‘lib ishlay boshladi...”[1]

Zaki Validiy o‘zining boshqa bir asari (“Bugungi turk yurti (Turkiston) va yaqin tarixi”, Istanbul, 1989, 2-bosilishi) kitobida ham o‘zining eski qadrdon do‘sti, shoir Cho‘lpon bilan inqilobga qadar bo‘lgan tanishuvlari va bu yillarda uning Ufadan Andijonga mehmonga chaqirishlari va Zaki Validiyning Nazir To‘raqulov bilan Cho‘lpon uyida mehmon bo‘lishi, Cho‘lponning otasi Sulaymon akaning ularga ko‘rsatgan samimiy mehmonnavozliklari, Cho‘lponning o‘sha davrdagi “Turk yurti” kabi jurnallarga qiziqishidan tortib, Orenburgda tuzilgan Boshqirdiston milliy hukumati tarkibida ishlashlari, uning she’riyatidagi g‘oyaviy yo‘nalish va mahoratidan tortib asarlariga ko‘rsatgan milliy va

[1]Ahmad Zaki Validiy. Xotiralar // Oq edil. 1991. 6-son. 117-bet; 7-son. 153-bet.

xorijiy adabiy ta’sirlarigacha to‘xtab yozgan edi.

Zaki Validiy hayotining so‘nggi yillarida yozgan “Xotiralar” (Istanbul, 1969-yil) kitobida yana o‘zining inqilobga qadar va undan keyingi davrlardagi Cho‘lpon bilan bo‘lgan munosabatlariga oid bu fikrlarni to‘ldiruvchi boshqa bir qancha jonli xotiralarni ham keltiradi. Bu xotiralarda Zaki Validiyning 20-yillarning boshlarida Buxoroda shoir Mirzo Abdulvohid Munzim uyida yashab turganida Cho‘lponning u yashab turgan hovliga bir necha bor kelganligi va shu yillari Buxoroga kelgan akademik A. Samoylovichning Cho‘lpon vositasi bilan Zaki Validiyni topishga bo‘lgan urinishlari haqida shu vaqtgacha o‘zbek adabiyoti tarixi tadqiqotchilari uchun unchalik ma’lum bo‘lmagan faktlarni ham uchratamiz. Zaki Validiy Cho‘lpon bilan Buxoroda kechgan bu uchrashuvlarni eslar ekan, uni shunday hikoya qiladi: “Xargo‘shda yashagan davrda Buxoroda menga berib qo‘yilgan uyga har ikki kunda borib turardim. Shoir Cho‘lpon (Abdulhamid Sulaymon) har doim shu yerga kelib men bilan ko‘rishishga harakat qildi. Ammo u shoir zotini og‘zida gap turmaydi, shuning uchun uyda yo‘q deb qo‘yaqolinglar, - deb hech qabul etmas edim. Albatta, u bunga achchiqlanardi. Bir kuni “uh, shu shoirligim meni ko‘ngli bo‘sh va shubhali qilib qo‘ydi, siz bilan ko‘rishmoqchi edim”, degan ma’noda bir she’r yozib qoldiribdi. Kelgandan keyin uchrashdim. Eski do‘stingiz professor A. Samoylovich sizni ko‘rmoqchi bo‘layapti, uning do‘stlik tuyg‘usi bo‘lsa kerak”, dedi. Men esa unga: “Sendan qochishimning sababi, hech shubhasiz, faqat qo‘rqishimdan. Samoylovich mening do‘stim, ammo sovetlar kishini qo‘lga olish uchun do‘stingdan ham, oilangdan ham foydalanadilar. Samoylovichning bugungi kunda sovetlar tomonidami, yo‘qmi, qaerdan bilasan?- dedim”2.

Shoir Cho‘lpon 20-yillarda ayniqsa, Muhammad Hasan, Abdurahmon Sa’diy, Po‘lat Soliev, Zarif Bashiriy, Rashid Tohiriy, Lolaxon Arslonova kabi tatar matbuot va adabiyot xodimlari, Abdulla Kamol, Fotima Kamolova, Fotima Ilskaya, Mahsuma Qorieva singari tatar rejissyor va aktyorlari bilan yaqin aloqada bo‘ladi. Jumladan, Muhammad Hasan bilan Eski Toshkentda chiqib turgan “Rosto” gazetasida (1919) birga ishlaydi. O‘sha davrda Buxoro ChQsida, keyinchalik Toshkentdagi turli idoralarda rahbariy va tarjima ishlarida ishlagan tatar ziyolilaridan Jalil Boybulatov bilan bo‘lgan bir suhbatda (1976-yil 7-dekabr) shu yillarda Toshkentda Cho‘lpon bilan kechgan bir uchrashuvni va unda qatnashgan o‘zbek-tatar ziyolilarining o‘zaro do‘stlik kechasini u shunday xotirlaydi: “Cho‘lpon 20-yillarning boshlarida qator rus, tatar ziyolilari singari o‘sha yillarda Rossiya telegraf agentligi (RosTA)ning Eski Toshkent bo‘limi gazetasining tarjimoni Muhammad Hasanov, uning yozg‘uvchilaridan adib Abdulla Qodiriy, G‘ozi Yunuslar bilan birga ishlashar edi. 1921-yillar bo‘lsa kerak, hozirgi Chirchiq stansiyasining Pushkin bekatidagi bir uyga dam olishga chiqdik. Shu dam olish vaqtida Cho‘lpon bizlarga tatar shoir va adiblari Abdulla To‘qay, Fotih Amirxon, G‘aliasqar Kamol, Ayoz Is’hoqiy, Majid G‘afuriylar haqida ko‘p gapirgani bugungiday esimda. Shu mehmondorchilik va suhbatlar chog‘ida Abdulla Qodiriyning To‘qayning “Ona tili” haqidagi she’rini tatarcha aytib bergani, Fotih Amirxonning Fatxulla hazratining kulgili xatti-harakatlarini aytib, bizni rosa kuldirgani esimda. Shunda Cho‘lpon To‘qay sevgan tatarcha “Zulaylik”, “Allikuy” nomli qadimiy tatar xalq kuyini shu qadar mungli va chiroyli kuyladiki, men hayron bo‘lib, u Ufadagi mashhur tatar madrasasi “Madrasan Oliya”da o‘qigan bo‘lsa kerak, deb o‘ylab qoldim. Shu vaqtda mening xotinim Durriya xonim shoir Cho‘lponga jo‘r bo‘lib, garmon chalib, Abdulla To‘qay she’rlarini kuylab, ashula ayta boshladi”.

Cho‘lponning tatar ziyolilari, matbuot va adabiyot, teatr xodimlari bilan aloqalari

[2] Ahmad Zaki Validiy. Xotiralar // Oq edil.1991. 11-son. 113-bet.

keyinchalik ham qizg‘in davom etdi. U bu davrda Turkistonda o‘zbek maorifi, madaniyati va teatrida faol ishtirok etayotgan tatar ziyolilaridan professor Abdurahmon Sa’diy, Lolaxon Arslonova, Ma’suma Qorieva (Ma’suma Tutash) singari taniqli tatar olim va yozuvchilari, sahna ustalari bilan ijodiy hamkorlikni davom ettirdi. Ularning ayrimlariga olqishlovchi she’rlar bag‘ishladi (Masalan, “Sharaflik xizmat” (1922), “Ichkari” (1925) kabi she’rlari).

Turkiy xalqlar adabiyotining yirik bilimdoni, tatar adabiyotshunos olimi, professor Abdurahmon Sa’diy shoir Cho‘lpon bilan shaxsiy yaqin aloqada bo‘lishdan tashqari, bu yillarda o‘zi dars berib turgan Toshkentdagi o‘zbek, tatar, qozoq bilim yurtlarida yangi o‘zbek adabiyotining yangi namoyandalari haqida so‘z ochganda birinchi navbatda Cho‘lponni tilga olar va uni “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” (1925) kitobida hatto XX asr turkiy xalqlar she’riyatining eng yorqin yulduzlari qatori yuksak baholab, Turkiyaning mashhur adib va shoirlari Abdulhaq Homid, Tavfiq Fikrat bilan birga tatar she’riyatining quyoshi bo‘lmish Abdulla To‘qaylar bilan qiyoslagan edi (A. Sa’diy, o‘sha kitob, 106, 135-136-sahifalar). Bu bejiz emas edi, albatta. Chunki To‘qayning tatar xalqining milliy istiqboli va istiqlolini orziqib yozgan “O‘z-o‘zimga”, “Kuz”, “Millat” (1906), “Lazzat va ta’m narsada” (1907), “Yoshlar” (1910) singari otashin vatanparvarlik ruhidagi she’rlari bilan Cho‘lponning o‘zbek xalqining milliy istiqlolini qo‘msab yozgan ko‘plab she’rlari orasida muayyan g‘oyaviy mushtarakliklar mavjud edi. Buni ayniqsa Abdulla To‘qayning “Kuz” (1906) nomli nazmidagi:

Ey, faqir millatim, qachon bahoring,
Qachon ketar keching, kelar nahoring?
Kelarmi men qabr tomon surilgach.
O‘lib, qiyomatda qayta tirilgach, (“Kuz”)[3]

satrlari bilan Cho‘lponning “Ko‘klam keladur!”(1924) she’ridagi:

Ko‘klam bilan yurtimga ham bir ko‘karish kelsaydi,
Ko‘ngillar ham havolardek ko‘klam hidi bersaydi,
Dillarga ham havolardek ko‘klam ruhi kirsaydi.[4]

satrlarini o‘zbek xalqining milliy istiqloliga umid bog‘lab yozgan she’rlariga solishtirganda ochiq sezish mumkin. Tatar ziyolilaridan professor Abdurahmon Sa’diy, shoir Zarif Bashiriy va boshqalar Mahmud Behbudiy, Abdulla Qodiriy singari Cho‘lpon asarlarini targ‘ib va tashviq qilishda keyinchalik ham davom etdilar va ular hatto 30-yillarning boshlarida Cho‘lpon ta’qiqlana boshlagan davrlarda ham o‘zlarining adabiyot darsligi va xrestomatiyalarida (jumladan, 3. Bashariy. O‘zbek adabiyoti. Qozon, 1929), professor A. Sa’diy “O‘zbek burjua adabiyoti” (XIX va XX asrlar) kitoblarida ham uning tarjimai holi va asarlari tahliliga munosib o‘rin ajratdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad Zaki Validiy. Xotiralar // Oq edil. 1991. 6-son. 117-bet; 7-son. 153-bet.
2. Abdulla To‘qay. Tanlangan asarlar. –T., 1961. 29-bet.
3. Cho‘lpon. Asarlar. 1-jild. –T., 1993. 75-bet.
4. Sherali Turdiev. Ular Germaniyada o‘qigan edilar. – T.: "Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi", Akademnashr, 2006. 256b.
5. Sherali Turdiev. Tong yulduzi qismati. Cho‘lpon merosini o‘rganish tarixidan. Yoshlik jurnali, ¹3. 1991. B.23-26.

[3] Abdulla To‘qay. Tanlangan asarlar. –T., 1961. 29-bet.
[4] Cho‘lpon. Asarlar. 1-jild. –T., 1993. 75-bet.

Komila UMAROVA,
“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
“Xorijiy filologiya” kafedrasi o‘qiuvchisi

ADABIYOTDA AN’ANA VA NAVOTORLIKNING NAMOYON BO‘LISHI (Irlandiyalik yozuvchi va shoir James Augustine Aloysius Joyce hamda yozuvchi, senarist, jurnalist Nazar Eshonqulning asarlari misolida)

Annotatsiya

Maqolada Irlandiyalik yozuvchi va shoir James Augustine Aloysius Joyce hamda yozuvchi, senarist, jurnalist Nazar Eshonqulning asarlarida an’ana va navotorlikning namoyon bo‘lishi, hayotni o‘ziga xos obrazli yo‘l bilan ifoda etilishi, an’ana va navotorlikni ochib berishning o‘ziga xos qonuniyatlari, an’ana o‘tmish adabiyotidan qolgan eng yaxshi g‘oyaviy-badiiy boylik ekanligi, boshqa xalqlar adabiyotlarining eng yaxshi yutuqlari batafsil yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar. James Augustine Aloysius Joyce, Nazar Eshonqul, adabiyot, an’ana, adib, badiiy asar, ijod, novotor, san’at, obraz, ifoda etilish.

В статье подробно описывается проявление традиции и новаторства, выражение жизни уникальным образным способом, цель раскрытия традиции и новаторства в творчестве ирландского писателя и поэта Джеймса Августина Алоизиуса Джойса и писателя, сценариста, журналиста Назара Эшанкула. Анализируется закономерности, то, что традиция является лучшим интеллектуально-художественным богатством, оставшимся от литературы, а также лучшие достижения литературы других народов.

Ключевые слова. Джеймс Августин Алоизиус Джойс, Назар Эшонкул, литература, традиция, писатель, художественная деятельность, творчество, новатор, искусство, образ, выражение.

The article describes in detail the manifestation of tradition and innovation, the expression of life in a unique figurative way, the goal of revealing tradition and innovation in the work of the Irish writer and poet James Augustine Aloysius Joyce and the writer, screenwriter, journalist Nazar Eshankul. The patterns are analyzed, the fact that tradition is the best intellectual and artistic wealth remaining from literature, as well as the best achievements of the literature of other peoples.

Key words. James Augustine Aloysius Joyce, Nazar Eshonkul, literature, tradition, writer, artistic activity, creativity, innovator, art, image, expression.

Biz o‘z milliy madaniyatimiz, adabiyotimizni puxta o‘rganish, qadriyatimizni tiklash va e’zozlash bilan bir qatorda dunyo madaniyatida chinakam hodisa sifatida e’tirof etilgan, vaqt va zamonlar sinovidan o‘tgan boshqa xalqlarning nodir ijod namunalaridan ham bahramand bo‘lib borishga haqlimiz. Shu ma’noda irlandiyalik Jeyms Joys va o‘zbek adiblari Nazar Eshonqulning ijodi bilan o‘zbek o‘quvchi talabalarni tanishtirish kitobxonlarimiz ma’naviy dunyosini boyitishga, badiiy saviyasini yuksaltirishga, go‘zallikni nozik va teran his etishga odatlantirishga, didini o‘stirishga, qolaversa, XX asr adabiyotining eng muhim yangiliklaridan xabardor etishga xizmat qiladi.

An’ana (traditsiya) atamasi xususida adabiyotshunoslikda birinchilardan bo‘lib M.M.Baxtin 1924-yilda fikr yuritadi. U adabiyotni madaniyatning ajralmas qismi

ekanligini e'tirof etgan holda adabiyot ham an'anaviylikka ega ekanligiga to'xtaladi. An'ana (traditsiya) tushunchasini "Katta davr" deya tushuntirishga harakat qiladi. Aynan ushbu katta davrda o'ziga xos an'analar yaralishi va ijodkorlar unga munosabat bildirishi, o'z asarlarida ifoda etishi mumkinligini izohlaydi. Bu termenni (traditsiya) adabiyotshunoslikka birinchilardan bo'lib V.A.Dinnik tomonidan kiritiladi. V.A.Dinnik traditsiya so'zi lotinchadan olingan bo'lib (tradere-peredavatь) uzatish ma'nosiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Biroq bu tushuncha bir qator adabiy hodisalarni ketma-ketlikda natijalarni bog'lashga nisbatan istiloh etish mumkin emas deya uqtiradi. Shu bois ham u atamani kengaytirgan holda "taqlid qilish", "qarz olish", "ta'sir qilish" tushunchalari orqali anglatishga intiladi. Biroq adabiyotshunosning bu fikri ham an'ana atamasini to'liq anglata olmaydi.

Novatorlik (innovatsiya) masalasi san'at, falsafa va psixologiya yo'nalishlarining ham asosiy muammosi sifatida talqin etila boshlandi. Jameys Joy va Nazar Eshonqul kabi allomalar klassik falsafa, san'atda yangi o'ziga xoslikning paydo bo'lishini aynan iste'dod va daholik bilan belgilashdi. Bir qator tadqiqotlarda esa obrazlarni shakllantirishda individuallikning rolini muhim deb hisoblashadi. Bu ham o'z o'rnida novatorlikni keltirib chiqarishdagi muhim pozitsiya ekanligini ta'kidlashadi.

Badiiy asarlarining ijod jarayoniga ta'siri, san'at asarlarining ulardan oziqlanishi kabi muammoni Jeyms Joy mumtoz adabiyot bilan bog'lab o'rganadi. O'zbek adibi N. Eshonqul ham o'z navbatida aynan XX asr ijodkodlarining an'analarga bo'lgan munosabatini o'rganar ekan, adib ta'kidlaganidek, inson ruhiy holatini taftish etuvchi, uning o'zligini, "men"ini kashf etishga qaratilgan modern adabiyoti Sharqning ulkan tafakkur qudrati bilan yaratilgan. Bu borada yozuvchi Nazar Eshonqul fikr bildirar ekan, xalqimizning qadimiy ijod namunalarini yuqori baholab: "Turkiy xalqlar asotir va eposining ta'sir ko'lami shu darajada kengki, biz hatto buni tasavvur ham qilolmaymiz. Agar biz ana shu merosni o'zlashtira olsak, g'arb adabiyoti nimadan "oziqlangan"ini ham, chinakam ma'nodagi adabiyot o'zi nimadan iborat ekanligini ham tezda tushunib yetamiz". Nazar Eshonqul asarlarini o'qib turib yozuvchi ijodidagi ko'zga tashlanadigan jihatlar asosan xalq mifologiyasi asosida, uning o'zagidan ruh olib yaratilganligiga amin bo'lasan. Badiiy san'atning rivojlanishida badiiy an'analarning mohiyati va uning rolini shu asosda asoslaydi.

Insoniyat tarixi o'tmish davrlaridan iborat. O'tmaydigan davrning o'zi yo'q. Badiiy tafakkur ham shu. U tinimsiz o'zgaradi, o'zgargani sayin badiiy tasvir imkoniyatlari kengayadi, torayadi, tinch turmaydi. Shu tariqa har qanday milliy-badiiy tafakkur biridan keyingisiga o'tuvchi bosqichlar evolyutsiyasidan tashkil topa boradi. Ana shu tadrijiy davomiylik ilg'ab olinsa, milliy-badiiy tafakkurning yaxlit bir jarayon ekanligini tasavvur etish oson ko'rinadi. Mazkur yaxlit jarayon ichidagi badiiy tafakkur evolyutsiyasi bosqichlarini aniqlash uchun esa qo'llanilayotgan badiiy tasvir vositalari tadrijini o'rganishga to'g'ri keladi. Chunki ijodkor shaxs dunyoni, insonni qanday idrok etsa, shunga yarasha badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi, yangilarini kashf etadi. (Nurafshon Oripova).

Shunga asoslangan holda san'atda an'ana va novatorlik masalasining o'zaro ta'sirini o'rganadi. Bu masalaga estetika nuqtai nazaridan ham yondashilgan. Quyida sizning e'tiboringizga havola etilayotgan J.Joysning "Musavvirning yoshlikdagi shamoyili" romani bir qarashda atoqli o'zbek adiblari Nazar Eshonqul, Oybek, Abdulla Qahhor va G'afur G'ulomning avtobiografik asarlarini yodga soladi. Yosh bolaning, o'smirning ongi atrof-muhitni qay tarzda qabul qiladi, u ta'lim-tarbiya olayotgan maskandagi o'zaro munosabatlar, oiladagi, jamiyatdagi vaziyat bola ongining shakllanishida ne-

chog‘li ahamiyat kasb etadi, muayyan muhitda shakllangan bu ong o‘z-o‘zini anglash jarayonlarini qanday kechiradi — bular barchasi J.Joys va N. Eshonqul romanlarida nozik psixologik tahlillar orqali juda chuqur ochib berilgan.

Jeyms Joys asarlarida qoldirilgan yoki taklif qilingan narsa ko‘pincha gapiradigan aloqa usuli, garchi u ba’zan sirli, noaniq yoki noaniq rejimda bo‘lsa ham. Uning asarlarida o‘sha davrning ijtimoiy va madaniy hayot tarzini tasvirlashdagi o‘ziga xos foydalanilgan so‘zlarning san‘atini ko‘rish mumkin. Nazar Eshonqul va Jemys Joy mualliflar tasvirida ularning asar qahramonlarining fikrlarini, o‘y-xayollarini, kechinmalari va his-tuyg‘ularini asosan uning ichki monologlari orqali ko‘rsatib beradi.

Inson tafakkurining yangilanishida, uning ongiga ma’lum bir g‘oyani singdirishda hech qaysi soha adabiyotchalik imkoniyatga ega emas. Ijodkorning “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Maymun yetaklagan odam”, “Xayol tuzog‘i”, “Tobut”, “To‘zon”, “Og‘riq lazzati” kabi hikoyalarini har jihatdan ilmiy-estetik tahlil va tatqiq qilish, ular orqali o‘zbek hikoyachiligida g‘arb modern adabiyotiga xos xususiyatlarning shakllanishi va o‘ziga munosib o‘rin egallash jarayonini o‘rganish mumkin.

“Har bir millat o‘z uyg‘onish davrini o‘ziga xos yo‘sinda boshdan kechirgan” deb yozadi taniqli badiyatshunos faylasuf A.Losev va uyg‘onish badiyatining bosh alomatlaridan biri qadimgi qadriyatlarga tashnalikning kuchayishi ekanini ta’kidlaydi. Insoniyat tarixidagi eng ko‘hna qadriyatlar tabiat qonunlariga uyg‘unlashib ketishi bilan farqlanadi. Bu ulkan haqiqat Nazar Eshonqul hikoyalarida o‘ziga xos tarzda o‘z talqinini topdi. Ayniqsa, o‘zbek xalqi tabiatidagi eng qadimiy va eng tabiiy tuyg‘u kindik qoni to‘kilgan ona zaminga muhabbat tuyg‘usi hisoblanadi.

“Modern adabiyotning bosh kitobi bo‘lmish “Uliss” (o‘zbekchada “Ulissning sarguzashtlari”) romani jurnal variantida (“Jahon adabiyoti” 2008. №4–9) nihoyat, o‘zbek tilida ham nashr etildi. Gap shundaki, ko‘lami va salmog‘i jihatidan XX asrning eng yirik va eng shov-shuvli asari hisoblangan, butun G‘arb madaniyatini larzaga keltirgan “Uliss” dunyoning qaysi tiliga tarjima qilinmasin, o‘ziga xos milliy hodisa sifatida e’tirof etiladigan asarlar sirasiga kiradi. Bu asar tarjimasi har qanday tilni sinovdan o‘tkazadi, uning qudratini ko‘rsatadi, imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarjima uchun taniqli tarjimon Ibrohim G‘afurovning jasoratiga alohida tasanno aytish kerak. Chunki “Uliss” har kim ham tarjima qiladigan yoki tarjima qilishga jazm etadigan asar emas. Bu asarni mashhur Virjiniya Vulf “roman-ensiklopediya” degan bo‘lsa, boshqa bir tadiqiqotchi undagi mavzular va sharhlar qamrovini butun boshli ilmiy tekshirish institutiga tenglashtirgandi.

“Shamolni tutib bo‘lmaydi”dagi Bayna momodek matonatli insonlar, “Xaroba shahar surati”dagi parishon yigit, o‘z tanazzulini sezmagan saylovga nomzodi qo‘yilgan shoir, unga qarama-qarshi tarzda o‘z mag‘lubiyatini seza turib, bunga ko‘nikkan professor, “Xayol tuzog‘i”dagi aldov va maqsadsizlik ustiga qurilgan bu dunyodan voz kechgan Voqif, inson miyasini taomiga aylantirgan “To‘zon”dagi maxluqlarga urush ochib, o‘zi ham uning domiga tushgan yozuvchi yigit, “Lazzat ortida qolgan yurak”dagi kabi yo‘qlik va noma’lumlik, puch g‘oyalarga berilgan talabalarning o‘y-xayollari, orzu-armonlari, kechinmalari, his-tuyg‘ulari aks etgan bir qator hikoyalar dunyoga keldiki, ular Xurshid Do‘stmuhammadning ta’biri bilan aytganda bugungi “uyg‘onish badiyatining” nodir namunalari sirasiga kiradi.

Har bir davr san’ati o‘zidan oldingi san’at bilan bog‘liq bo‘ladi.

Bir xalq adabiyoti o‘zidan oldingi san’at bilan bog‘lik bo‘ladi.

Bir xalq adabiyoti ikkinchi xalq adabiyotiga ta’sir etadi. Bundan vorislik qonuni kelib chiqadi.

Har bir davr adabiyoti o‘zidan oldingi davr adabiyoti yutuqlaridan boshqa xalqlar adabiyoti yutuqlaridan bahramand bo‘lmasdan rivojlana olmaydi.

Formal an’analar yoki badiiy an’analar sohasidagi an’analar yoki badiiy an’analar sohasidagi an’analar. Shunisi muhimki, g‘oyaviy an’analar hamda tiplar an’anasi dunyoqarashi bir-biriga yaqin yozuvchilar tomonidan rivojlantiriladi. Formal an’analar esa dunyoqarashi turlicha bo‘lgan yozuvchilar tomonidan ham rivojlantiriladi. Chunki badiiy forma dunyoqarashga betaraf bo‘ldi. Lekin har bir yozuvchi mavjud formaning o‘zining dunyoqarashini ifodalagan bo‘ysundirishi mumkin. Demak, formal an’ana bu oldingilardan meros qolib keyingi yozuvchilar tomonidan rivojlantirilayotgan janrlar (roman, g‘azal) tasvir vositalari vazn ham qofiyalardir.

Bundan tashqari shuni e’tirof etish kerakki, Nazar Eshonqul va Jemys Joy hikoyalari tili o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularning asarlarida qahramonlarining ijobiy yoki salbiy qahramon ekanligi yozuvchi tilidan e’tirof etilmaydi. Aksincha, bu yumushni o‘quvchining o‘ziga qoldiradi, uni mushohadaga chorlaydi. Umuman olganda, asarda kimlar ulug‘lanayotgani, qoralanayotgani ko‘pincha bevosita emas, bavosita ifodalanadi. Majoziy, ko‘chma ma’noli tasvirlar ta’rif-u tavsiflarga tez-tez murojaat etilib, ularning ustuvorligi ta’minlanadi. Eng muhimi, tasvirlardagi majozlar ko‘chma ma’noli vositalar qahramonlarning betakror ruhiy dunyosini yoritishga xizmat qiladi.

Bugungi nasrdagi yangi jarayonlar, ma’naviy, shakliy-uslubiy izlanishlar ko‘proq Nazar Eshonqul hikoyalarida o‘ziga xos tarzda aks etmoqdaki, u yozuvchi ta’kidlaganidek, o‘tmish ajdodlarimiz yaratgan qadimiy adabiyotdan kuch olayotgan bo‘lsa, ajab emas. Bu yozuvchining ilk hikoyasi “Maymun yetaklagan odam”dayoq o‘z ifodasini topgan edi. Mazkur asar zamondosh, asrdosh obrazini yaratish yo‘lidagi yetmish yillik tajribalarning muayyan intihosi va ayni zamonda yangi bosqichning boshlanishi bo‘ldi, deya adabiyotshunoslarimiz tomonidan yuqori baholangan edi.

Joysning yozish uslubi uning tillarga bo‘lgan muhabbatini ham, fikrlari qanday jaranglashini aniq ifodalash istagini ham aks ettirardi. Uning asarlarida Irland motivi mujassamlashgan bo‘lsa-da, Joysning adabiy texnikasi bir asardan boshqasiga o‘zgardi. U tez-tez diksiya, monolog va monologlar bilan ijod qilgan. Ko‘pgina yozuvchilar, kinoijodkorlar va boshqa ijodkorlar uning uslubiy yangiliklari, xususan, detallarga puxta e’tibor berish, interyer monologini qo‘llash, so‘z o‘yini, an’anaviy syujet va xarakter rivojlanishini tubdan o‘zgartirishi kabi ta’sir ko‘rsatgan.

Jeyms Joys o‘zining eksperimental tildan foydalanishi va yangi adabiy usullarni o‘rganishi, jumladan, interyer monologi, ramziy parallellarning murakkab tarmog‘idan foydalanishi va o‘zining romanlarida, xususan, Uliss (1922) va Finnegans Wake’da so‘zlar, so‘z o‘yinlari va ishoralarni ixtiro qilgani bilan mashhur. (1939). “Uliss” ko‘pincha buyuk adabiyotlar ro‘yxatida yuqori o‘rinlarni egallaydi va uning ishini tahlil qiladigan akademik adabiyotchilar ko‘p va ular bu ishda davom etishmoqda. Ko‘pgina yozuvchilar, kinoijodkorlar va boshqa rassomlar uning uslubiy yangiliklaridan ta’sirlangan, masalan, tafsilotlarga ehtiyotkorlik bilan e’tibor berish, interyer monologidan foydalanish, so‘z o‘yini, an’anaviy syujet va xarakter rivojlanishini tubdan o‘zgartirish va hokazo. Joyce hayotining ko‘p qismi chet elda o‘tgan bo‘lsa-da, uning xayoliy olami Dublinda joylashgan bo‘lib, asosan u yerdagi oila a’zolari, dushmanlari va do‘stlariga o‘xshab ketadigan qahramonlardan iborat edi. “Uliss” romanida, ayniqsa, shahar ko‘chalari va xiyobonlarida uning mangu siymosi o‘rnatiladi. Joycening “Men o‘zim uchun doimo Dublin haqida yozaman, chunki agar men Dublinning yuragiga kira olsam, dunyoning barcha shaharlarining qalbiga kira olaman. Xususan, insoniyat ichiga ham” degandi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu ikki adiblar Jeyms Joy va Nazar Eshonqul asarlarida an’ana va novotorlik badiiylik mezoni bo‘lib, u davrlar o’sha asosiy masalaga aylanib bormoqda. An’ana va novotorlik tushunchasi keng qamrovga ega. U nafaqat adabiyot sohasidagi davomiylikni belgilaydi, balki falsafa, estetika, san’at, madaniyat, tarix va boshqa sohalarda ham davomiylikni anglatadi. An’ana tushunchasi ham davrga, ham yo‘nalishga hamda ijodkorga nisbatan qo‘llaniladi. Hech bir ijodkor o‘z-o‘zidan asar yarata olmaydi. Unga albatta salaflarning ijodiy izlanishlari ta’sir etadi. Natijada muftunkorlik sabab an’anaga murojaat etish kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ellmann 1982, p. 505; 789, n. 27: Cited from Power, Arthur (n.d.). From an Old Waterford House. London. b.63–64.

2. Bowker, Gordon (2012). James Joyce: A New Biography. Farrar, Straus and Giroux. ISBN 978-0-374-17872-7 OCLC 802264865.

3. Bulson, Eric (2006). The Cambridge Introduction to James Joyce. Cambridge University Press. ISBN 1-879373-30-0. OCLC 442719108.

4. Azim Ro‘ziyev “Yoshlik”, 2016-yil 3-son

5. Eshanqul, N. “You can’t catch the wind.” Short stories and stories. Tashkent. 2005 Vol. 37 (2023): Miasto Przyszłości 169 Miasto Przyszłości Kielce 2023

6. Matyokubov, S. Creative individuality in the stories of Nazar Eshanqul. Tashkent. Uzbek language and literature. 2011

7. Normatov, U. Optimistic principles. T.: Spirituality. 2000

8. Nurafshon Oripova Olimon qizi. Nazar Eshonqulning modern asarlari tahlili https://doi.org/10.5281/zenodo.7162347

9. Kuronov, D. Introduction to literary studies. Tashkent. Science. 2007.

10. Шацкий Е. Утопия и традиция. – М., 1990; Благой Д. Д. О традициях и традиционности // Традиция в истории культуры. - М, 1978. - С. 28 - 36, 5.

11. Власова В. Б. Традиция как социально-философская категория // Философские науки. -1980. - № 4. - С. 30 – 39. 6.

Yulduz KUDRATOVA,
“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
“Xorijiy filologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

KOREYS TILIDA HISSIY LEKSEMALARNING NAZARIYASI, ULARNING GRAMMATIK – MA’NOVIY JIHATDAN FARQLASH XUSUSIYATI VA REKLAMA MATNLARIDA QO‘LLANISHI

Annotatsiya

Maqolada koreys tilida hissiy leksemalarning nazariyasi, tilda emotsional elementlar inson his-tuyg‘ularini ifodalash uchun xizmat qilishi, ularning ma’noviy grammatik jihatlaridan farqlash xususiyatlari, “Hissiy leksema” va “Emotsionallik” terminlarini Koreya reklama matnlari misolida aniq ochib berilgan. Shuningdek, hissiy leksemalarning grammatik jihati aniqlashtirilgan, fe’l va sifat hissiy leksemalarning uslubiy ma’no qirralari Koreya reklama matnidan olingan misollar vositasida asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar. Koreys tili, hissiy leksemala, emotsional elementlar, inson his-tuyg‘ulari, ma’noviy grammatik jihat, emotsionallik, termin, Koreya reklamasi, matn, grammatik jihat, fe’l, sifat, ekspressivlik, sematika, konnotativ component.

В статье раскрываются теория эмоциональных лексем в корейском языке, эмоциональные элементы в языке для выражения чувств человека, их отличительные особенности от семантических грамматических аспектов, термины “Эмоциональная лексема” и “Эмоциональность”. Также уточняется грамматический аспект эмоциональных лексем, обосновываются стилистические смысловые аспекты глагольных и прилагательных эмоциональных лексем с помощью примеров, взятых из корейского рекламного текста.

Ключевые слова. Корейский язык, эмоциональные лексемы, эмоциональные элементы, эмоции человека, эмоциональный грамматический аспект, эмоциональность, термин, корейская реклама, текст, грамматический аспект, глагол, прилагательное, экспрессивность, сематика, коннотативный компонент.

The article reveals the theory of emotional lexemes in the Korean language, emotional elements in the language for expressing human feelings, their distinctive features from semantic grammatical aspects, the terms “Emotional lexeme” and “Emotionality”. The grammatical aspect of emotional lexemes is also clarified, and the stylistic semantic aspects of verbal and adjective emotional lexemes are substantiated using examples taken from Korean advertising text.

Key words. Korean language, emotional lexemes, emotional elements, human emotions, emotional grammatical aspect, emotionality, term, Korean advertising, text, grammatical aspect, verb, adjective, expressiveness, semantics, connotative component.

Tildagi emotsional unsurlar inson his-tuyg‘ularini ifodalashga xizmat qiladi. Shu maqsadda tilda ko‘plab vositalar qo‘llaniladi. Emotsional leksemalar esa ham his-tuyg‘u, ham fikr ifodalashda ekspressivlik va obrazlilikni oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, "emotsional leksema" va "emotsionallik" atamalari bir-biri bilan kesishadi, deb taxmin qilish mumkin. Emotsional leksemalardagi fe’l va sifatlar struktur jihatdan qaralganda, tub fe’l va sifatlar semantikasining yasama fe’l va sifatlardan ustunligi ularning muhim ekspressiv imkoniyatlarini belgilaydi.The expressiveness of verbs and adjectives reflects the “processing” of information in a person’s inner world by means of taste, sight, and hearing. Biroq rang, tovush, hid, ko‘lam ma’no-

larini anglatuvchi so‘zlarning birikmasi ko‘pincha inson idrok doirasini kengaytiradi. Ushbu maqolada koreys tilidagi emotsional leksemalar nazariyasini o‘rgandik. Ularning ma’noviy va grammatik farqlarini aniqladik va koreys reklama matnlari misolida yanada aniqroq va yorqinroq tushuntirishga harakat qildik. Buning uchun biz quyidagi vazifalarni bajardik: emotsional leksemalar nazariyasi bilan tanishish; emotsional leksemalarning grammatik aspektini aniqlash; koreys tilidagi reklama matnidan olingan misollar orqali fe’l va sifat emotsional leksemalarning uslubiy semantik jihatlarini asoslashdan iborat.

Hissiy leksema semantikaning muhim elementini ifodalovchi tilning muhim faktorlaridan biri hisoblanadi. Hissiy leksemalarni namoyon etuvchi shakllarning xilma-xilligi, bu hodisaning kengligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda hissiy leksemaga tilshunoslikda alohida ahamiyat qaratilmoqda. Katta nazariy material mavjud bo‘lishiga qaramay, o‘rganilayotgan muammoning qator aspektlari yetarlicha tadqiq qilinmagan. Tilshunoslikda ekspressivlik tadqiqida ikki xil yondashuv kuzatiladi: funksional-uslubiy va leksik-semantik. Hissiy leksema konnotatsiyaning bir komponentidir. Konnotativ komponent – so‘zining asosiy ma’nosini ijtimoiy-psixologik baho aks etgan ma’nolar bilan to‘ldiruvchi sistem - leksik ma’nosining bir qismi hisoblanadi. Konnotativ komponent tuzilishiga ko‘ra juda murakkab bo‘lib, hozirgacha tilshunoslikda unga aniq ta’rif keltirmagan.

Hissiyot – buinsoniyatning besh a’zosida, ya’ni, ko‘z, quloq, burun, til, va badan kabi besh a’zolari orqali ichki, shuningdek tashqi ta’sirlar nerv sistemasiga yetib borishidan paydo bo‘lgan anglab yetish holatidir. Bu koreys tilida 오각[o‘gak] yoki 오감 [o‘gam] – besh hissiyot deb nomlanadi.

Lee Xoi Seung (2008)ning “Koreys tili lug’atlar to‘plami” 1 nomli kitobida hissiyot haqidagi nazariyalarni quyidagicha tasniflagan:

Sezish orqali anglab yetadigan hissiyot;

Tashqi shuningdek ichki ta’sir natijasida paydo bo‘ladigan hissiyot;

Qandaydir bir predmetni his qilib, uni qabul qiladigan kuch;

Sezish a’zosidan chiqib katta miya boshqaruviga ta’sir qiladigan hislarning ko‘rish, eshitish, hid sezish, ta’m bilish, og’riq sezish kabi turlari bo‘lib, bular orasida yuqoridagi ikkitasini yuqori his qiluvchi hissiyot, qolganlarini past his qiluvchi hissiyot deb nomladi.

Insoniyat tashqi yoki ichki muhitda harakat va tajribasini amalga oshirishi va qabul qilishining barchasini orqa miya boshqaradi. Insoniyatning katta miya qismi bo‘lgan miya yarim korteksi asosan hissiyot funksiyasi, harakat funksiyasi, birlashish funksiyalarini amalga oshiradi. Hissiyot funksiyasi yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, ko‘rish, eshitish, ta’m bilish, hid sezish, og’riqni bilish kabi barcha hissiyotlarni boshqaradigan markaziy nerv sistemasi harakatlarini amalga oshiradi. Birlashish fuknsiyasi qalbni boshqarish, xotira, anglab yetish kabi harakatlarni amalga oshiradi. Inson til faoliyatini amalga oshirgan paytda yuqoridagi uchta funksiya organik sifatida birlashib, hissiyot funksiyasi ham bir-biri bilan o‘zaro organik jihatdan birlashib tuyg’ularni his qiladi. Chunki hissiyot leksemalarini nazorat qilish orqali bitta hissiy leksema bitta hissiyotni ifodalab beradi. Yoki bir nechta hissiyotni ifodalasa, o‘shancha hissiy leksemalar birlashib kelib chiqishi natijasida leksema so‘zlar yuzaga keladi.

Hissiy leksemalarning tasniflanishi har xil me’yorlar asosida ajratiladi. Grammatik jihatdan hissiy leksemalarni tasniflash haqidagi tadqiqot olib borgan Choi Chang Ryul

[1] 이승희, 『국어대사전』, 민중서관,2008.

(2009)2, Kiseok Cheon (2004)3, Jaeyoon Jeong (2009) 4 kabilarning nazariyasiga qaraganda, koreys tilidagi hissiyotni ifodasini umumiy qilib ikkiga, 감각동사 - hissiyot fe'li va 감각형용사 - hissiyot sifatiga ajratadi. 감각동사 - hissiyot fe'li sezish fe'li sifatida "느끼다" – "his qilmoq" kabi, ta'm bilish hissiyot fe'li sifatida "맛보다"-"ta'tib ko'rmoq" kabi, hid bilish hissiyot fe'li sifatida "(냄새) 맡다" – "hidlamoq" kabi, eshitish hissiyot fe'li sifatida "듣다" – "eshitmoq" kabi va ko'rish hissiyot fe'li sifatida "보다" – "ko'rmoq" kabi fe'llar mavjud.

Hissiyot sifati har xil tasniflnadi. Tadqiqotchi Jaeyoon Jeong (2009) hissiy leksemalarni umumiy jihatdan olib, 외부감각- tashqi muhitdagi hissiyot va 내부감각- ichki muhitdagi hissiyotlarga tasniflagan.외부감각 - tashqi muhitdagi hissiyot yuqorida qayd etilganidek, '시각' – ko'rish, '청각' – eshitish, '미각' – ta'm bilish ,'후각'- hid bilish, '외피감각' –tashqi muhitdan o'zini himoya qilish hissi ('촉각' – teginish hissi, '통각' – og'riq hissi, '온각' – issiq haroratni sezish hissi, '냉각' – sovuq haroratni sezish hissi) va 내부감각 - ichki muhitdagi hissiyotga '유기감각' – organik hissiyotlar olib umumiy 9 taga tasniflagan. Tadqiqotchi Jeong Insoo (2007)5 o'z ishlarida tashqi muhitdagi hissiyot haqida quyidagicha fikr yuritgan. Ya'ni, 시각- ko'rish hissiyotini '공간감각' – bo'shliqli hissiyoti va "ko'rish hissi" sifatida tasniflagan. Teginish hissi, eshitish, ta'm bilish, hid bilish hislari bilan qo'shganda 6 ga ajratgan. Ko'rish hissi yorug'lik va qorong'ulik, rang bilan tasniflanadi. Eshitish hissi quloq orqali eshitish, va buni ovoz bilan ritmga ajratgan. Va eshitish hissining holatiga qarab [-+소리] – [-+ovoz] sifat qo'shimchasiga qarab "시끄럽다"- "shovqin" (시끄럽다, 소란하다- shovqin qilmoq, notinch)va "고요하다" – tinchlik ("조용하다", "고요하다" – jimjitlik, tinch)ga tasniflagan.

Hid bilish hissi [-+향기] – [-+ iforli] (향기롭다–iforli; 향긋하다– yaxshi hid), [+지린내] – [+yoqimsiz] (지리다–yoqimsiz hid), [+구리다] – [+sassiq] (구리다 - sassiq hid); [+구수함] –[+ mazali] (구수하다- mazali hid, 고소하다- shirin table hid) kabilarga ajratgan. Ta'm bilish hissi biologik jihtdan til holatiga qarab maza turlariga ajratiladi. Ya'ni, bular asosan 단맛- shirin ta'm, 신맛–achchiq ta'm, 쓴맛–nordon ta'm, 짠맛– sho'r ta'mga ajratiladi. Va shuningdek '새콤달콤하다'– achchiq shirin ta'm kabi aralash maza ham bor.

Kiseok Cheon (2004) koreys tili fe'lini harakat fe'li va holat fe'liga ajratdi. Bu yerda holat fe'li sifatni aniqlashtirib kelishining mumkin yoki mumkin emasligiga qarab yana qayta tasniflab chiqdi. Bunda hissiy leksema aniqlashtirib bo'lmaydigan holat sifatida qabul qilindi. Yongjoo Son (2002)6 hissiy leksemani gapirayotgan odam o'zining ruhiyatini his qilgan holda yoki o'ylayotgan predtmetini ifodalaydigan sifatni ruhiy sifat va hissiy sifat deb nomladi.

Til ekspresiyasini yaratishda sifatlar muhim so'z turkumlaridan biri sanaladi va xususan koreys tili, shuningdek o'zbek tili matn doirasida turli ma'no ottenkalarini ifodalovchi muhim uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi. Kishining yashash darajasi, holatini ko'rsatuvchi bir qator sifat leksemalar mavjud. Ba'zan kishining hayotiy ahvoli to'g'ridan to'g'ri emas, balki narsa va predmetlarni tasvirlash orqali ham ko'rsatilishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ruhiy sifat va hissiy sifat kishinig moddiy ahvolini anglatish bilan bir qatorda, uning holatini ham bildiradi.

Yuqoridagi tasniflarga asoslangan holda besh turdagi hissiy leksema tarkibiga

[2] 최창렬, 『말과의미』, 서울: 집문당,2009.
[3] 천기석, 『국어의동작동사와상태동사의체계연구』, 경북대학교대학원박사학위논문,2004.
[4] 정재윤, 『국어차원낱말의의미구조』, 부산대학교박사학위논문,2009.
[5] 정인수, 「국어형용사의공감각적전이연구」, 『현대문법연구』, 제11호, 현대문법학회, PP.163-180,2007.
[6] 손용주, 「감각형용사의분류체계」, 『대구어문논총』,제10집, 우리말글학회, PP.127-154, 2002.

kiradigan so‘zlar tasniflansa quyidagicha bo‘ladi7:

오감에따른어휘분류

감각	감각 동사	감각형용사	
촉각	느끼다	통각	가렵다,간지럽다,거북하다,따갑다,무렵다,아프다,저리다
		촉감	거칠다,부드럽다,미끄럽다,미끈하다,굳다,단단하다,무르다,몰렁하다,몰랑하다,두껍다,얇다,나긋하다,곱다,촉촉하다,푸석하다
		온도	무덥다,덥다,후더분하다,따뜻하다,뜨겁다,뜨뜻하다,춥다,시원하다
미각	맛보다	단맛	달콤하다,달다
		신맛	새콤하다,시다
		쓴맛	쓰다
		짠맛	짜다,싱겁다
		매운맛	맵다,매콤하다,칼칼하다,알싸하다,얼큰하다
		떫은맛	떫다
		냄새	고소하다,구수하다,노리다,바라더,타분하다
		소화과정의 느낌	텁텁하다,느끼하다
후각	(냄새)맡다	맛	고소하다,노리다,비리다,타분하다
		냄새	고리다,고약하다,그리다,지리다,쾨쾨하다,싱그럽다,향기롭다
청각	듣다	소리	고요하다,잠잠하다,조용하다,은은하다,우렁차다,을리다,시끄럽다
시각	보다	명암	밝다,환하다,어둡다,침침하다,맑다,흐리다,부시다,빛나다
		색조	검다,까맣다,노랗다,누르다,빨갛다,파랗다,푸르다,하얗다,희다
		차원	길다,짧다,멀다,높다,낮다,깊다,얕다,넓다,좁다,크다,작다,굵다

Besh turdagi hissiyotga aloqador so‘zlar tasnifi

Hissiyot	Hissiyot fe’li	Hissiyot sifati	
S e z i s h hissi	His qilmoq	Og’riq hissi	qichishmoq, qitiqlamoq, qotib qolmoq, qaynoq, chaqmoq, og’rimoq, sezuvchanlikni yo‘qotmoq
		Tegish hissi	yumshoq, sirpanchiq, mayin, qattiq, suyuq, qalin, yupqa, sayoz, qiyshiq, nam, siniq
		issiqlikni sezish hissi	dim, issiq, jazirama iliq, qaynoq, sovuq, salqin

7 왕옥봉,’식품과향수광고텍스트의감각어연구’충남대학교대학원석석사학위논문pp 26-26, 2009.

Ta’m bilish hissiyoti	Ta’tib ko‘rmoq	shirin ta’m	shirin, mazali
		nordon ta’m	nordon
		taxir ta’m	taxir
		sho‘r ta’m	sho‘r, chuchuk
		achchiq ta’m	achchiq, o‘tkir achchiq
		hid	shirin, mazali, yoqimsiz, aynigan
Hid bilish hissi	Hidlamoq	ta’m	shirin, mazali, yoqimsiz, aynigan
		hid	achigan hid, yoqimsiz, sassiq, aynigan, yangi, iforli
Eshitish hissi	Eshitmoq	ovoz	sokin, jimjitlik, tinch, osuda, shovqin, jiringlash, baqirish
Ko‘rish hissi	Ko‘rmoq	yorug’lik va qorong‘ulik	yorug’, tinniq, qorong’u, nimqorong’u, musaffo, bulutli, ozoda, yaltiramoq
		rang	qora, qopqora, sariq, sapsariq, qizil, ko‘k, yashil, oq, kulrang
		o‘lchov	uzun, qisqa, uzoq, yaqin, baland, past, chuqur, sayoz, keng, tor, katta, kichkina, yirik

Hissiyot sifatlari so‘zlovchinig nutq predmetiga nisbatan munosabatini namoyon etish imkoniyati va shu orqali unga o‘ziga xos emotsionallik bag‘ishlashi ularning butun kontekstining uslubiy xususiyatlariga tas’sir ko‘rsatishini belgilaydi. Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish hissining rang hissiy sifatlarini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

까맣다- qora sifati ijobiy yoki salbiy emotsional ekspressivlikni ifodalaydi. Ijobiy leksemasini ifodalashda bu leksema inson organizmining yuqori qismida joylashgan a’zolar (머리카락-soch, 눈-ko‘z, 눈썹-qosh)ni tasvirlash maqsadida qo‘llanganda kuzatiladi. Salbiy semada qo‘llanganda munofiqlik, g‘alamislik, g‘iybatchilik, ochko‘zlik, berahmlik singari sifatlarni ko‘rsatishga xizmat qiladi.

푸른색- yashil sifat leksemasi tiriklikni, hayotni ramziy tasvirlasa, 노란색-sariq sifat leksemasi, aksincha, ayriliq, firoqning ramziy belgisi sifatida yuzaga chiqadi.

Maza – ta’m bildiruvchi 쓴맛- achchiq va 단맛- shirin sifatlari ekspressiv ma’nosida maza – ta’m ma’nosi ikkilamchi o‘ringa tushib, asosiy birlamchi ma’nosi ruhiy holat ifodasiga ixtisoslashadi. Bu leksik semantik guruhga oid sifatlar ijtimoiy jarayondagi mavhum tushunchalar bilan birga qo‘llanilib, yaxshi va yomon ma’nolarini ifodalaydi. Shuningdek, Koreya reklama matnlarining ko‘pchiligida hissiy leksemalar ko‘p qo‘llanilgan. Bunga misol qilib quyidagi reklama matnlarini olishimiz mumkin:

낙지와 야채가 어우러져 담배하고 시원한 맛이 일품인 낙지연포탕.– sakkizoyoq va sabzavotlar aralashmasidan mazali va yoqimli ta’mli sakkizoyoqli sho‘rva.(낙지연포탕)[8]

커피향에 이끌려 한 모금 마시면,우유보다 더 부드러운 맛이 나를 설레게 한다.– Kofe iforiga ishtiyoqligimdan bir qultum ichsam, sutdan ham mayin ta’m meni lol qoldiradi.커피우유(서울우유)[9]

달콤한초코쿠키시럽과초코소스가결합되어, 달콤하면서흔들어생긴부드러운커

[8] <우먼센스>, 낙지연포, 2009.8.
[9] <우먼센스>, 커피우유(서울우유), 2005.8.

피거품과함께부드럽고차가운달콤한아이스커피의맛을느끼실수있습니다.– Mazali va shokoladli sirobga shokoladli sousni ishtaha bilan aralashtirsa, paydo bo‘lgan mayin kofe ko‘piklari bilan birga mayin va muzdak shirin muzli kofe ta’mini his qilish mumkin. (카푸치노쉐이키(쿠앤크)10

Birinchi reklama matnidagi “시원하다”–“salqin” so‘zining asil ma’nosi haroratni ifodalaydigan hissiy leksema bo‘lib, ta’m bilish hissiy leksemasiga ko‘chma ma’noda o‘tgan. Ikkinchi reklama matnidagi “부드럽다” – “mayin” leksemasi teginish hissi leksemasida qo‘llaniladi, lekin ta’m bilish hissiy leksemasida ko‘chma ma’noda kelgan. Uchinchi reklamadagi “부드럽다” –“mayin” va “차갑다” – “muzday” leksemakari ham teginish hissi leksemasida qo‘llaniladi, lekin ta’m bilish hissiy leksemasida ko‘chma ma’noda kelgan.

망고패션프루트칵테일,촉촉한푸른잎사귀그리고핑크그레이프프루트의달콤하고상쾌한향과함께오렌지의반짝이면서도태양빛을가득담은느낌– Mango mevali koktel, yangi yam-yashil barglari va pushti greypfrutning shirin va yoqimli ifori bilan birgalikdan apelsinning yaltirashi xuddi quyosh nuridan toblanganday bo‘lgan hissiyot (플레져엑조틱(ESTEE LAUDER))11

따뜻한우디노트와향–yoqimli udi yozuvi va ifor(자료236: 오파퓨메오떼루즈(Bvlgari))12

To‘rtinchireklamadagi “달콤하다” – “mazali, shirin” aslida ta’m bilish hissiyotini ifodalaydigan leksema, lekin bu atir reklemasida hid bilish hissiyot leksemasiga ko‘chgan. Va oxirgi beshinchi reklama matnidagi “따뜻하다” – “illiq” leksemasi harorat semasi bo‘lib, teginish hissiy leksema tarkibiga kiradi, lekin bu yerda “yoqimli” ma’nosiga o‘zgarib hid bilish leksema tarkibiga ko‘chgan.

Umuman olganda, sifat leksemalardan nutq jarayonida, jumladan matnlarda o‘rinli va oqilona foydalanish uslubiy ta’sirchanlikni oshirish, ma’noni kuchaytirishning muhim vositalaridan biri sanaladi. Davrlar o‘tishi bilan til vositalarining nutqda qo‘llanish imkoniyatlari kengayib borganidek, hissiy fe’l va sifat leksemalar ham yangi okkazional semalari bilan nutqiy ta’sirchanlik doirasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 손용주,「감각형용사의분류체계」,『대구어문논총』,우리말글학회, 제10집, PP.127-154, 2007.

YongjooSon, “Hissiyot sifatining klasifikatsiyasi”, “Degutil va adabiyot birlashmasi”, Koreys tili konferensiyasi, 10-to‘plam, 127-154-bet, 2007.

2. 오파퓨메오떼루즈(Bvlgari)

Oh papa O Rouge (Bvlgari) atir reklamasi.

3. 이승희, 『국어대사전, 민중서관,2008.

LeeXoiSeung, “Koreys tili lug’atlar to‘plami”, Min Jung kutubxonasi,2008.

4. <우먼센스>, 낙지연포탕, 2009.8.

“Ayolni his qilish” jurnali, sakkizoyoq sho‘rvasi reklamasi, 2009.8.

5. <우먼센스>, 커피우유(서울우유)2005.8

“Ayolni his qilish” jurnali, Sut-kofe reklamasi (Seul suti), 2005.8.

[10] <여성조선>,카푸치노쉐이키(쿠앤크)(Dunkin Donuts),2009.6.

[11] 플레져엑조틱(ESTEE LAUDER)

[12] 오파퓨메오떼루즈(Bvlgari)

Mastona G‘OZIYEVA,
“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
“Xorijiy filologiya” kafedrasi katta o‘qiuvchisi

INGLIZ TILI DARSLARIDA NOFILOLOGIK YO‘NALISH TALABALARINING SOTSIOPRAGMATIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN MASHQLAR

Annotatsiya

Maqolada chet tili o‘qitish metodikasining muhim jihatlari muhokama qilindi. Jumladan, unda chet tili o‘quv predmetini sotsiopragmatik kompetensiyani shakllantirish orqali o‘qitish masalasi yoritilgan. Shuningdek, mazkur kompetensiyani shakllantirishda maqbul sanalgan samarali texnologiyalar taqdim qilingan.

Tayanch so‘zlar: Chet tiil o‘qitish, sotsiopragmatik kompetensiya, ta’lim bosqichlari, muloqot ko‘nikmalari,sotsiomadaniy kontekst.

В статье обсуждаются важные аспекты методики преподавания иностранного языка. В частности, в ней освещен вопрос преподавания предмета иностранного языка через формирование социопрагматической компетенции. Также представлены эффективные технологии, которые считаются приемлемыми при формировании данной компетенции.

Ключевые слова. Иностранное обучение, социопрагматическая компетенция, этапы обучения, коммуникативные навыки, социокультурный контекст.

The article discusses important aspects of foreign language teaching methodology. Specifically, it addresses the issue of teaching a foreign language subject through the formation of sociopragmatic competence. Effective technologies are also presented that are considered acceptable in the formation of this competence.

Key words. Foreign language learning, socio-pragmatic competence, educational stages, communication skills, sociocultural context.

Globallashuv jarayoni dunyo miqyosida jamiyatning barcha sohalarini qamrab olayotgan sharoitda chet tili ta’limi zimmasiga bir qancha muhim vazifalarni yukladi. Bugungi davr chet tilidan amaliy foydalanish samaradorligini chet tili o‘quv predmetining ham, ta’limning ham asosiy muammosiga aylantirdi. Chet tili ta’limining asosiy vazifasi o‘quvchilarga faqat bilim berish emas, balki bu bilimlar orqali ularning kommunikativ malakasini oshirishdir. Ayni damda chet tili ta’limida ham tarkibiy bosqich amalga oshirildi: reproduktivlikdan kognitivlikka qadam qo‘yildi. Bu degani reproduktiv ingliz tilini o‘qitishda o‘qituvchi kuzatuvchi, yo‘naltiruvchi sifatida o‘quvchi esa passiv emas, balki faol subyekt sifatida harakat qilmoqda. Mamlakatimizda mavjud nofilologik yo‘nalish OTMlarida chet tilini o‘qitishga talabning oshishi nafaqat professor ustozlar balki, talabalar oldiga ham ko‘pgina vazifalarni qo‘ymoqda, bunga misol qilib nofilologik yo‘nalish talabalariga B2 darajada til ko‘nikmalariga ega bo‘lish majburiyatlari yuklatilganligini professor o‘qituvchilar ma’suliyatlarini kengaytirdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu esa o‘z navbatida ma’lum kompetensiyalarni rivojlantirish zaruriyatini kengaytiradi. “Kompetensiya” tushunchasining o‘zi, uning tabiati va mazmunini turli bilim sohalari bilan bog‘liq holda o‘rganish, shuningdek, ushbu murakkab hodisaga bir nechta fanlarning imkoniyatlaridan foydalangan holda yondashishga urinishlar kompetentsiyaga

asoslangan yondashuvni ishlab chiqish uchun asos yaratdi va bu jarayonning yakuniy natijasi sifatida kompetentsiyani shakllantirish nuqtai nazaridan o‘qitish jarayonidir. (N.V.Kuzmina, A.K.Markova, L.A.Petrovskaya). Kompetentsiya tushunchasining turli talqinlarini tahlil qilib, biz ta’riflardagi umumiy elementlarni ham, ularning farqlarini ham aniqladik. Masalan, kontseptsiyani talqin qilishda inglizcha yondashuv faoliyatning xususiyatlarini va ularni amalga oshirishni o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, amerikacha yondashuv ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi shaxsning xulq-atvor xususiyatlariga qaratilgan (J. Raven va boshqalar). Chet tili bo‘yicha B2 daraja uchun ta’lim mazmunida sotsiopragmatik kompetensiyani quyidagilar asosida shakllantirish qayd etilgan. Nofilologik yo‘nalish talabalarining sotsiopragmatik kompetensiyasini rivojlantirishda bir qator muhim omillar mavjud. Ushbu omillarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ta’lim dasturlari va metodologiyalar:	Sotsiopragmatik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Interaktiv o‘qitish metodlarini qo‘llash, jumladan, rolli o‘yinlar, munozaralar va guruh ishlarini tashkil etish.
Til va madaniyat integratsiyasi:	Talabalarga turli madaniyatlar haqida ma’lumot berish, ularning sotsiomadaniy kontekstda tilni qanday ishlatishni tushunishga yordam berish. Milliy va global muammolar bo‘yicha fikr almashish imkoniyatlarini yaratish.
Praktik tajribalar:	Talabalarni amaliyotga jalb qilish, ularning kommunikativ ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun real hayotdagi vaziyatlarga tayyorlash. Tashqi tashkilotlar bilan hamkorlikda stajirovkalar o‘tkazish.
Axborot texnologiyalari:	Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, onlayn kurslar, vebinarlar va boshqa resurslardan foydalanishni rag‘batlantirish. O‘zaro muloqotni rivojlantiruvchi platformalarda faol ishtirok etishni ta’minlash
Shaxsiy rivojlanish:	Talabalarda o‘z-o‘zini baholash va refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirish. Komandali ish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan treninglar tashkil etish.
O‘qituvchi malakasi:	O‘qituvchilarning sotsiopragmatik kompetensiyasini oshirish uchun doimiy ravishda malaka oshirish kurslarini o‘tkazish. Innovatsion pedagogik usullarni tatbiq etishga rag‘batlantirish.

Ushbu jadvaldan ko‘rish mumkinki, talabalar sotsiopragmatik kompetensiyasini rivojlantirish bir qator omillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu omillar talabalarni nafaqat til bilimlari, balki ularni real hayotdagi kommunikativ vaziyatlarda qanday ishlatishni ham o‘rganishlariga yordam beradi. Bu esa sotsiopragmatik kompetensiyaning rivojlanishini ta’minlaydi hamda o‘z navbatida o‘qituvchilar oldiga sotsiopragmatik kompetensiyaga oid mustahkamlovchi mashqlarni ishlab chiqish vazifasini qo‘yadi. Bunday mashqlar bir vaqtning o‘zida til kompetensiyasini ham mustahkamlashda qo‘llanilishi mumkin. Mazkur mashqlar quyidagilardan iborat:

– raqobatli suhbatlar: guruhda ikki yoki uch kishidan iborat kichik jamoalar tuzing va ularga muayyan mavzu bo‘yicha bahs yuritishni topshiring. Har bir jamoa o‘z pozitsiyasini himoya qilish uchun argumentlar ishlab chiqishi va raqiblarning fikrlarini hurmat bilan qarshi olishi kerak;

– rolli o‘yinlar: turli ijtimoiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali ishtirokchilar turli rollarni bajarishadi (masalan, do‘st, oila a’zosi, ish beruvchi). Bu ularni turli kontekstlarda muloqot qilishga undaydi;

– kino yoki teatr sahnalarini tahlil qilish: Ishtirokchilar sevimli film yoki spektakldan sahnani tanlab, uning ijtimoiy va madaniy kontekstini muhokama qiladilar. Ular personajlarning harakatlari va so‘zlari orqali qanday sotsiopragmatik qoidalar ishlatilayotganini aniqlashlari kerak;

– muloqotning konteksti: Ishtirokchilarga bir nechta muloqot vaziyatlarini (masalan, rasmiy uchrashuv, do‘stona suhbat) taqdim etiladi va ulardan har birida qanday til vositalaridan foydalanish kerakligini aniqlash so‘raladi;

– ijtimoiy tarmoq tadqiqoti: ishtirokchilarga ijtimoiy tarmoqlarda qanday qilib muloqot qilishni o‘rganishga yordam beradigan vazifalarni beriladi. Masalan, ularni ma’lum bir holatda post yozishga yoki izoh qoldirishga undaladi;

– mavzuga oid munozara: talabalarni zamonaviy ijtimoiy masalalar (masalan, ekologiya, adolat) haqida bahs yuritishga taklif qilinadi. Bu ularning fikrlarini ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

– empatiya mashqlari: talabalarga boshqa odamlarning nuqtai nazarini tushunishga yordam beradigan mashqlar o‘tkaziladi. Masalan, ular boshqa shaxsning pozitsiyasidan fikr yuritishi so‘raladi;

– noto‘g‘ri tushunishlarni aniqlash: muloqot jarayonida noto‘g‘ri tushunish holatlarini tahlil qilib, ishtirokchilardan bu holatlarni qanday hal qilish mumkinligini so‘raladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tmoqchimizki,ingliz tili darslaridagi dastlabki daqiqalardan, talabalarga yuqoridagi berilgan mashqlar va texnologiyalardan foydalanilsa, talabalarning xorijiy til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi va zerikishdan yiroqlashadilar. Natijada talabalarning mustaqil, erkin, mantiqiy fikrlash imkoniyatlari kengayadi va kelajakda ularni madaniyatlararo muloqot dialogida ishtirok etish imkoniyati takomillashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘z.Res. uzluksiz ta’lim tizimining DTS. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun chet tillari o‘quv dasturi: ingliz tili. DTS. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun chet tillari o‘quv dasturi: ingliz til. //“Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnal. 4-son (may-iyun) 2013-yil.

2. www.englishbanana.com online materials.

4. Yoqubov I. Amaliy ingliz tili metodikasi. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T., 2004. – 223 b.

6. Jamolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: 1996. – 367 b.

Farida IBADOVA,
“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
“Xorijiy filologiya” kafedrasi o‘qiuvchisi

AKADEMIK YOZUV – TA’LIM OLUVCHILARDA FIKRLARINI QISQA, ISHONCHLI VA ILMIY ASOSLANGAN MATN ORQALI IFODALASH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada akademik yozuv matnning boshqa shakllari kabi umumiy yozish jarayoniga, mazmun, tashkil etish va uslubiy xususiyatlar uchun muayyan me’yorlarga amal qilishi, akademik yozuvni belgilaydigan xususiyatlari, akademik yozishning turli shakllarida muvaffaqiyatga erishish, ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanadigan har bir kishi uchun muhim ekanligi, akademik muhitda duch kelish mumkin bo‘lgan asosiy yozma topshiriq turlari, maqsadlari, me’zonlari, ko‘rsatmalari batafsil eritilgan.

Tayanch so‘zlar. Akademik yozuv, yozish jarayoni, mazmun, tashkil etish va uslubiy xususiyatlar, me’yorlar, akademik yozishning shakllari, ilmiy izlanishlar, yozma topshiriq turlari, maqsadlar, mezonlar, ko‘rsatmalar.

В статье говорится, что академическое письмо, как и другие формы текста, следует общему процессу написания, определенным стандартам содержания, организации и стилистическим особенностям, определяющим характеристикам академического письма, а также важности успеха в различных формах академического письма для любого человека занимающихся академическими исследованиями, подробно разобраны основные виды письменных заданий, цели, критерии и рекомендации, которые можно встретить в академической среде.

Ключевые слова. Академическое письмо, процесс написания, содержание, организационно-методические особенности, стандарты, формы академического письма, научные исследования, виды письменных заданий, цели, критерии, инструкции.

The article states that academic writing, like other forms of text, follows a general writing process, certain standards of content, organization and stylistic features that define the characteristics of academic writing, and the importance of success in various forms of academic writing writing for any person engaged in academic research, the main types of written assignments, goals, criteria and recommendations that can be found in an academic environment are discussed in detail.

Key words. Academic writing, writing process, content, organizational and methodological features, standards, forms of academic writing, scientific research, types of written assignments, goals, criteria, instructions.

Avloniy bobomiz ta’kidlaganidek: “Ta’lim-tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”. Bu yondashuv har qanday zamon va makonda ham tarbiya masalasini dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralishini bildiradi. Darhaqiqat, ta’lim sifatini oshirish bugungi dolzarb masalalardan biridir. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z Murojaatnomasida ta’limni “Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya” deb ta’kidlagani chuqur strategik ahamiyatga ega. Prezidentimiz Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga

yo‘llagan Murojaatnomasida kelgusi yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalardan ta’lim sohasini yanada isloh qilish, ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash bo‘yicha bildirgan konstruktiv fikrlar e’tirofga molik. Zero, ta’limga, ilm-fanga yaxshi sharoit yaratilsa, har tomonlama yetukkadrlar yetishib chiqadi. Maktab tom ma’noda ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatasosi bo‘lishi, farzandlarimiz maktabda avvalo o‘z ona tilini hamda biror chettilini o‘rganib chiqishi, kompyuterda ishlay olishi va biror kasb yoki hunarga yo‘naltirilishi lozim. O‘quvchilar yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar asosida o‘qitilishini yo‘lga qo‘yilishi o‘quvchilarda erkin va kreativ fikrlash, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga olib keladi. 2020-yilning 12-oktyabr kuni Prezidentimiz raisligida bo‘lib o‘tgan yig‘ilish “Intellektual mulkni himoya qilish uchinchi uyg‘onish davri uchun ishonchli poydevor bo‘lib xizmat qiladi” degan mavzuga bag‘ishlangani ham bejiz emas. Chunki O‘zbekistonni 2030-yilga qadar Global innovatsion indeks reytingidagi 50 ta yetakchi davlat qatoriga kiritish bo‘yicha ulkan maqsadlar belgilab olingan. Unga erishish yo‘lida bir qator dolzarb vazifalar turibdi. Sharqda ta’lim bilan tarbiya tushunchasi doimo birga ishlatilgan. Ikkisini barobar olib borish, uyg‘unlashtirish hamma davrlarda dolzarb masala bo‘lgan. Ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan intellektual mulkning ishonchli himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Zotan, yosh avlodning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalashni eng muhim vazifaga aylantirish masalasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda ham o‘z aksini topgan. Yurtimizni taraqqiyotning keyingi bosqichiga olib chiqish, ta’lim va tarbiya yo‘lida barcha kuch-g‘ayratni birlashtirish va fidokorona mehnatorqali Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish mumkin. Bu jarayonda hayotni va tafakkurni isloh qilish, yangilanish tomon sobitqadamlik bilan boorish zarur. Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni amalga oshirish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun yoshlarning kreativ g‘oyalari orasidan munosiblarini tanlab, rag‘batlantirish, nazariy, umumtarbiyaviy ahamiyatga ega nazariyani ishlab chiqish vazifasi turibdi.

Eng katta boylik aql-zakovat va ilm ekanini farzandlarimizga turli yondashuvlar orqali tushuntirish mas’uliyati har birimizning zimmamizda. Zero, tarbiyasizlik ma’naviy qashshoqlikni keltirib chiqarsa, bilimsizlik axloqsizlikka olib kelayotganiga tez-tez guvoh bo‘lyapmiz. Yangi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya mutanosibligini ta’minlashda qator omillarni nazarda tutish lozim. Vatanparvarlik mas’uliyati hamda zamonaviy dunyoqarashga ega barkamol avlodni tarbiyalash dolzarb masala bo‘lib turadi. Mana shu maqsad bizni taraqqiyotning navbatdagi bosqichiga eltadi. Zotan, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi ham tasodifiy emas, balki tub tarixiy qiyofamizni dunyoga namoyon qiluvchi omil ekanini unutmaslik darkor. Zaminimizning azaldan buyuk allomalar yurti hamda birinchi va ikkinchi Renessans beshigi bo‘lgani barchamizga ma’lum. Bugun ilm, ma’rifiy makon va zamon, unda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va siyosiy sohalardagi o‘zgarishlarni anglab yetishda amal qilinishi zarur bo‘lgan qator mezonlar mavjud. Bugungi mahalla tizimi, ommaviy axborot vositalari orqali raqamli iqtisodiyot, “Bir million dasturchi” loyihasi, robototexnika va IT parklar, sog‘lom turmush tarzi, maktab faqatgina ta’lim beradigan maskan emas, yuksak ma’naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o‘rgatuvchi dargohga aylanishiga doir muhim ma’lumotlarni yetkazish, yangilab borish talab etiladi.

Ushbu ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish bugungi yoshlarimizni har tomonlama xalqaro miqyosda raqobatbardosh etib tayyorlashimizga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Buning uchun bugun o‘z dolzarbligi bilan rivojlangan davlatlarda katta ahamiyatga ega bo‘lib borayotgan akademik yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish

maktab yoshidan boshlanishi ko‘zda tutilayotgan maqsadlarimizning bosh omillaridan biridir. Akademik yozuv - bu juda ishonarli ilmiy matn orqali o‘z fikrlarini ifodalash va asoslash qobiliyati. U o‘quvchilarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarini oshiradi, kognitiv bilimlarni hayotda qo‘llash hamda adekvat muloqot madaniyatini shakllantiradi. Yoshlarimiznining bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazish maqsadida ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish, o‘z sohalarining mukammal, yetuk olimlari darajasiga olib chiqishda akademik yozuvning o‘rni beqiyosdir. O‘quvchilar insho, esse kabi yozma ish turlarni yaratishda, fikrlarini asoslash uchun, albatta, adabiyot vositalariga murojaat qiladi. Bu esa o‘z navbatida ularning salohiyati va ilmiy tafakkuriga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Akademik yozuvlar muvaffaqiyatli o‘qish va keyingi ilmiy-tadqiqot, shu jumladan, xalqaro miqyosda o‘rganishning muhim jihatlaridan biridir. Akademik yozuv yordamida so‘nggi bir necha o‘n yillar davomida turli mamlakatlar o‘rtasida ilmiy va ta’lim kommunikatsiyalari mavjud. Ilmiy yozma nutqni rivojlantirish jarayoni bilan turli soha mutaxassislari, jumladan, tilshunoslar, filologlar, semiologlar, sotsiopsixologiyalar va hatto axborot texnologiyalarida band bo‘lgan kasb vakillari shug‘ullanadilar.

Ta’lim va tarbiya ikki tomonlama fenomendir, binobarin, hozirgi makon vazamonda uning bir qanotini sindirib, maqsadga erishib bo‘lmaydi. Har bir millat o‘rnak olsa arziydigan ulkan ma’rifiy va madaniy meros mavjud ekan, uni umumiy mulkka aylantirish darkor. Shundagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yichaYangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01. PF-60-son

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

3. Raykhan Rasulova. Formation of text-formating competence of students in the process of literary education based on an integrative approach. The multidisciplinary journal of science and technology. C.26-27.

4. Raykhan Rasulova “Using modern pedagogical technologies to identify gifted students in teaching mother tongue and improve their speech culture”, Education, science and innovation, 2020.2, p.37-40

5. Rasulova R.B. The significance of the phenomenon of reminiscence in the formation of text creation competence of general education school students (methodology of text creation competence formation in grades 7-9) Scientific-methodological journal No. 6/1 2021. P. 8-1

Aziza KOBILOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
‘‘Maktabgacha ta’lim’’ kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIMDA BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola mazmunida bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining innovatsion kompetentligini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslangan hamda bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining innovatsion kompetentlikni shakllantirishning samarali shakl, metodlaridan foydalanish imkoniyatlari, o‘qitish jarayonida o‘qituvchilar tomonidan qabul qilingan rasmiy va norasmiy baholash usullari to‘plami “Formativ baholash”, “Summative” baholash usullarini qo‘llash orqali ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash yo‘llari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar. Interfaol o‘qitish, interfaol o‘qitish metodlari, keys-stadi, videometod, trening, videotrening, innovatsion kompetentlik, viktorinalar.

In the content of this article, it is based on the fact that the formation of innovative competence of educators of the future preschool education organization is an urgent pedagogical problem, and the possibilities of using effective forms and methods of the formation of innovative competence of educators of the future preschool education organization, accepted by the teachers in the process of teaching a set of formal and informal assessment methods “Formative assessment”, “Summative” assessment methods, ways of preparing them for professional activity are revealed.

Key words. Interactive teaching, interactive teaching methods, case study, video method, training, video training, innovative competence, quizzes.

В содержании данной статьи исходят из того, что формирование инновационной компетентности воспитателей будущей дошкольной образовательной организации является актуальной педагогической задачей, а также возможности использования эффективных форм и методов формирования инновационной компетентности воспитателей. будущей организации дошкольного образования, принятый педагогами в процессе обучения комплекс формальных и неформальных методов оценивания “Формативное оценивание”, “Суммативные” методы оценивания используются для подготовки их к профессиональной деятельности.

Ключевые слова. Интерактивное обучение, интерактивные методы обучения, кейс-стади, видеометод, обучение, видеотренинг, инновационная компетентность, викторины.

Respublikamizda bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining innovatsion kompetentligini shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqish, ta’lim muassasalarida edvayzerlik faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish, ta’limiy jarayonlarda qo‘llaniladigan fasilitatsion, antropologik, akmeologik modellarni takomillashtirishning me’yoriy asoslarini ishlab chiqish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini davom ettirish” pedagogika oliy ta’lim muassalarida bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini tayyorlashda ham muhim o‘rin tutadi. Shu bois, bo‘lajak

maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida innovatsion kompetentlik komponentlari uzluksiz rivojlanishning optimal variantlarini tanlash va uning amaliy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda zamonaviy ta`limning asosiy maqsadlaridan biri-bu har bir ta’lim oluvchining nafaqat bilimlar yig‘indisi bilan qurollantirilishi, balki qiziqishlari, moyilligi, rivojlanishi va tarbiyasi, ularni ta’lim jarayonidagi faol pozitsiyalarini shakllantirishiga mos ravishda sifatli ta’limni ta’minlashdan iborat.

Ma’lumki interfaol o‘qitish jarayonini tashkil etishning muhim vositasi interfaol o‘qitish metodlari hisoblanadi. Interfaol o‘qitish metodlari (IO‘M) – ta’lim oluvchining bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib o‘quv jarayonini o‘zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan “subyekt-subyekt” munosabatlariga asoslgan o‘qitish metodlari tizimidir. Hamkorlikdagi harakat, ta’lim jarayonida bilimlar, g‘oyalar, faoliyat vositalarini o‘zaro almashish, har bir talabaning ish jarayonga muayyan hissa qo‘shishiga imkon beradigan vositalarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bunda o‘zaro harakat ta’lim oluvchilarning faollashuvi, guruh tajribasiga asoslanish, teskari aloqa o‘rnatish kabi tamoyillarga asoslanadi. Interfaol o‘qitish metodlari an’anaviy o‘qitish metodikasidan yana shu jihati bilan farqlanadiki, bunda nafaqat avval o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, balki o‘zaro hamkorlikdagi faoliyat asosida yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni amalga oshiriladi.

Bu muammoning ning ilmiy natejasi o‘laroq yaratilgan quydagi adabiyotlar bu muammoning ahamiyatini asoslashga imkon beradi. Axmedova Mukarram Tursunalievna “Pedagogik konpetentlik” uslubiy qo‘llanma, Elmuratova D, Misirova N. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv qo‘llanma, M. H. Muslimov, N. A. Usmonboyev, D. M. Sayfurov, A. B. To‘rayev “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” Saidahmedov N. “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar” va boshqalar. Bu ilmiy adabiyotlarda umumiy masala sifatida ta`limdagi zamonaviy tendensiyalar, ma’lumot qidirish, ishlov berish va taqdim etish texnologiyasini ongli ravishda egallash zarurligi, o‘zini o‘zi bilish usullari, shaxsiy tomonlarini aniqlash va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish, ilgari olingan bilimlarni yangi sharoitlarga o‘tkazish qobiliyati o‘zini o‘zi boshqarish, muvaffaqiyatli faoliyat strategiyasini ishlab chiqish, yuqori bosqichga o‘tish uchun innovatsion kompetentligini rivojlantirish va hayotning turli bosqichlarida raqobatbardosh mutaxassisni shakllantirish muhim ekanligi ta’kidlangan.

Interfaol o‘qitish metodlari o‘z ichiga: muammoli bayon; keys-stadi; ishchan o‘yinlar; rolli o‘yinlar; POPS-formula; Karusel; Televizion tok-shou stilidagi diskussiya; Qarorlar daraxti; Blits so‘rov; O‘quv munozaralari; Suqrot dialogi; Loyihalash; Fikrlar shkalasi; Video-metod va boshqalarni qamrab oladi. Oliy ta’li o‘qituvchisining asosiy faoliyatlaridan biri bu talabalar bilimini baholashdir. Baholash ta’lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Ta’lim sifatini hamda talabalarning bilim darajalarini doimiy ravishda nazorat qilib borish ta’lim jarayoniga muhim yangiliklar kiritishga asoas bo‘ladi. Bugungi kunda yangi tizim asosida baholashning turli shakllari ishlab chiqilgan va ta’lim jarayoniga taqdim etilmoqda. Shulardan biri formativ baholashdir. Formativ baholash deganda biz bolaning hozirgi yutuqlarini (muvaffaqiyatsizliklarini), oldingi yutuqlari (muvaffaqiyatsizliklari) bilan taqqoslash jarayonini va o‘quv natijalarini amaldagi o‘quv standartlari tomonidan belgilangan normalar bilan o‘zaro bog‘liqligini tushunamiz. Baholash mezonlari va shakllarini yaratish jarayoni talabalar bilan birgalikda amalga oshiriladi va biz buni uning qadr-qimmatini shakllantirishning bir usuli deb bilamiz. Oliy ta’limning o‘qitish jarayonida o‘qituvchilar tomonidan qabul qilingan rasmiy va norasmiy baholash usullari to‘plami “Formativ baholash” (shakllantiruvchi)

deb nomlanadi. Bu o‘qituvchilar tomonidan olib boriladigan o‘quv jarayonining bir qismi bo‘lib, o‘quv va o‘qitish usullarini o‘zgartirish talabaning tushunchasi va malakasini oshirishga qaratilgan. Formativ baholash o‘qituvchilarga ham, talabalarga o‘z faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri va batafsil o‘rganish hamda mulohaza qilishga imkon beradi. Formativ baholashnining asosiy vazifasi o‘quv yili uchun qo‘yilgan maqsadlarning bajarilishi yoki bajarilmaganligini aniqlashdan iborat. Shuning uchun o‘qituvchilar ham talabalar ham o‘quv yili davomida erishmoqchi bo‘lgan o‘quv maqsadlarni aniq bilishlari kerak. O‘quv maqsadlari rasmiy shaklda o‘qituvchi ish rejalarida aks etadi. Yoki o‘qituvchi norasmiy shaklda talabalar bilan birgalikda o‘quv maqsadlarni aniqlab olishi mumkin bo‘ladi. Formativ baho o‘quvchilar ta’lim jarayonida faol rol o‘ynashi kerak degan fikrdan boshlanadi. Formativ baholashda o‘quv maqsadiga erishish uchun zarur bo‘lgan qadamlar (mexanizmlar) aniq belgilanadi. Biroq bunga erishish uchun baholash yaxshi ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak.

Formativ baholash qo‘llash jarayonida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan manzaralarning ba`zilari quydagilar:

1. Dars jarayonida bevosita so‘roq qilish yoki uyga berilgan vazifalarni so‘rash.
2. Ta’lim jarayonidagi javob jurnallari yoki dars paytida beriladigan topshiriqlarni ko‘rish.
3. Dars paytida o‘tkaziladigan nazorat ishlarining ko‘pligi.
4. Grafik tashkilotchilik yoki o‘quvchilarning darsdagi faolligini kuzatish.
5. Natijaga asoslanib ta’lim jarayoniga o‘zgartirish kiritish imkoni.

Formativ baholash diagnostik, standartlashtirilgan testlar, viktorinalar, og‘zaki savollar yoki qoralama ish shaklida ham bo‘lishi mumkin.

Summative Assessment deganda talabalarni noodatiy baholash tushuniladi; bu natijaga qaratilgan. Bu ishtirokchilarga vaqti-vaqti bilan, odatda kurs, muddat yoki bo‘lim yakunlanganda beriladigan baholash jarayoning bir qismidir. Maqsad -o‘quvchilarning bilimlarini tekshirish, ya’ni ular o‘zlari o‘rgatgan materialni qay darajada o‘rganganliklarini tekshirishdir. Summativ baholash dars yoki dastur samaradorligini baholashga intiluvchilar uchun, o‘quv jarayonini tekshirish uchun qo‘llaniladi. Bu baholash turi OTM reytingi uchun asos yaratadigan ko‘rsatkichlar sifatida olingan ballar yoki foizlar yig‘indisi uchun xizmat qiladi. Summative baholashni yo‘lga qo‘ya olgan o‘qituvchi dars jarayonida o‘z kreativligini namoyon qila oladi, talabalarda ijobiy taassurot uyg`ota oladi, darsga ijodkorona yondashuvi va turli xildagi zamonaviy metodlardan foydalanib darsni sifatli va mazmunli tarzda olib borishi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’limda tahsil olayotgan bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning innovatsion kompetensiyasi takomillashuvida nazariy tayyorgarliklar bilan birga amaliy tayyorgarliklar uzviyligi ko‘zga tashlanadi. Bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning amaldagi innovatsion tayyorgarligida tashkiliy jihatlar, tanlangan shakllar va qo‘llanilgan metodlar juda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova Mukarram Tursunalievna Pedagogik “konpetentlik” uslubiy qo‘llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti 2018-yil 80-bet
2. Elmuratova D, Misirova N. “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv qo‘llanma “Guliston” 2021-yil 161-bet
3. M. H. Muslimov, N. A. Usmonboyev, D. M. Sayfurov, A. B. To‘rayev “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” T.: 2015-yil 120-bet

Osiyoxon AZIMOVA,
TDTU tayanch doktoranti

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KONFLIKTOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada “akmeologiya”, “akmeologik yondashuv” “konflikt”, “konfliktologik madaniyat” tushunchalari, ularning sohalarda o‘rganilishi, madaniyatshunoslikdagi o‘rni, konfliktologik madaniyat va uning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Akmeologiya, yondashuv, akmeologik yondashuv, konflikt, madaniyat, konfliktologik madaniyat, nizo, ixtilof, ziddiyat, o‘qituvchi, o‘quvchi.

Данная статья рассматривает понятия “акмеология,” “акмеологический подход,” “конфликт,” “конфликтологическая культура”. В ней исследуются результаты изучения этих понятий в различных областях знания, анализируется их роль в культурологии, а также характеризуются конфликтологическая культура и её основные черты.

Ключевые слова. Акмеология, подход, акмеологический подход, конфликт, культура, конфликтологическая культура, спор, разногласие, противоречие, учитель, ученик, образование, воспитание.

This paper examines the concepts of “acmeology”, “acmeological approach”, “conflict”, and “conflictological culture” It explores the research on these concepts across various fields, analyzes their role in cultural studies, and characterizes conflictological culture and its key features.

Key words. Acmeology, acmeological approach, conflict, culture, conflictological culture, dispute, disagreement, contradiction, teacher, student, education, upbringing.

Konfliktlar inson faoliyatining har qanday maishiy, kasbiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarida yuzaga keladi. Ayniqsa ta’lim jarayonida biroz murakkablik kasb etadi. Chunki, bir tomondan yosh avlodni uzluksiz o‘zgarib borayotgan jamiyatda yashashga tayyorlash, o‘z xulq-atvor modellari va shaxsiy va axloqiy me’yorlarni ishlab chiqish, kasbiy yo‘nalishlari doirasida chuqur bilimga ega bo‘lish imkonini bersa, ikkinchi tomondan jamiyatning hozirgi holatidagi barcha ziddiyatlar ta’lim muhitida o‘z aksini topadi, bu esa rivojlanish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini murakkablashtiradi. Mana shunday muammolarni bartaraf etish borasida bir qancha ishlar qilinmoqda. Buning yorqin misolida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-54- sonli prezident qarorining tasdiqlanishi ta’lim tizimimizni yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

“Akmeologiya – zamonaviy yangi fan. Uning muhim vazifasi muayyan kasbkorlikning yuksak pog‘onaga ko‘tarilishidagi turli jihatlarini o‘rganishdir. Akmeologiyaning mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o‘z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas’uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o‘rganishdan

iborat” deb ta’riflaydi olima Xatima Shayxova.

Akmeologik yondashuvlar doirasiga quyidagilar kiradi:

Rivojlanayotgan insonning yaxlit hodisa sifatida ob’ektiv borliq bilan o‘zaro aloqasi va munosabatlarini o‘rganish;

Har bir ta’lim oluvchining shaxsiy-kasbiy yuksaklikka intilishi, o‘z shaxsiy-kasbiy sifatlarini takomillashtirishga erishishi, muvafaqiyat qozonishi, yetuklik va madaniy saviyasini yuksaltirish va ma’naviy axloqiy qadriyatlarga asoslangan holda o‘z-o‘zini rivojlantirishi natijasida istiqboldagi faoliyatining sifatini ta’minlash;

Bo‘lajak o‘qituvchilarning qiziqarli va mahsuldor yaratuvchanlik faoliyatlarini tashkil etish, har bir ta’lim oluvchining layoqatlarini e’tirof etish, jamoa a’zolari tomonidan ularning muvaffaqiyatlarini tan olish, to‘laqonlilik va o‘z ehtiyojlarini qondira olish hissiga ega bo‘lish, ijodiy guruhlar bilan hamkorlik qilish imkonini beradigan kommunikativ ko‘nikmalar hamda ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish kabilar.

Bo‘lajak mutaxassislar pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun quyidagilarga erishishlari lozim:

– pedagogik-psixologik bilimlar;

– o‘z predmeti va uni o‘qitish metodikasiga oid bilimlar;

– ilmiy dunyoqarash;

– konfliktologik madaniyat.

– Konfliktologik madaniyat tushunchasining mazmunini aniqlashdan oldin, madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlab olishimiz zarur. Madaniyat (arab. madina – shahar, farovon maskan, taraqqiyot o‘chog‘i) -jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui; o‘qimishlilik, ta’lim-tarbiya ko‘rganlik, ziyolilik, ma’rifat.

Manbalarda konfliktologik madaniyat turlicha ta’riflanadi. N.V.Kuklevaning ta’kidlashicha, o‘qituvchining konfliktologik madaniyati – bu uning hamkorlik faoliyatida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarga erishish uchun mojaroni tan olish, uni oldini olish yoki (agar oldini olishning iloji bo‘lmasa) konstruktiv hal qilish qobiliyati va tayyorligi.

Talabalarning konfliktologik savodxonligining yetarli emasligi, nizoli vaziyatlarda xulq-atvor me’yorlari va qoidalarini bilmasligi vaziyatni yanada murakkablashtiradi. Ommaviy axborot vositalari, shuningdek, ko‘plab psixologik-pedagogik tadqiqotlar oliy ta’lim muassasalarida nizoli qarama-qarshiliklar soni ortib borayotganidan dalolat beradi. Mana shunday muammolarni bartaraf etish uchun talabalarda individual-shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish yuzaga kelgan ziddiyatlarni xolisona va adolatli asosda hal etishni ta’minlaydi, ya’ni konfliktologik madaniyatni shakllantiradi.

Shu sababli, zamonaviy oliy ta’lim nafaqat talabalarga kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va tegishli samarali kompetensiyalarni o‘zlashtirishga qaratilishi kerak, balki eng avvalo, jamiyatda tinchlik, hamjihatlik, bag‘rikenglik va uyg‘unlikda yashashga qodir shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishga, ya’ni konfliktologik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Shunday qilib, talaba shaxsining konfliktologik madaniyatini rivojlantirish muammosining dolzarbligi quyidagi ziddiyatlar bilan belgilanadi:

– jamiyatning konfliktologik madaniyatga ega shaxsga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoji va oliy ta’lim muassasasining bu ehtiyojni qondirish imkoniyati o‘rtasidagi ziddiyat;

– oliy ta’lim muassasasi talabasi shaxsining konfliktologik madaniyatini rivojlantirish zarurati va ushbu muammoning ham nazariy ham amaliy jihatlarining yetarli dara-

jada ishlab chiqilmaganligi o‘rtasidagi ziddiyat.

Mazkur ziddiyatlar tadqiqotimiz muammosini, ya’ni talaba shaxsining konfliktologik madaniyatini rivojlantirish masalasini belgilab berdi.

Hozirgi kunda tinchlik, totuvlik, bag‘rikenglik va hamjihatlikda yashay oladigan, madaniy muhitda yo‘l topa biladigan, insonga munosib hayot qura oladigan madaniyatli shaxsni tarbiyalash ta’limning asosiy vazifasiga aylanmoqda. Madaniyat ta’lim jarayonining yetakchi omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

И.С. Почекаева konfliktologik madaniyat tuzilishida quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi:

– ratsional komponent (konfliktning psixologik-pedagogik tabiati, uning tuzilishi va dinamikasi, turlari, mumkin bo‘lgan sabablari va uni hal qilishning samarali usullari haqidagi nazariy bilimlar hajmi);

– emotsional komponent (shaxsning nizoli vaziyatdagi hissiy holati);

– xulq-atvor komponenti (nizolarning oldini olish va konstruktiv hal qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalar tizimining mavjudligi).

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, konfliktologik madaniyat kasbiy madaniyatning bir turi sifatida faoliyat xususiyatiga ega bo‘lib, mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatidagi nizolarni oldindan ko‘ra bilish, boshqarish va hal etish bo‘yicha bilim, ko‘nikma hamda qobiliyatlarini aks ettiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatini rivojlantirishda ratsional, emotsional va xulq-atvor komponentlar hamda ular rivojlanishiga ta’sir etadigan xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-54-sonli prezident qarori.

2. Azimova O.A. “Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining konfliktologik madaniyatini rivojlantirishning mazmuni”. NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2024-4-son, 1148 b.

3. Куклева Н.В. Формирование конфликтологической компетентности студентов университета, получающих дополнительную квалификацию “преподаватель” – Ставрополь, 2006. – С. 10.

4. Ma’murov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish: ped. fanl. dokt. diss. – T.: 2018, – 264 b. 17-bet.

5. Почекаева, И. С. Воспитание конфликтологической культуры старшеклассников : автореф. дис. канд. пед. наук : 13.00.01 / И. С. Почекаева. – Ижевск, 2010. – 22 с.

6. Safarova.R. Mas’ul muharrir Pedagogika ensiklopediya. II jild. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2015. 377 bet.

7. Shayxova X.A. Ma’naviyat - kamolot ko‘zgusi. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2009. 115-b.

Farrux TILABOV,
Qarshi davlat universiteti, tadqiqotchi

YOSHLARDA MILLIY BIRLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqola talabalarda milliy birlik tuyg‘usini shakllantirish xususida bo‘lib, unda milliy birlik tuyg‘usi nima ekanligi, uni shakllantirish uchun qanday chora –tadbirlar amalga oshirish lozimligi hamda milliy birlik tuyg‘usini shakllantirishning jamiyatda tutgan o‘rni va mohiyati aks ettirilgan.

Tayanch so‘zlar. Yoshlar, milliy birlik tuyg‘usi, milliy tarbiya, birlik va hamjihatlik, milliy g‘urur va o‘zlikni rivojlantirish, tolerantlik.

В данной статье речь идет о формировании чувства национального единства у студентов, описывается, что такое чувство национального единства, какие меры следует предпринять для его формирования, а также роль и сущность формирования чувства национального единства в обществе.

Ключевые слова. Молодежь, чувство национального единства, национальное образование, единство и солидарность, развитие национальной гордости и идентичности, толерантность.

This article is about the formation of a sense of national unity among students, it describes what the sense of national unity is, what measures should be taken to form it, and the role and essence of the formation of a sense of national unity in society.

Key words. Youth, sense of national unity, national education, unity and solidarity, development of national pride and identity, tolerance.

Mustaqillik qo‘lga kiritilgan dastlabki kunlardanoq, ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Natijada, xalqimiz o‘z taqdirining chinakam egasi, o‘z tarixining ijodkori, o‘ziga xos milliy qadriyatlarning, madaniyatning sohibi sifatida tan olindi. Bugungi shiddatli davrda milliy qadriyatlarimizning ildizi, asosi, poydevorini chuqur anglab, undan tegishli xulosalar chiqara bilish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etayotganini hammamiz juda yaxshi tushunamiz. Shunchaki tushunib olishning o‘zi kifoya qilmaydi, balki yaxshilab o‘qib olish, qalbimizga, ong-u shuurimizga singdirib olish hammamiz uchun suvdek, havodek zarur. Negaki,hozirgi kunda ezgulik, erkin fikr, ozodlik, farovonlik xususida g‘urur bilan gapirar ekanmiz, bizga avlod-ajdodlarimizdan ma’naviy, madaniy meros bo‘lib kelayotgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ko‘z qorachig‘idek avaylab, asrab, sayqal berib, rivojlantira bormasdan ma’naviyati yuksak, chinakam komil, hartomonlama yetuk insonlarni kamolatga yetkazish amri mahol.

Biz yuksak ma’naviyat egalari bo‘lib yetishishimiz zarur. Bunday ma’naviyatga ega bo‘lish uchun esa ma’naviyat targ‘ibotini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ana shunday sharoitda qanday yo‘l tutish, qanday har tomonlama yetuk insonlarni kamolga yetkazish mumkin degan savollar barchamizni jiddiy o‘ylantirishi zarur. Binobarin, ongli yashaydigan erkin fuqaro, mustaqil fikrga ega bo‘lgan shaxs va fuqarolik

jamiyati ma’naviyatini kamol toptirish O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Hozirgi bosqichi jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub sifat o‘zgarishlari amalga oshirilayotganligi bilan xarakterlanadi. Tabiiyki, bu ulkan vazifani hal etish ma’naviyat targ‘ibotini takomillashtirishda ijodiy faollikni tinmay oshirib borish va kamol toptirish bilanuzviy bog‘liqdir. Ma’naviyatni rivojlantirish sohasidagi qilinayotgan islohatlarma’naviy hayotni taraqqiyotning umumiy qonunlarini ilmiy jihatdan yangicha takomillashtirishni qurilayotgan yangi jamiyatda masalaga demokratik nuqtai nazardan yondashish zarurligini anglatadi.

Milliy birlik tuyg‘usi — bu bir millat yoki xalqning o‘zaro hamjihatligi, bir-biriga qo‘llab-quvvatlash, umumiy maqsadlar yo‘lida birlashish hissidir. Bu tuyg‘u odamlarni o‘z millatining tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari va kelajagi uchun mas’uliyatli his qilishga undaydi. Milliy birlik tuyg‘usi millat ichidagi muammolarni hal etishda, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda va rivojlanishda muhim ahamiyatga ega. Milliy birlik — bu faqat birlashish emas, balki turli ijtimoiy qatlamlar, etnik guruhlar va diniy qarashlarga ega bo‘lgan shaxslarning bir-biriga hurmat ko‘rsatishi va umumiy maqsadlar yo‘lida birlashishidir. Bunday birlik orqali xalqlar o‘z farovonligini oshirish, mamlakatning mustahkamligi va xavfsizligini ta’minlashga erishadilar.

Yoshlarda milliy birlik tuyg‘usini shakllantirish, jamiyatning kelajagi uchun muhim vazifalardan biridir. Milliy birlik, turli millatlar, madaniyatlar va diniy qarashlarga ega bo‘lgan shaxslarning o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik asosida birlashgan bir jamiyatni tashkil etadi. Yoshlarda bunday birlikni shakllantirish bir qancha omillarga bog‘liq.

Milliy tarbiya va madaniyatni o‘rgatish. Milliy birlik tuyg‘usini shakllantirishda yoshlarni o‘z milliy tarix, madaniyat, urf-odatlar va an’analari bilan tanishtirish muhimdir. Maktablarda va yoshlar tashkilotlarida milliy qadriyatlar, adabiyot va san’atni o‘rgatish orqali, ular o‘z xalqining boy madaniy merosini anglab yetadilar. Bu esa o‘z navbatida, ularni milliy birlik va birdamlikka rag‘batlantiradi.

Birlik va hamjihatlikni targ‘ib qilish. Yoshlarni milliy birlik tuyg‘usi bilan tarbiyalashda, bir-biriga nisbatan hurmat va sevgi tuyg‘ularini rivojlantirish zarur. Turli millat vakillari o‘rtasida do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlash uchun ko‘plab madaniy va ijtimoiy tadbirlar tashkil etilishi mumkin. Bu orqali, turli etnik guruhlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va hurmatni oshirish mumkin.

Diniy va etnik xilma-xillikni hurmat qilish. O‘zbekiston kabi ko‘p millatli jamiyatda diniy va etnik xilma-xillikka hurmatni oshirish, yoshlarda birlik tuyg‘usini shakllantirishning asosiy yo‘llaridan biridir. Yoshlarni diniy va etnik farqlarga nisbatan to‘laroq va ijobiy qarashlarga o‘rgatish, ularning yagona maqsad — vatanni sevish va uning farovonligi uchun birlashish zarurligini anglashlariga yordam beradi.

Milliy qadriyatlarni zamonaviy talablarga moslashtirish. Yoshlarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni zamonaviy hayotning ehtiyojlariga mos tarzda rivojlantirish lozim. Bu, milliy birlikni yangicha nuqtai nazardan qabul qilishni ta’minlaydi. Misol uchun, yoshlar uchun ta’lim va ilm-fan sohalarida milliy qadriyatlarni modernizatsiya qilish va globalizatsiya davrida milliy birlikni saqlab qolish zarur.

Keng jamoatchilik bilan aloqalar o‘rnatish.Yoshlarni turli ijtimoiy loyihalarda, ijtimoiy tarmoqlarda va madaniy tadbirlarda faol qatnashishga undash kerak. Bu ularning bir-biri bilan aloqa qilish, ko‘proq ishlash, va birgalikda katta maqsadlarga erishishga intilishlarini ta’minlaydi. Bu orqali yoshlar milliy birlikning ahamiyatini va birgalikda yuksalishning zarurligini anglashadi.

Ota-onalar va o‘qituvchilar rolini kuchaytirish. Ota-onalar va o‘qituvchilar yoshlarni milliy birlik ruhida tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Ular yoshlar uchun milliy birlikning naqadar muhim ekanligini namuna qilib ko‘rsatishlari kerak. Shu bilan birga, jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni o‘zaro o‘rgatish, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish uchun ham zarur.

Milliy g‘urur va o‘zlikni rivojlantirish. Yoshlar o‘z millati va vataniga g‘urur bilan qarashlari kerak. Milliy g‘ururni oshirish, ular uchun faqatgina o‘z xalqini sevish bilan cheklanmay, balki butun insoniyatga bo‘lgan hurmatni ham rivojlantiradi. Bu esa milliy birlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Yoshlarda milliy birlik tuyg‘usini shakllantirish nafaqat milliy madaniyat va urf-odatlarni saqlashga, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Shuning uchun bu jarayon doimiy va tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim.Yoshlar orasida milliy birlik tuyg‘usini shakllantirish, davlatning kelajagi uchun juda muhim masala hisoblanadi. Milliy birlik tuyg‘usi - bu bir millatning o‘zligini, madaniyati, tarixi va urf-odatlarini hurmat qilish hamda umumiy maqsadlar va qadriyatlar asosida birlashishdir. Yoshlar, ayniqsa, bu jarayonda katta o‘rin tutadi, chunki ular jamiyatning kelajagi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.Milliy birlik tuyg‘usini shakllantirish uchun bir nechta asosiy yo‘nalishlarni ko‘rib chiqish mumkin.

Ta’lim va tarbiya: milliy birlikni shakllantirishda ta’lim tizimi juda muhim ahamiyatga ega. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni tarix, madaniyat, til va urf-odatlarga hurmat bilan o‘qitish kerak. O‘zbek tarixini, adabiyotini, buyuk ajdodlarni o‘rganish orqali milliy g‘urur va birlikni shakllantirish mumkin.

Milliy qadriyatlar va urf-odatlar: milliy birlikni kuchaytirish uchun yoshlar orasida milliy qadriyatlar va an’analarni targ‘ib qilish zarur. Shu maqsadda turli xil tadbirlar, festivallar, madaniy va sport musobaqalari o‘tkazilishi mumkin. Bu orqali yoshlar bir-birini yaxshiroq tushunadi va umumiy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Yoshlarni ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga jalb qilish: yoshlarni jamiyatdagi barcha jarayonlarga faol ishtirok etishga undash, ularning o‘z fikrini bildirish, huquq va mas’uliyatni anglashlari, shuningdek, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishlariga yo‘l ochish muhimdir. Bu, o‘z navbatida, milliy birlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Tolerantlik va xolislikni rivojlantirish: Turli etnik guruhlar va madaniyatlar o‘rtasida hamkorlik va bir-birini hurmat qilish muhimdir. Yoshlar orasida millatlararo do‘stlikni, adolatni, tenglikni va xolislikni rivojlantirish orqali milliy birlikni mustahkamlash mumkin. Shu tarzda, yoshlar orasida milliy birlik tuyg‘usini shakllantirish uchun ta’lim, madaniyat, tildan tortib, ijtimoiy faoliyatgacha bo‘lgan bir qator strategiyalarni amalga oshirish zarur. Bu, o‘z navbatida, jamiyatning birligini mustahkamlashga va kelajakda barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: O‘zbekiston” NMIU,2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018

3. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2016

4. Erkaev A.. Ezgulik sari yo‘naltirilgan iroda. “Tafakkur”, 1997-yil, 3-son 14-bet.

Moxinso ZARIPOVA,
Mustaqil tadqiqotchi

BADIIY KONSEPSIYA VA MILLIY QADRIYATLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA MASALANING O‘RGANILISH TARIXI

Annotatsiya

Maqolada “Badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar” muammosi nafaqat adabiyotshunoslik fanining san’atshunoslik, kinoshunoslik, estetika kabi fanlarning diqqat markazida bo‘lib kelishi aytib o‘tilgan. Shuningdek, san’atning hamma turida obrazli tasvir, obrazli hayot aks ettirillishi, tabiiyki, bu san’at turlarining har birida “obraz” va “badiiy kashfiyot” yaratish uchun talab etiladigan shartli vositalar mavjudligi yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Badiiy konsepsiya, milliy qadriyatlar, asar, syujet, ta’lim, adabiyot, ilm, fan.

В статье отмечается, что проблема” художественного понятия и национальных ценностей " находится в центре внимания не только литературоведения, но и таких дисциплин, как искусствоведение, киноведение, эстетика. Освещается и то, что во всех видах искусства есть образный образ, образное жизнеописание, естественно, что в каждом из этих видов искусства есть условные средства, необходимые для создания “образа” и “художественного открытия”.

Ключевые слова. Художественное понятие, национальные ценности, произведение, сюжет, образование, литература, наука, Наука.

The article mentions that the problem of” artistic concept and national values " is not only the focus of literary science in disciplines such as art studies, film studies, aesthetics. It is also illuminated that in all types of art, figurative image, figurative life are reflected, naturally, in each of these types of art there are conditional tools required to create an “image” and “artistic discovery”.

Key words. Artistic concept, National Values, Work, plot, education, literature, science, science.

Badiiy adabiyotdagi “Badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar” masalasini tushuntirish va o‘rganish borasida katta adabiyotshunoslar avlodi I.Sulton, M.Qo‘shjonov, A.Hayitmetov, B.Sarimsoqov, U.To‘ychiyev, H.Boltaboyev, D.Quronov kabi qator olimlarning tadqiqot, maqolalari ahamiyatga molik ishlardan sanaladi.

Adabiyotshunos B.Sarimsoqov Badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar tabiatini shunday tushuntiradi: “Adabiyotshunoslikda Badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar atamasi ikki ma’noda qo‘llaniladi. Birinchisi – badiiy asarda aks etgan voqelikning real voqelikka munosabatidagi badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar, ya’ni asar voqealarining hayotiylik, san’at qoidalariga ko‘ra moslik darajasi. Badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar atamasining ushbu ma’nosi uning falsafiy talqiniga mos keladi.

Ikkinchisi – badiiy asarda ishtirok etuvchi qahramonlar, ularning xatti-harakati, ruhiy kechinmalari tufayli sodir bo‘ladigan voqealar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatidagi bog‘lanishlar ma’nosi, ya’ni badiiy Badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlarning tor, xususiy ma’nosi” . Darhaqiqat, asar badiiyligi deyilganda, olim juda to‘g‘ri ko‘rsatganidek, badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlarning ikkinchi ma’nosiga doimo diqqat qaratiladi. B.Sarimsoqov folklor asarlarga xos badiiy konsepsiya va milliy

qadriyatlarni 3 guruhga bo‘lib ko‘rsatadi . Bular:

1. Asar voqealari va qahramonlar faoliyati biror homiy, g‘ayritabiiy kuch yordamida boshqariladi;

2. Asar voqealari va qahramonlar faoliyati biror tasodif tufayli vujudga keladi,

3. Befarzand shaxslarning farzandli bo‘lishi bilan asar qahramoni yaratiladi.

Olimning mazkur 3 guruhini yana kengaytirish mumkin. Chunki, folklor asarlari boshdan-oyoq badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlarga asoslanib, qat’iy holatga ega. Ya’ni xalq ijodining asrlar davomida shakllangan aniq qoliplari bor. Xalq ijodi an’anaviy adabiy qoliplarni sindirishga urinmaydi, aksincha ularga qat’iy rioya etadi. Yozma adabiyot esa qoliplarni sindirishga, eski an’analarni inkor etishga moyil. Shundagina yangi ijodiy an’ana paydo bo‘ladi. Yangi ijodiy an’ana eski an’anani rad etish hisobiga vujudga keladi va rivojlanadi. Xalq ijodiga xos badiiy shartli vosita va usullar nihoyatda ko‘p va rang-barang. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov ulardan eng muhimini, ya’ni 3 tasini ajratib ko‘rsatadi. Xalq ijodi singari mumtoz adabiyot ham muayyan qat’iy adabiy kanonlar asosida shakllandi. Ularni isloh qilish mumkin emas edi. Misol uchun mumtoz adabiyotdagi dostonlar albatta Ollohga hamd, payg‘ambarlarga na’t, so‘z qudratiga ta’rif, Ollohga shukronalar kabi shartli boshlanmalar bilan boshlangan. Bu barcha ijodkorlardan talab etilgan. Alisher Navoiy ham “Xamsa” dostoni yoki “Xazoyinul-maoniy” devonini yaratishda mumtoz adabiyotdagi qoidalarga qat’iyan amal qilgan. Ammo sho‘ro davrida klassik adabiyot vakillarining asarlaridagi mana shunday sharqona milliy adabiy kanonlarga rioya etib yozilgan sahifalar, butun boshli boblar (ko‘pincha basmala (hamd), nat’ va so‘z ta’rifiga bag‘ishlangan Ollohga shukronalik keltirilib yozilgan o‘rinlar) tushirib tashlanib nashr etilgan. Bunday o‘rinlar sovet ideologiyasiga zid holatlar deya baholangan. Bu esa islom dinini, milliy qadriyatlarni yo‘q qilishga qaratilgan qatag‘on siyosatning dahshatli fojialaridan biri edi. Mumtoz adabiyot folklor ijodga xos an’analar va badiiy usullarni davom ettirdi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, mumtoz adabiyot an’naviy badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar (sayyor syujetlar, an’anaviy tasavvufiy obrazlar, asar kompozitsiyasiga tegishli an’naviy kompozitsiya) asosida rivojlandi.

Bu o‘rinda Navoiy ijodida shartli tasvir masalasini maxsus o‘rgangan A.Hayitmetovning quyidagi fikrlari e’tiborga loyiq: “Jahon adabiyoti taraqqiyotida realizmning o‘rni, hech shubhasiz, katta. Shu bilan birga, butun dunyo adabiyotini, uning hamma davrlarini realizmga bog‘lab qo‘yish xato. Badiiy adabiyotda haqqoniy, realistik tasvir qanchalik rol o‘ynagan bo‘lsa, majoziy, shartli tasvir ham undan kam rol o‘ynamagan. Realistik asarlarda hayot, ilg‘or g‘oyalar qanchalar chuqur ifodalangan bo‘lsa, mifik, majoziy va romantik she’riy va nasriy, hatto dramatik asarlarda ham yuksak axloqiy va falsafiy fikrlar mislsiz darajada yorqin va keng talqin etilgani ma’lum. Shu nuqtai nazardan, ayrim adabiyotshunoslarning Alisher Navoiy asarlarini, xususan uning dostonlarini realistik yo‘nalishdagina tahlil etishga undashlari to‘g‘ri emas. Bunga “Xamsa” dostonlarida shartli badiiy tasvirning naqadar keng o‘rin tutishi yaqqol misoldir” .

A.Hayitmetov mumtoz adabiyot uchun xarakterli bo‘lgan jimjimador, balandparvoz uslub, romantik tasvir, mubolag‘a, yozuvchining individual badiiy to‘qimasi va boshqa qator omillarni mumtoz adabiyotdagi muhim badiiy shartli vositalar ekanini ko‘rsatib, Navoiyning “Xamsa” tarkibiga kirgan dostonlar misolida tahlil etib beradi. Olimning fikrlarini davom ettiradigan bo‘lsak, mumtoz adabiyotda an’anaviylik juda kuchli. Alisher Navoiydan oldin ham xamsanavislar bo‘lgan. Nizomiy Ganjaviy, Xisrav

Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug‘ xamsanavislar xamsachilik shohsupasiga ko‘tarildi. Ammo biz bilmagan yuzlab xamsanavislar “Xamsa” yaratishga umrini baxshida qildi, ammo adabiyot tarixida qolmadi. An’anaviylik bag‘rida ham originallik yaratish muhim badiiy shartlardan biri ekan.

Zamonaviy realistik adabiyot esa badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlarning mutlaqo boshqacha, yangidan-yangi hayotiy vosita va usullarini kashf etdi. Yozma adabiyotdagi badiiy badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar vosita va usullarini sanab ham, falon-falondan iborat deb, aniq ilmiy axborot berish qiyin masala. Chunki, har bir ijodkor badiiy Badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlarga individual yondashadi. Natijada, har bir muallifning o‘ziga xos original badiiy mahorati, asarlariga xos badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar tabiati ochiladi. Ammo shunga qaramasdan, chinakam asar uchun xos bo‘lgan umumiy badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar mezonlarini, o‘lchovlarini sanab ko‘rsatish mumkin. Badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar individual estetik hodisa hamdir. B.Sarimsoqov badiiylik shartlarini sanab ko‘rsatar ekan, bu aytilayotgan gaplarning nisbiyligini ta’kidlaydi.

Badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar masalasini o‘rgangan olimlar uning xil va vositalarini turlicha tasnif qiladi. Masalan, A.Mixaylova “Badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlarning muhim vositalari sifatida simvolik obraz, allegoriya, masal, parabola va boshqalarni kiritadi” .

Insoniyat sivilizatsiyasi munosabati bilan san’atning turlari paydo bo‘lishi bilan har bir san’at sohasida badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar vujudga keldi, degan fikr ilgari suriladi. Olim shunday xulosaga keladi: “Realistik badiiylik ildizlari qadimgi san’atga borib taqaladi. Shundan kelib chiqib, san’atdagi badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar tabiatini izohlashda ham “realistik badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar” terminidan foydalanishimiz mumkin.

Tabiiyki, realistik badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlarning o‘zi uzoq shakllanish tarixiga ega. Ammo uning vazifasi hamisha bitta bo‘lib kelgan – voqelikni ifodalashning o‘ziga xos badiiy shakli sifatida xizmat qilish” .

G‘arb adabiyotida badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlarning yangilangan, kutilmagan, ohori to‘kilmagan forma va ko‘rinishlari ispan yozuvchisi Migel de Servantesning “Don Kixot” romanida (ritsarlik romanlariga qarshi parodiya asar), nemis adabiyotida Iogann Volfgang Gyotening “Faust” tragediyasida (diniy motivning metaforalashishi), fransuz adabiyotida Fransua Rablening “Gargantyua va Pantagryuel” (ijtimoiy, ma’naviy muammolarni ochishda fantastika, grotesk elementlaridan foydalanib yaratish), Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” (kapitalistik tuzumga o‘tish arafasidagi jamiyatdagi muammo va ziddiyatlarni shartli majoziy makonga ko‘chirib tasvirlash, ya’ni voqealarni liliputlar va darozlar mamlakatiga ko‘chirish usuli, fantastik badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar) asarlarida kishi xayoliga kelmagan kuchli badiiy to‘qimaga duch kelasiz. Badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar muammosini o‘rgangan olimlarning katta qismi badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar doirasiga qaysi vositalar kiradi, degan savolga metafora, olitsetvoreniye, masal, ertakka xos tasviriy vositalar, ramzlarni sanab ko‘rsatishadi. Agar chuqurroq o‘ylab qarasak, badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar avvalo, badiiy to‘qima bilan bog‘liq. O‘quvchini ishontira oladigan, o‘ziga ergashtira oladigan, o‘qiganda, quyushqondan chiqara oladigan eng birlamchi katta kuch bu yozuvchining (umuman ijodkorning) shaxsiy original badiiy to‘qimasidir.

Dunyo adabiyotining yirik yozuvchilari Gogolning “Shinel”, “Burun” kabi qator asarlari, Tolstoyning “Urush va tinchlik”, “Anna Karenina” romanlari, Dostoyevskiyning

“Jinoyat va jazo”, “Telba” romanlari, M.Bulgakovning “Usta va Margarita”, Ch.Aytmatovning “Asrga tatigulik kun”, “Qiyomat”, “Kassandra tamg‘asi” romanlarida badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlarning ko‘rilmagan va kuzatilmagan vositalari namoyon bo‘ldi. Endi o‘zbek adabiyoti misolida oladigan bo‘lsak, Alisher Navoiyning “Xamsa”, Zahiridin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Abdulla Qahhorning “Sarob”, “O‘tmishdan ertaklar”, Oybekning “Qutlug‘ qon”, “Bolalik”, G‘.G‘ulomning “Shum bola”, Asqad Muxtorning “Chinor”, “Chodirxayol”, O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, Sh.Xolmirzayevning qator hikoyalari va qissalarida badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlarning yangilangan forma va ko‘rinishlari yuz ko‘rsatdi.

Izzat Sulton badiiy to‘qimaning qudrati haqida shunday deydi: “Yozuvchi badiiy adabiyot asarida inson obrazini va hayot manzarasini eng muhim, xarakterli xususiyatlari bilan tasvirlab berish uchun, to‘qimaga murojaat etadi. Badiiy asarning mazmuni hayotdagi hodisalarning jo‘n nusxasi emas, balki hayotiy hodisalarga suyanib, ularni sotsial va estetik ideal nuqtai nazaridan baholab turib, san’atkorning fantaziyasi vositasi bilan yangidan yaratilgan, to‘qib chiqarilgan hayot manzarasidir. Har bir badiiy asar yozuvchisi xayolida hayotiy taassurotlardan paydo bo‘lgan yangi bir dunyodir. Badiiy to‘qima yozuvchiga hayotni tasodifiy narsalardan “tozalab”, uning mohiyati haqida eng to‘g‘ri tasavvur berishga ko‘maklashadi” .

“Badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar” masalasi bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlarning mohiyati shuni ko‘rsatadiki, mazkur muammoni ijodiy uslub jihatdan 6 turga bo‘lib o‘rganish mumkin: romantik badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar, realistik badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar, modernistik badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar, fantastik badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar, detektiv badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar, satirik badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar. Badiiy tasviriy vositalar esa har bir ijodiy uslubda yaratilgan asarlarda aralash holda ishlatilaveradi. Ammo romantik badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar asosida yaratilgan asarda tabiiy ravishda mubolag‘a, grotesk, romantik tasvirlar yetakchilik qiladi. Yoki realistik badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar asosida yaratilgan asarda esa hayotiylik, samimiylik, aniqlik, haqqoniylik, tarixiylik kabi qator adabiy-estetik kategoriyalar yetakchilik qiladi. Detektiv asarda qotillik, izquvarlik elementlari ustunlik qiladi. Fantastik asarlarda tabiiyki, fantastika elementlari, ilmiy fantastika unsurlari, xayolga sig‘maydigan voqealar va obrazlar, tasvirlar yetakchilik qiladi. Shu o‘rinda yana fikrni tezis sifatida aytib o‘tish lozim. Sharq adabiyotida din ta’sirida didaktik realistik badiiy konsepsiya va milliy qadriyatlar elementlari shakllandi . Musulmon davlatlari adabiyotida Islom dinining kuchli ta’sirini kuzatish mumkin. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida shoh va amaldorlarni adolatli, bilimli, fozil boshqaruvchi bo‘lishga da’vat elementlari ramziy timsolli obrazlar vositasi bilan ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бахтин. М. Вопроси литературы и эстетики исследования разних лет. – Москва: Художественная литература, 1975. – 504 с.

2. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. Tarixiy poetikadan ocherklar. (rus tilidan U.Jo‘raqulov tarjimasi). – T.: Akademnashr, 2015. – 288 b.

3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2002. – 560 b.

4. Borev Y. Estetika. – Moskva: Politizdat, 1988. - 496 s.

5. Boltaboyev H. Nasr va uslub. Uslub muammosiga nazariy nigoh va hozirgi o‘zbek nasrida uslubiy izlanishlar. – T.: Fan, 1992. – 104 b.

Iroda ANVAROVA,
"Alfraganus University" nodavlat oliy ta'lim muassasasi,
"Xorijiy filologiya" kafedrasi o'qituvchisi

GID NUTQI MILLIY – MADANIY FENOMEN SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada jahon iqtisodiyotining valyuta tushumi taminlaydigan asosiy tarmomoqlardan biri turizm ekanligi, turizmning fundamental jihatlari, turizm yo'nalishlari, ushbu sohaning rivojlanishida xoriiy tajribalar batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada turizmning rivojlanishida gidlarning o'rni va ularning kompenensiyasi muhimligi ochib berilgan.

Tayanch so'zlar. Jahon iqtisodiyoti, valyuta tushumi, turizm, turizmning fundamental jihatlari, turizm yo'nalishlari, xoriiy tajriba, gid, gidlarning o'rni, kompenensiya.

В статье подробно раскрывается актуальность развития туризма как одной из основных отраслей мировой экономики, обеспечивающей валютные доходы, подробно анализируются фундаментальные аспекты туризма, направления туризма, зарубежный опыт развития данной отрасли. Также в статье раскрывается роль гидов и их компетенция в развитии туризма.

Ключевые слова. Мировая экономика, валютные поступления, туризм, фундаментальные аспекты туризма, направления туризма, зарубежный опыт, гид, роль гидов, компетенция.

The article reveals in detail the relevance of the development of tourism as one of the main sectors of the world economy, providing foreign exchange earnings, analyzes in detail the fundamental aspects of tourism, directions of tourism, and foreign experience in the development of this industry. The article also reveals the role of guides and their competence in the development of tourism.

Key words. World economy, foreign exchange earnings, tourism, fundamental aspects of tourism, tourism destinations, foreign experience, guide, role of guides, competence.

Turizm – hozirgi davrda jahon iqtisodiyotining daromad keltiradigan va davlat xazinasiga salmoqli valyuta tushumi ta'minlaydigan asosiy tarmomoqlardan biri hisoblanadi. Turizm sohasi milliy iqtisodiy tarmoqlarning hamda iqtisodiy faoliyatning har xil turlari bajadigan industriya sifatida kishilarning shaxsiy ehtiyojlarini qonduruvchi va sayohhlik mahsuloti deb atalgan mahsulotni ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi maxsus majmuadir.

Turizm u yoki bu vaziyatda iqtisodiyotga amalda jamiyat hayoti mazkur sohasining barcha fundamental (asosiy) jihatlari orqali ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan turizmni quyidagi yo'nalishlarda ko'rib chiqish mumkin:

– turistik mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va istemol qilish, sohasidagi iqtisodiy munosabatlarning majmui sifatida;

– turistik mahsulotni ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatning ma'lum tarmoqlarini o'z ichiga oluvhi xalq xo'jaligi komleksining tarkibiy qismi sifatida;

– mamlakat yoki mintaqa xo'jaligining tarmog'i sifatida;

– iqtisodchilar bu sohada sodir bo'layotgan jarayonlarni tahlil qiladilar, jismoniy shaxslar, tashkilotlar va umuman jamiyat uchun ularning oqibatlarini bashorat qiladilar;

– oila, firma va umuman jamiyatning cheklangan resurslari sharoitida insonlar ehtiyojlarini qondirish maqsadida turistik xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash,

ayirboshlash va istemol jarayonida kishilarning turistik iqtisodiy tizimning barcha darajalaridagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar sifatidagi fe’l-atvorini o‘rganuvchi hozirgi zamon iqtisodiy-nazariya turizm iqtisodiyoti o‘zida turizm sohasida vujudga kelib ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va turistik natijalarni iste’mol qilish bilan bog‘liq munosabatlar tizimini aks etadi.

Turizmning xalq xo‘jalik kompleks tarmoqlari tarkibidagi o‘rnini quyidagi nuqtai nazardan baholash mumkin: turizm ijtimoiy-maishiy infratuzilmaning diversifikasiyalashmagan, tarmoqlararo majmuasi sifatidagi xususiyati mamlakat iqtisodiyotida turizimning ikki jihatda ega bo‘lishini xarakterlaydi. Turizm yangi moddiy qiymatlar yaratadi va ularni xizmatlar shaklida realizasiya qiladi, shuningdek turistlarga xizmat ko‘rsatishda nomoddiy xizmatlarni taklif etadi. Bundan kelib chiqadiki, turizm ishlab chiqarish va ishlab chiqarmaslik funksiyalarini bajaradi.

fundamental iqtisodiyot nuqtai nazaridan turizm iqtisodiy kompleksini ifodalaydi, uning rivojlanishi immanent (ichki) sabablarga qaraganda ustun darajada jahon xo‘jalik jarayonlari va munosabatlari bilan bog‘liqdir. Turizim shu bilan birga ko‘pgina tez rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishining eng muhim harakatlantiruvi kuchi hamdir, chunki u tovar va xizmat qiladi.

– hozirgi zamon turizmi iqtisodiy voqeylik sifatida quyidagilar bilan ifodalanadi;

– industrial shaklga ega;

– turistik mahsulot va xizmatlari sifatida bo‘ladi;

– yangi ishchi o‘rinlarini yaratadi va yangi hududlarni o‘zlashtirishning sababchisi hamda milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi (katalizatori) bo‘lib xizmat qiladi;

– turizmga ixtisoslashgan mamlakatlar foydasiga milliy daromadni qayta taqsimlovchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi;

– milliy daromad, bandlikning o‘sishini va infratuzilmaning rivojlanishini va mahalliy aholi turmush darajasining oshishini ta’minlovchi multiplikator vazifasini bajaradi;

– yuqori samaradorlik darajasi va invistitsiyalarning tez qoplanishi bilan tavsiflanadi;

– tabiatni va madaniy merosni muhofaza qilishning samarali vositasi sifatida yuzaga chiqadi, chunki aynan ana shu elementlar uning resurs bazasini tashkil qiladi;

– xo‘jalik tarmoqlari va kishilar faoliyatining barcha turlariga mos keladi, chunki aynan ularning tabaqalanishi va bo‘linganligi rekrasion muhit salohiyatining farqini yaratadi, bu kishilarning joylarini o‘zgartirish va ularni bilishga bo‘lgan ehtiyojini yuzaga keltiradi.

XX asrning so‘nggi o‘n yilliklari va XX asr boshlarida jahon iqtisodiyoti va tashqi iqtisodiy munosabatlarda chuqur o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Savdo, madaniy, ilmiy-texnik aloqalarning izchil kengayishi o‘z navbatida turizimning faol rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Dunyoning ko‘pchilik mamlakatlaridagi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot turli maqsadli tashriflarning doirasini xalqaro turistik tashkilot ma’lumotlariga ko‘ra hozirgi vaqtda dunyoda band bo‘lganlar umumiy sonining 8 foiz dan ortig‘i yalpi investisiyalarning 7 % aholi iste’mol xarajatlarining 11 foiz soliq tushumlarining 5 % va jahon xizmatlar savdosining uchdan bir qismi turizimga to‘g‘ri keladi. Ko‘pchilik mamlakatlarning iqtisodiyoti turizimning rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib, u valyuta tushumlarining yagona manbai bo‘lib hisoblanadi.

So‘nggi o‘n yilliklar mobaynida xalqaro turizm hajmlarini o‘rtacha har yili 3-4 % ga doimiy o‘sishi kuzatildi. Agar 1950-yilda turistik sayohat qilganlarning soni jahonda 25 millionga yaqin kishini, turizimdan tushgan mablag‘lar – 2,1 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lsa (xalqaro tashishlardan olingan daromad hisobga olinmaganda),

bu ko‘rsatkich 1970-yilda 159,7 mln. Kishini va 17,9 mlrd. dollarni, 1990-yilda 459,2 mln. kishini va 264,7 mlrd dollorni, 2000-yilda esa 697,9 mln va 476,1

Mlrd. dollarni tashkil qildi.

Turistik faoliyatning faollashib borayotganligi turizimning ko‘p jihatdan, ijtimoiy-madaniy va bilish funksiyasi bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy vazifasi tobora katta ahamiyatga ega bo‘lib borayotganligi bilan tavsiflandi.

Bu yerda, uning aholi bandligini oshirish muammosini hal etishdagi o‘rnini qayd etish lozim. Turizmning rivojlanishi ushbu sohada ishchi kuchiga bo‘lgan talabni doimo rag‘batlantiradi va ko‘p jihatdan joriy ishsizlikni qisqartiradi. Amerika “ ishchan turizmning dumaloq stoli” tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra turizim sohasida tushumning 1 mlrd dollarga ko‘payishi 100 ming yangi ishchi o‘rinlarini yaratish imkonini berdi.

Turizmning bu vazifasi ko‘pgina rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega – ularning bir qanchasida yilning muayyan davrlarida mehnatga layoqatli aholisining 50 % dan ortig‘i bevosita (mehmonxona xo‘jaligi, ovqatlanish korxonalari va boshqalarda) yoki bilvosita (qurilish, qishloq, xo‘jaligida) turizm bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatga jalb qilingan.

Turizmning yana bir xususiyatli jihati shundaki, u moliyaviy mablag‘larni jalb qilishni, ularning tez aylanuvchanligini, invistitsiyalarni joylashtirishni ta’minlaydi, milliy daromad yaratishda qatnashib, iqtisodiyotning boshqa sohalarining rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shveysariyada, masalan, turizmning yalpi milliy mahsulotdagi ulishi, turli hisob-kitoblarga ko‘ra 5.5 dan 10% gachani tshkil qiladi, bu mashinasozlik (4,4%) va qurilish industriyasi (4.5%) ning ulushidan ancha yuqoridir. Germaniyada ushbu ko‘rsatkich – 4,6% ga yaqin. Chet el turizmidan olingan foydaning Avstriyada mamlakat eksportidagi salmog‘I – 27 % ni, Gresiyada-20 % Portugaliyada-14% ni, Italiyada-8 % ni, Ispaniyada-21% ni tashkil etadi.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha, turizm yaqin yillarda tez rivojlanishi va jahon iqtisodiyotida o‘z rolini oshirish uchun mustahkam iqtisodiy va ijtimoiy asosga ega bo‘ladi. Xalqaro turistik tashkilot mutaxasislarining hisob-kitoblariga ko‘ra jahon turizimining hozirgi o‘sish suratlari saqlab qolingan holda 2010-yilga kelib turistlar oqimi 1 mlrd. Kishiga va undan O‘zbekiston xalqaro turizmini rivojlantirish salohiyatiga va yuqori raqobatbardoshlikni ta’minlashda nisbiy ustunliklarga ega bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiy,siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma’naviy sohalarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar milliy iqtisodiyotning eng muhim va istiqbolli sohalaridan biri bo‘lgan turizmda ham o‘z ifodasini topmoqda.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida turizmning roli tobora oshib bormoqda. Tarmoq ichida tarkibiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Turizim sohasida ilgari yetakchi mavqega ega bo‘lgan mamlakatlar endi ikkinchi va uchinchi o‘rinlarga o‘tib,ularning o‘rniga yangi yetakchilar yuzaga kelmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. “Profesyonel Turist Rehberliği Yönetmeliği“. TUREB. 27 haziran 2013da asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi:22 ocak 2012.

2. “Turist Rehberliği Meslek Kanun Tasarısı” kabul edildi“. Tourism Today. Qaraldi:26 eylül 2012.

3.”Доғистонда Ўзбекистоннинг зиёрат туризм салоҳияти тақдимоти ўтказилди — фото“. Bugun.uz. 13-avgust 2021-yilda asl nusxadanarxivlandi. Qaraldi: 2-aprel 2021-yil.

To‘lqin PARDAYEV,
“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,
“Xorijiy filologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

GID NUTQINING LINGVOMADANIY TAHLILI ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada gid nutqining lingvomadaniy tahlili asoslari va turizm sohasida mintaqalarning lingvistik va madaniy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, turizmda mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi resurs va rivojlanish omili sifatida qaralishi kerakligi ayti o‘tilgan.
Tayanch so‘zlar. Gid nutqining lingvomadaniy tahlili, turizm, mintaqalarning lingvistik va madaniy xususiyatlari, resurs.

В статье рассмотрены основы лингвокультурного анализа речи гида и лингвокультурные особенности регионов в сфере туризма. В туризме также говорится, что экономическое развитие региона следует рассматривать как ресурс и фактор развития.
Ключевые слова. Лингвокультурный анализ речи гида, туризма, лингвокультурная характеристика регионов, ресурс.

The article reflects on the basics of the linguistic analysis of the gid speech and on the linguistic and cultural characteristics of the regions in the field of Tourism. It is also stated in tourism that the economic development of the region should be considered as a resource and development factor.
Key words. Linguistic analysis of Gid speech, tourism, linguistic and cultural characteristics of Regions, resource.

Lingvomadaniyat tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Tatqiqotchilarning qayt qilishicha, ‘‘Lingvokulturalogiya” (lot. lingua til, cultus “hurmat qilish, ta’zim qilish’’, yunon “ilm, fan’’) termini V.N. Teliya rahbarligidagi Moskva frazealogik maktabi tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan.

Ichki turizmni rivojlantirish O‘zbekiston uchun juda dolzarb vazifa bo‘lib, ammo bu oddiy yechimga ega emas. Ko‘pchilik tadqiqotchilar turizmning ijtimoiy-madaniy, xususan, lingvistik va madaniy jihatlarini unutib, geografik va iqtisodiy masalalarga e’tibor berishadi. Dunyoning yetakchi ekspertlarining qator ishlari madaniyat va tilning asosiy kategoriyalar ekanligini ko‘rsatadi turizmni ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilishning iloji yo‘q, ma’lum bir hududda rivojlanishini rejalashtirmang [20; 23; 24]. Tajriba Ushbu turdagi tadqiqotlar ham ularning natijalarini ko‘rsatadi. Turizm sohasidagi mutaxassislar uchun ham yangi istiqbollarni ochadi va tilshunoslar uchun ushbu ishning maqsadi – g‘oyalarni tizimlashtirish tilshunoslar tomonidan olib borilgan kompleks tadqiqotlar jarayonida aniqlangan va rivojlanishi bilan bog‘liq hududning lingvistik va madaniy xususiyatlari turizmdir.

Milliy tilshunoslik milliy miqyosda mintaqaviy o‘zgarishlarni dolzarbligi bilan o‘rtoqlashadi, bu tilshunoslikning maxsus tarmog‘i – mintaqaviyning paydo bo‘lishiga olib keladi. Ushbu yo‘nalish doirasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Turizm sohasida mintaqalarning lingvistik va madaniy xususiyatlari namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, bu o‘ziga xos “turizm tili’’ ni shakllantirishdir, uning kundalik va professional qarashlarda. Ulardan foydalanadi turistlar va aholining turizm haqidagi muloha-

zalari bilan ifodalanadi;

Ikkinchidan turistlar – mutaxassislar (ekskursiya gidlari, agentlik xodimlari va boshqalar).

Bunday lug‘atning qancha mintaqaviy (keng ma’noda) variantlari ko‘rsatilgan. Н.А. Тюленевой [15] va Ф. Чиванги [19], asarlarida “turizm tillari”ni o‘rgangan.

Turizmda mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi resurs va rivojlanish omili sifatida qaralishi kerak. Ularning tegishli talqini quyida keltirilgan. Shuni bilish joizki, resurs deganda moddiy yoki nomoddiy narsalar to‘plami tushuniladi.

Lingvomadaniy xususiyatlar ham turizmni rivojlantirish omili bo‘lib xizmat qiladi. Avvalo, ular hududning turistik qiyofasini shakllantirishga yoki o‘zlari hissa qo‘shadilar (zamonaviy ilmiy terminologiyada turist imidji turistik imidjdan farq qiladi [14]) yoki ulardan foydalanish mumkin. Maqsadli yaratish va targ‘ib qilish bilan, mahalliy san’at ushbu turdagi muammolarni hal qilishga qanday hissa qo‘shishi haqida tushuntirish kerak bo‘ladi.

Biz, birinchi navbatda, kundalik foydalanadigan so‘zlarimiz haqida gapiramiz. Masalan, O‘zbekistonning janubida mahalliy aholi osh qovoq va bulg‘or qalampirga nisbatan kadi, qalampir so‘zlarini ishlatishadi;

Lekin ba’zi viloyatlarda kadi so‘zi vulgar so‘z sifatida ishlatiladi. Ba’zan siz tarvuz, qovun, pamildori va bodring so‘zini topishingiz mumkin. Ular ommaviy ravishda qo‘llaniladi va alohida odamlarning yetarli darajada ta’limining natijasi emas. Bozorda (odatda bozor deb ataladi) yoki do‘konda xarid qilishda turistlar qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bu mintaqada nostandart belgilar va so‘zlar qo‘llanilganda ya’ni shevalar muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun: Xorazm, Samarqand, Namangan yoki Surxondaryoda so‘zlar va shevalar turlichadir. Norasmiy nomlarning keng qo‘llanilishi va noto‘g‘ri geografik ta’riflar turistlar uchun qimmatli ma’lumotlarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Turizm muhim vazifani bajaradi, ya’ni mintaqaviy til va madaniy o‘ziga xoslikni saqlash demakdir. Biroq, faol madaniyatlararo almashinuv amalga oshirilmoqda tashrif buyuruvchilarning mahalliy aholi bilan aloqalari, chiqish turizmini faollashtirish mintaqaviy turizm va mehmondo‘stlik sanoatini integratsiyalashgan milliy va global, mintaqani globallashuv jarayonlariga jalb qilish ushbu sanoatning rivojlanishi natijasida boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish bilan rivojlanish belgilari bir vaqtning o‘zida “loyqalanish” ga yoki hatto yo‘qolishiga yordam beradi. Mintaqaviy til va madaniy xususiyatlar bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshi fikrlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Profesyonel Turist Rehberliği Yönetmeliği“. TUREB. 27 haziran 2013da asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 22 ocak 2012.

2. “Turist Rehberliği Meslek Kanun Tasarısı” kabul edildi“. Tourism Today. Qaraldi: 26 eylül 2012.

3. Доғистонда Ўзбекистоннинг зиёрат туризм салоҳияти тақдимоти ўтказилди — фото“. Bugun.uz. 13-avgust 2021-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 2-aprel 2021-yil.

Feruza BURXANOVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
fanlari doktori (PhD), dotsent.
Mohichehra XAMRAQULOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti 3-bosqich talabasi

BADIIY ADABIYOTDA AYOLLAR OBRAZI: IJTIMOIY, SHAXSIY VA RUHIY HOLATLAR TADQIQI

Annotatsiya

Maqolada badiiy adabiyotda ayollar obrazining yaratilishi va uning ijtimoiy, madaniy, shaxsiy va ruhiy xulq-atvori tahlil qilinadi. Adabiyotning turli davrlarida ayol personajlari ko‘p hollarda shaxsiy erkinlik, jamiyatning ta’limotlari va ijtimoiy normalar o‘rtasidagi ziddiyatlarni yoritib kelgan. Jahon adabiyotida Jeyn Ostin, Tolstoy, Frans Kafka va Virjiniya Vulf kabi yozuvchilar ayollar obrazi orqali inson ruhiyatining murakkabligini va jamiyatning qiziqishlarini ko‘rsatishgan. O‘zbek adabiyotida ayollar obrazi XX asrdan boshlab keng yoritila boshladi, bu yerda Zulfiya Qurolboy qizi kabi yozuvchilar ayollar ruhiyatini chuqurroq ochib beradi. Zamonaviy adabiyotda ayollar obrazi ularning ichki dunyosi, shaxsiy muammolari va ijtimoiy kurashlarini o‘z ichiga olishga qaratilgan. Maqolada ayollar obrazining ijtimoiy va shaxsiy aspektlari, ularning adabiyotdagi estetik va axloqiy ahamiyati tadqiq etiladi.

Tayanch so‘zlar. Ayollar obrazi, badiiy adabiyot, jamiyat, ijtimoiy rol, shaxsiy erkinlik, ichki dunyo, zamonaviy adabiyot, Zulfiya Qurolboy qizi, psixologizm, gender munosabatlari, ayolning ruhiy holati, ijtimoiy kurash.

В этой статье анализируется создание образа женщины в художественной литературе и ее социальное, культурное, личное и психическое поведение. В разные периоды литературы женские персонажи в большинстве случаев освещали противоречия между личной свободой, учениями общества и социальными нормами. В мировой литературе такие писатели, как Джейн Остин, Толстой, Франц Кафка и Вирджиния Вулф, через образ женщины показали сложность человеческой психики и интересы общества. В узбекской литературе образ женщины стал широко освещаться начиная с XX века, где такие писатели, как Зульфия Куролбой кизи, глубже раскрывают женскую психику. Образы женщин в современной литературе направлены на охват их внутреннего мира, личных проблем и социальной борьбы. В статье исследуются социальные и личностные аспекты образа.

Ключевые слова. Образ женщины, художественная литература, общество, социальная роль, личная свобода, внутренний мир, современная литература, Зульфия Куролбой кизи, психологизм, гендерные отношения, психическое состояние женщины, социальная борьба.

This article analyzes the creation of the image of women in fiction and their social, cultural, personal, and spiritual behavior. In different periods of literature, female characters often illuminated conflicts between personal freedom, societal teachings, and social norms. In world literature, writers such as Jane Austen, Tolstoy, Franz Kafka, and Virginia Woolf have shown the complexity of the human psyche and the interests of society through the image of women. In Uzbek literature, the image of women began to be widely illuminated starting in the 20th century, where writers such as Zulfiya Kurolboy qizi deeply reveal the psyche of women. In contemporary literature, the image of women is aimed at encompassing their inner world, personal problems, and social struggles. The article examines the social and personal aspects of

the image of women, their aesthetic and moral significance in literature.

Key words. The image of women, fiction, society, social role, personal freedom, inner world, modern literature, Zulfiya Kurolboy qizi, psychology, gender relations, woman's mental state, social struggle.

Badiiy adabiyotda ayol mavzusi doimo muhim bo‘lib kelgan. Ayol personajlar ijtimoiy, madaniy va shaxsiy masalalarni yoritishda o‘ziga xos ramziy rol o‘ynaydi. Jahon va o‘zbek adabiyotida ayol qahramonlar orqali yozuvchilar turli davrlarning ruhiyatini aks ettirgan. Ayollar badiiy asarda ko‘p hollarda ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari bilan to‘liq yoritilmasdan, syujetni rivojlantiruvchi yoki qo‘shimcha qahramonlar sifatida namoyon bo‘lgan. Ammo zamonaviy adabiyotda bu holat o‘zgarib, ayollarning ruhiyati va ichki dunyosiga ko‘proq e'tibor qaratilmoqda.

Jahon adabiyotida ayol obrazlari ko‘p asrlik an’analar asosida shakllangan. Masalan, Jeyn Ostinning “Andisha va g‘urur” romanidagi Elizabet Bennet obrazi yoki Tolstoyning “Anna Karenina” romanidagi Anna Karenina ijtimoiy normalar bilan shaxsiy erkinlik o‘rtasidagi kurashni ifoda etadi. Bunday qahramonlar orqali yozuvchilar ayollarning ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari va tanlovlari bilan birga jamiyatning turli ziddiyatlarini ko‘rsatgan.

Frans Kafkaning asarlarida ayollar ko‘pincha ruhiy holatlarini ochib beradigan personajlar sifatida tasvirlanadi. Misol uchun, Virjiniya Vulfning “Missis Dellouey” asaridagi Klarissa Dellouey obrazi inson ruhiyatining cheksiz murakkabligini namoyon etadi. Jahon adabiyotida ayollar mavzusi gumanizm g‘oyalari ta’sirida kengayib, inson ruhiyatiga chuqurroq kirib borgan.

O‘zbek adabiyotida ayollar mavzusi XX asrdan boshlab keng yoritila boshladi. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Zebiniso yoki Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Kumushbibi kabi obrazlar asosan davr zulmi va ijtimoiy normalar holatidagi ayollar taqdirini ifodalaydi. Ular ko‘proq fojiali taqdirlar orqali tasvirlanib, ichki dunyosi emas, balki atrofdagilarning ta'siridan kelib chiqadigan holatlarda namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti ayollar obrazining ichki dunyosiga chuqur kirib borish, uning ruhiy holati, ijtimoiy kurashlari va shaxsiy drama ko‘rinishlarini tasvirlashda yangi bosqichga ko‘tarildi. Bunda Zulfiya Qurolboy qizi ijodining o‘rni katta. Adiba ijodi orqali biz nafaqat o‘zbek ayolining hayoti, balki uning ichki dunyosi va muammolari haqidagi tasavvurlarni yanada boyitishimiz mumkin. Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida ayolning ichki savollari, qiyinchiliklari va shaxsiy izlanishlari orqali ijtimoiy muammolar yoritilgan.

Zamonaviy adabiyot realistik mazmunda yozilgan asarlar orqali ayol obrazini yangi qirralarda namoyon qildi. Bu jarayonda insonning his-tuyg‘ulariga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etdi. Zulfiya Qurolboy qizi asarlaridagi ayol personajlar ularning turmushdagi og‘ir sinovlari, oilaviy munosabatlari va ichki muammolarini ko‘rsatadi. Bu personajlar orqali yozuvchi jamiyatdagi turli ziddiyatlarni yoritadi va o‘quvchini ular ustida mulohaza qilishga undaydi.

Zulfiya Qurolboy qizi o‘z asarlarida ayol obrazini faqat ijtimoiy yoki shaxsiy masalalarni ko‘rsatuvchi personaj sifatida emas, balki inson ruhiyatining murakkab mexanizmlarini tasvirlash vositasi sifatida ham namoyon etadi. Uning “Yozsiz yil” asaridagi Buvgul xola obrazi adibaning inson tuyg‘ularini idrok qilishdagi nozikligini va jamiyat muammolarini aks ettirishdagi mahoratini yorqin namoyon etadi. Buvgul xola nafaqat o‘z farzandi uchun kurashayotgan mehribon ona, balki jamiyatdagi

e'tiborsizlik, qashshoqlik va insonlar o‘rtasidagi behurmatlikka qarshilik ko‘rsatuvchi obraz sifatida ham ahamiyatlidir. Uning har bir harakati, ichki kechinmalari va tashqi dunyo bilan bo‘lgan to‘qnashuvlari orqali o‘quvchi jamiyatning murakkab ziddiyatlari haqida o‘ylashga chorlanadi.

Adabiyotshunos Umarali Normatov bu haqda shunday deydi: “Zulfiyaning bir vaqtlar tanqidchilikda mensimay qaraladigan, uncha xush ko‘rilmaydigan ijtimoiylikdan xoli sof “ko‘ngil mayllari nag‘malari” talqini adabiy tajribalari yo‘lidan borib yaratgan qator hikoyalari, ayniqsa, “Yozsiz yil” o‘zining badiiy-ma'naviy ta'sir kuchi jihatidan sof ijtimoiy yo‘nalishdagi yetuk asarlardan aslo qolishmaydi”

Buvgul xolaning farzandiga nisbatan sadoqati, uning sog‘lom turmush kechirishi uchun olib borayotgan fidokorona harakatlari va ayni paytda jamiyatning sovuq muomalasiga duch kelishi o‘quvchini chuqur uyga toldiradi. Asarda Buvgul xolaning shaxsiy qayg‘ulari nafaqat uning shaxsiy hayoti, balki jamiyatning umumiy dardi sifatida aks ettiriladi. Zulfiya o‘z qahramonining har bir xulqini ortiqcha bo‘yoqlarsiz, realizmga asoslangan holda, o‘quvchiga yaqin qilib tasvirlaydi.

Asarda Buvgul xolaning kundalik hayoti, kichik tafsilotlar orqali katta dramatik mazmunga ega bo‘ladi. Uning yolg‘izligi, jamiyatning unga bo‘lgan e'tiborsizligi va shunga qaramay, irodali ona sifatida farzandi uchun kurashishi katta ma'naviy quvvat va umid timsoli bo‘lib xizmat qiladi. Shu tariqa, Buvgul xola nafaqat bir shaxsning taqdiri sifatida, balki ayollarning ijtimoiy hayotdagi qiyinchiliklari va ularning bunga qarshi qay darajada muvaffaqiyatli javob berishi sifatida ham talqin etiladi.

Adiba o‘z asarida ijtimoiy masalalarni nazokat bilan aks ettirishga erishadi. Buvgul xolaning obrazi, uning hayotga bo‘lgan sodiqligi va farzandi uchun kurashi orqali Zulfiya Qurolboy qizi nafaqat shaxsiy, balki umumiy jamiyat dardini ko‘rsatishda muvaffaqiyatli ijod namoyon etadi. Bu, albatta, “Yozsiz yil” asarini nafaqat adabiy, balki ma'naviy jihatdan ham muhim asarlar safiga qo‘shadi.

Zulfiya Qurolboy qizining “Yozsiz yil” asari nafaqat Buvgul xola obrazi orqali inson va jamiyat munosabatlarini aks ettiradi, balki umuminsoniy qiymatlarni yangicha nazar bilan qayta yoritishga xizmat qiladi. Buvgul xola nafaqat jamiyatning unutilgan qahramoni, balki ijtimoiy va ma'naviy adolatning fidokori sifatida namoyon bo‘ladi. Uning o‘ziga xos ichki kuchga ega ekanligi, tashqi muhit ta'siridan kelib chiqadigan og‘irliklarga qaramay, umidsizlikka tushmasligi Zulfiya ijodining asosiy g‘oyalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Asarning badiiy qimmati shundaki, u qahramonning shaxsiy qayg‘ulari va ichidagi dunyosi orqali keng jamiyatdagi turli muammolarni ochib beradi. Buvgul xola bir qator ijtimoiy jarayonlarning, xususan, odamlar o‘rtasidagi hissiy uzilishlar, mehrsizlik va jamiyatdagi adolatsizliklarning ta'sirchan ifodasidir. Uning hayotga bo‘lgan munosabati, farzandi uchun chekkan azoblari va shu bilan birga insonparvarlik qadriyatlariga bo‘lgan sadoqati uni universal qahramonga aylantiradi.

Bu obrazda jamiyatning umumiy dardlari bilan bir qatorda, ayolning xususiy hayoti, uning kechinmalari, sabr va mehnatining qiymati ham namoyon bo‘ladi. Asar shu jihatdan oilaviy munosabatlar, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mukammal tarzda ko‘rsatib beradi. Buvgul xolaning obrazi o‘z farzandini himoya qilish orqali yanada chuqur ma’noga ega bo‘lib, ayollar hayotidagi kuch-qudrat, irodaning beqiyosligi va jamiyat uchun ularning ahamiyatini keng qamrovli tarzda ochib beradi.

Shuningdek, asardagi ichki dramatik ziddiyatlar o‘quvchini nafaqat qahramonning

holatiga sho‘ng‘ishga, balki o‘zining jamiyatdagi rolini qayta baholashga chorlaydi. Buvgul xolaning qiyofasi nafaqat bir shaxsning, balki butun avlodning o‘ziga xos tarixi, umidi va saboqlarini o‘zida mujassam etgan. Adiba asari orqali biz jamiyatning qalbiga nazar tashlaymiz va uning chuqur, ba’zan e'tiborsiz qolgan jihatlarini qayta kashf etamiz.

Shunday qilib, “Yozsiz yil” nafaqat badiiy asar sifatida, balki ijtimoiy-ruhiy tahlil vositasi sifatida ham o‘ziga xos qimmatga ega. Buvgul xola obrazi orqali adiba o‘quvchiga nafaqat jamiyatdagi kamchiliklarni ko‘rsatadi, balki ularni bartaraf etish yo‘lidagi saboq va g‘oyalarni taqdim etadi.

Zulfiya Qurolboy qizining boshqa asarlarida ham ayol obrazlari o‘z taqdirlari bilan atrof-muhitga ta'sir ko‘rsatadi va bu ta'sirni o‘quvchi chuqur his qiladi. Masalan, “Ikki manzil” hikoyasidagi qahramon ichki savollariga javob izlagan holda o‘zining ichki dunyosini qayta qurishga intiluvchi ayolni tasvirlaydi. Bu hikoyada yozuvchi personajning ichki taraqqiyoti, uning shaxsiy qarashlarining o‘zgarishi va o‘zini anglashiga asosiy urg‘u bergan.

Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida real voqeliklar psixologizm bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirilgan. Yozuvchi voqyea-hodisalarni yoritishda realistik uslubdan foydalanib, personajlarning ichki dunyosini psixologik tahlillar orqali boyitadi. Bu usul ayol qahramonlar orqali jamiyatdagi global va milliy muammolarni yoritish imkonini beradi. Asarlarda ayol qahramonlar tabiat va atrof-muhit bilan bog‘liq holda tasvirlanadi, bu esa insonning ichki dunyosi va tabiat o‘rtasidagi mustahkam aloqani ko‘rsatadi.

Zulfiya Qurolboy qizi ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotida ayol obrazi rivojiga yangi yo‘nalish berdi. Uning asarlaridagi ayol qahramonlar hayotning barcha murakkab qirralarini ifoda etadi, ularning ichki kurashlari esa adabiyotning inson ruhiyatini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Zamonaviy adabiyotda ayol obrazlarining shakllanishi nafaqat ijtimoiy, balki shaxsiy savollarni muhokama qilishning ham yangi usuliga aylandi. Zulfiya Qurolboy qizi bu yo‘nalishdagi eng yorqin ijodkorlardan biri sifatida alohida o‘rin tutadi.

Ayol obrazi badiiy adabiyotning markaziy timsollaridan biri sifatida turli davrlarda ijtimoiy, madaniy va estetik qarashlarning ifodasi bo‘lib kelgan. Ushbu maqolada ayol obrazining mazmun-mohiyati, badiiy timsol sifatidagi o‘rni va uning inson ruhiyatiga ta’sirini tahlil qilishga harakat qilinadi.

Adibaning “Ayol” hikoyasidagi Nazokat obrazi inson irodasi, sabr-toqat va hayotga bo‘lgan chuqur muhabbatning yorqin ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning jismoniy azoblari va ruhiy holati hikoya syujetining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, o‘quvchini inson tuyg‘ularining har bir qirrasini chuqur his etishga majbur etadi. Nazokatning o‘z hayotida duch keladigan mashaqqatlari nafaqat uning shaxsiy dramasi, balki jamiyatdagi ayollarga xos bo‘lgan umumiy holatlarni ham aks ettiradi.

Tanqidchi Qozoqboy Yo‘ldoshevning so‘zlarida ta’kidlanganidek, “tiriklikning boshqalarga tushunarsiz bo‘lgan totli tuyuluvchi jihatlarini mahorat bilan tasvirlash” adiba ijodining o‘ziga xos xususiyatidir. Nazokatning ichki olamida kechayotgan ziddiyatlar, uning azoblari va shunga qaramay hayotga ishonchi, atrofidagilarning qo‘llab-quvvatlashga muhtoj ekanligi uning obrazini yanada ta'sirli qiladi. Shu bilan birga, Nazokatning ichki dunyosi orqali adiba insonning nainki jismoniy, balki ruhiy qiyinchiliklar oldidagi kurashini ham ko‘rsatib beradi.

Zulfiya Qurolboy qizi hikoyasida Nazokat nafaqat bir ayolning taqdiri sifatida qaraladi, balki insonparvarlik va hayotga ishonch simvoli sifatida ham talqin qilinadi.

Uning jamiyatdagi ijtimoiy roli, atrofidagi insonlar bilan munosabatlari, hatto uning sukutlari ham adibaning nozik idrok salohiyati va chuqur ijodiy mahoratidan darak beradi.

Nazokat obrazi orqali adiba nafaqat ayollar hayotining mashaqqatli tomonlarini, balki ularning ichki irodasi va hayotga bo‘lgan muhabbatining buyukligini ham o‘ziga xos usulda ochib beradi. Shu sababli, hikoyada nafaqat Nazokat, balki uning orqali butun jamiyatning o‘ziga xos aks-sadosi yangraydi.

Ayol obrazining badiiy tadqiqotida ruhiy holatlar, ehtiros va umidning tengma-teng aks ettirilishi muhim. Nazokatning so‘nggi kunlari yoritilgan sahnalar uning ma’naviy kuchini, o‘z juftiga va farzandlariga bo‘lgan mehrini, shu bilan birga inson hayotining murakkab va og‘ir haqiqatlarini ko‘rsatib beradi.

Ushbu obraz orqali yozuvchi hayotning tez o‘tkinchi ekanligi, lekin umid va iroda insonni azoblar oldida ham mustahkam ushlab tura olishini ko‘rsatadi. Nazokatning shiddatli hayotidagi har bir harakat, uning bolalari uchun so‘nggi nafasgacha kurashishi ayol timsolidagi buyuk insonparvarlikni tasdiqlaydi.

Shunday qilib, badiiy adabiyotda ayol obrazi inson irodasi va muhabbatining cheksizligini aks ettiruvchi estetik va falsafiy timsol sifatida sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi Nazokat obrazi orqali o‘quvchiga nafaqat estetik zavq beradi, balki umid va insoniy tuyg‘ularni qaytadan qadrlash hissini, kuchli iroda va matonat sohibi bo‘lishga undaydi.

Badiiy adabiyotda ayollar obrazi nafaqat ijtimoiy voqelikning ifodasi, balki inson ruhiyatining murakkab qirralarini tatqiq etish vositasi sifatida alohida o‘rin tutadi. Ayol obrazlari orqali yozuvchilar jamiyatdagi gender munosabatlari, inson tabiati va turli davrlardagi estetik va axloqiy tushunchalarni ochib berishadi. Ushbu obrazlar turli tarixiy davrlarda har xil mazmun va shaklda namoyon bo‘lib, kitobxon qalbiga ijtimoiy hayotning murakkab qarashlarini yetkazgan.

Ayollar obrazlarining insonparvarlik, sabr-toqat, muhabbat va iroda kabi xususiyatlari ularning hayotga bo‘lgan munosabatini, shuningdek, boshqalar bilan bo‘lgan ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarini shakllantiradi. Ayollar o‘zining ichki kuchini va ma'naviy sabrini, jamiyatning murakkabliklari, ijtimoiy zo‘rlashuvlar va shaxsiy qadriyatlar orasidagi tajribalarni yo‘lga qo‘yish orqali, ijobiy ta'sir ko‘rsatishga intiladi. Adibaning “yetim uy” hikoyasida ushbu ijtimoiy va psixologik zo‘rlashuvlar aniq ko‘rsatilgan bo‘lib, xususan, Maryam opoqining “Shuncha xarajat qilish uchun bechora nechta ho‘kiz bilan yotib chiqishiga to‘g‘ri kelgan!” degan so‘zi Ra’noning ichki dunyosiga ta’sir qilishi va ayollar o‘rtasidagi ijtimoiy muammolarni namoyon qilishiga olib kelgan.

Maryam opoqining aniq maqsadga yo‘naltirilgan so‘zi, go‘yo Ra’noning eshitishini o‘ylamay aytilganidan kelib chiqib, uning ruhiyatiga keskin ta’sir ko‘rsatgan. Ra’no uchun bu so‘z, nafaqat shaxsiy qadriyatlariga nisbatan, balki uning jamiyatdagi mavqyeiga bo‘lgan haqorat sifatida qabul qilindi. Bu holat, uning hissiy holatini keskin o‘zgartiradi: bir vaqtning o‘zida uning tabiatidagi sabr-toqat va yomonlikka nisbatan ichki qarshilik olib keladi. Shunday qilib, Maryam opoqining aytgan so‘zi, Ra’noning ko‘nglida ichki zarba, hurmatsizlik va ijtimoiy adolatsizlik hissini uyg‘otadi.

Ushbu voqyea Ra'noning xulosalarini o‘zgartiradi va ijtimoiy muhitdagi o‘zaro munosabatlar yoki ularning barchasiga yo‘naltirilgan ta'sirlar bilan bog‘liq ijtimoiy shok tug‘diradi. Tasavvur qilish kerakki, Ra’no o‘zining ma’naviy ustuvorligi va ichki kuchini qayta tiklash uchun, maroq va urg‘u bilan munosabatlardan chiqa olishi kerak edi, lekin bu holat uning munosabatlarini o‘zgartiradi va uning ijtimoiy masalalarga munosabatini

yangicha tashkil qiladi.

Hikoyada Maryam opoqi tomonidan Ra'noga bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar, unga nisbatan keraksiz bahs va ma’lumotlar orqali badbaxtlikka olib keladi. Ayollar obrazi nafaqat shaxsiy munosabatlar, balki ularning jamiyatdagi o‘rni, adolatsizlik va ishonchiga zid munosabatlar orqali ko‘rsatiladi. Ayollar aniq iqtisodiy yoki ijtimoiy tahdidlardan qo‘rqmasdan, ichki kuch va sabr orqali ijtimoiy muhitda o‘zaro bog‘lanishga harakat qilishadi. Hikoyadagi voqealar, ayollar orasidagi ichki konflikt va ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini, shuningdek, har bir ayolning ruhiy sabr-toqati va jamiyatdagi o‘rnini anglatadi.

Jamiyatda ayollar obrazi ko‘pincha oila, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga harakat qiladi. “yetim uy” hikoyasida Maryam opoqi va Ra’no o‘rtasidagi ijtimoiy zo‘rlashuvlar, nafrat va ishonchsizlik hissini ishga soladigan holatlarda, ayollar o‘rtasidagi ishonch, muhokamalar va ijtimoiy sabrni jonli tarzda ko‘rsatib beradi. Hikoyadagi badiiy tasvirlar va ayollar o‘rtasidagi munosabatlar jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning ichki muammo va ma’naviy ta’sirlar orqali shakllanishini namoyon qiladi..

Ayol obrazlarining aks ettirilishida yozuvchilar estetik va axloqiy tushunchalarni o‘zaro uyg‘un holda namoyon etadilar. Ayollar ko‘pincha o‘z juftiga, farzandlariga va jamiyatga sadoqatning timsoli sifatida tasvirlanadi. Bu obrazlar orqali jamiyatning ayollarga bo‘lgan munosabati, ularning ijtimoiy mavqyei va shaxsiy erkinliklari qanday shakllangani ko‘rsatib beriladi.

Shuningdek, adabiyotda ayollar obrazlari orqali inson qalbidagi quvonch, g‘am, hayotga bo‘lgan umid va ma’naviy kurashning beqiyos namunalari yoritib berilgan. Turli ijodkorlar o‘z asarlarida ayol timsollari orqali inson hayotidagi asosiy falsafiy savollarga javob berishga harakat qiladilar. Misol uchun, Nazokat obrazi nafaqat ayolning jamiyatdagi rolini, balki inson qalbidagi buyuk ma'naviy kuchning ifodasidir.

Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyotdagi ayollar obrazlari jamiyat va inson ruhiyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu obrazlar orqali yozuvchilar ayollarning hayotdagi murakkab rolini, ularning ichki kuchi va oliyjanob fazilatlarini namoyon qiladilar. Shuningdek, ayol obrazlari adabiyotda insonparvarlik tushunchalarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Ular adabiy-estetika va falsafaning muhim yo‘nalishi sifatida har doim dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. — T.: Yangi asr avlodi, 2006 — 548 b;

2. Yo‘ldoshev Q. Roman va bugungi o‘zbek romanchiligi // Sharq yulduzi — 2011 №4;

3. Yo‘ldoshev Q. – “Zulfiya Qurolboy qizi ijodida psixologizm va ayollar obrazi” // Ijtimoiy fanlar jurnal — 2015;

4. Mo‘minova M. — “Zulfiya Qurolboy qizi ijodi: ayol obrazi va ijtimoiy rol” // Doktorlik dissertatsiyasi — 2010;

5. Shodieva G. — “Zulfiya Qurolboy qizi ijodida zamonaviy ayollar obrazi” // Doktorlik dissertatsiyasi — 2018.

6. Normatov U. — Qalbdagi benazir ziyo. Manba

7.https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umarali-normatov-zulfiya-qurolboy.html

8. www.ziyouz.uz

9. https://kh-davron.uz/kutubxona

Dilobar XOSHIMOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
“Matematika va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
Dilobar NOROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
“Matematika va informatika” yo‘nalishi talabasi

TRIGONOMETRIYANI VUJUDGA KELISHI, RIVOJLANISHI VA TRIGONOMETRIK IFODALARNI HISOBLASH

Annotatsiya

Mazkur maqola matematikaning trigonometriya bo‘limiga oid bo‘lib, trigonometriyaning kelib chiqish tarixi, vujudga kelishi, geometriya va astranomiya fani bilan bog‘liqligi aytib o‘tilgan. Shuningdek O‘rta Osiyo olimlari trigonometriya rivojiga qo‘shgan hissalari hamda uning amaldaga tatbiqlari haqida ochib berilgan va trigonometrik ifodaning qiymatlarini hisoblashda hamda trigonometrik tenglamani yechishda ba’zi trigonometrik formulalardan foydalanib yechilgan masalalar.

Tayanch so‘zlar. Trigonometriya, astronomiya, uchburchak, sinus, cosinus, tangens, kotangens, vatar, gipotenuza.

Эта статья посвящена тригонометрическому разделу математики, и упоминается, что тригонометрия связана с историей возникновения, создания, геометрии и астрономии. Также раскрывается вклад ученых Центральной Азии в развитие тригонометрии и ее практическое применение в вычыслении значений тригонометрических выражении задач с использованием некаторых тригонометрических формул при решении тригонометрических уравнений.

Ключевые слова. Тригонометрия, астрономия, триуголник, синус, косинус,тангенс, котангенс, ватар, гепотенуза.

This article is about the trigonometry branch of mathematics , it is mentioned that the history of the origin of trigonometry, its creation, and its connection with the science of geometry and astronomy. Also, the contributions of Central Asian scientists to the development of trigonometry and its practical applications were revealed and problems solved using some trigonometric formulas in calculating the value of trigonometric expressions and solving trigonometric equations.

Key words. Trigonometry, astronomy, triangle, sine, cosine, tangent, cotangent, watar, hypotenuse.

Trigonometriya (yunonchadan “trigon”- uchburchak, “metrezis” – o‘lchash so‘zidan olingan bo‘lib “uchburchaklarni o‘lchash” deb ataladi. Trigonometriya matematikaning asosiy bo‘limlaridan biri. U uchburchak tomonlari va burchaklari orasidagi bog‘lanishlarni o‘rganadi.


Er. av .II asrda astronomiyada bir qancha masalalar to‘planib qoladi. Bunga matematika fani zarur edi.Trigonometriya astronomiyaning ehtiyojlaridan kelib chiqqan bo‘lib, uzoq obyektlarni o‘lchashda astronomiyada xizmat qilardi. Triigonometriya uchburchaklarni hisoblashda ishlatilganligi sababli olimlar uni geometriya tarkibiga o‘tkazishmoqchi bo‘lishadi. Lekin yunonlar bunga qarshi bo‘lishdi. Trigonometriya astronomiyada zarurligi sabab,astronomiya tarkibida qoladi.Demak,uzoqlik, to‘g‘ri chiziq,

burchak biror figuralarning elementlari bo‘lishi,trigonometriya shu figuralarning orasidagi bog‘lanishni o‘rganishi kerak edi. Masalan, biror bir uchburchak va ular orasidagi burchaklar yig‘indisi 180° ga teng. Bundan uchburchakning ikkita burchagidan uchunchi burchagini toppish mumkin. Shuningdek ixtiyoriy uchburchakni to‘g‘ri burchakli uchburchakka ajratish mumkin. Bu esa trigonometriyaning asosiy masalalari hisoblanadi.Agar ABC to‘g‘ri burchakli uchburchak berilgan bo‘lsin. A o‘tkir burchagi AB shu uchburchakning gepotenuzasi. Demak $\angle B = 180^{\circ} - \angle A - \angle C$. Bizga $\angle A$ ma’lum bo‘lsa, BC/AB ni qarshisidagi katetning gepotenuzasini topamiz:

$$\frac{ED}{AE} = \frac{FD}{AD} = \frac{BC}{AB}$$

Shunday qilib, katetning gepotenuzaga nisbati burchakning funksiyasi, yani funksiyaning sinusi deb ataladi va sin ko‘rinishda belgilanadi.


Sinusni hisoblashni geometriya yordamida topishni ko‘rib chiqamiz $\angle A$= 30° bo‘lsa AA ni markaz qilib, AB radusi aylana chizamiz va BC kesmani davom ettiramiz, u aylana bilan G nuqtada kesishadi AC⊥BC bo‘lsa CG=BC, ∪BL=∪LG, ∪GAL=30°, BC vatar aylanaga ichki chizilgan C burchakning tomoni, uning radiusga nisbati $\frac{BC}{AC} = \frac{1}{2} = sin30^{\circ}$ (1-rasm).



1-rasm.

Bu masalani er. av. II asirda Gipparx fanga kiritgan. Shu asrda fanga o‘z hissasini qo‘shgan yana bir olim Ptolemey “Almagest” asarida vatar bilan bog‘liq bo‘lgan trigonometriyani to‘liq bayon qilgan. Ptolemey aylanaga tortilgan vatarni trigonometriyaga bog‘lab topgan.

Masalan. Markaziy α burchakli r radiusli doira vatarning uzunligi $2rsin\frac{\alpha}{2}$ ga teng (2-rasm).




2-rasm.

Faraz qilaylik, doiraga ABCD to‘g‘ri burchak ichki chizilgan bo‘lsin.

Lemma. AC va BD dioganallardan hosil bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak yuzi berilgan to‘rtburchak qarama-qarshi tomonlaridan hosil bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchaklar yuzlari yig‘indisiga teng deyiladi.

$$AB\cdot BD=AB\cdot CD+AD\cdot BC$$

Bu lemma AD tomon doiraning diametridan iborat bo‘lgan ichki chizilgan ABCD to‘rtburchak tadbiq etilgan (3-rasm).



3-rasm.

$$BC=\frac{AC\cdot BC+AB\cdot CD}{AD} \qquad [3]$$

Agar $\angle AOC=2\alpha,\angle AOB=2\beta$ va r=1 desak yuqodagi munosabat shu ko‘rinishda bo‘ladi,

$$\sin(\alpha-\beta)=\sin\alpha\bullet\cos\beta-\cos\alpha\sin\beta$$

Trigonometriyaning rivojlanishi . Trigonometriya rivoji uchun o‘z hissasini qo‘shgan allomalardan biri Muso al-Xorazmiy (783-850) birinchi bo‘lib ,sinus va teskari sinusni kiritgan Al-xorazmiy sinus va teskari sinus bo‘yicha yoy topishni shunday chiroyli va ixcham tasvirlab bergan .Bu amallarni bajarishda Xorazmiy radiusini 60 birlikka teng deb olgan , 60 birlik hozirda doira radiusi 1ga teng. Bu amalni quydagicha yozish mumkin. A yoyning teskari sinusini sinvers α

$$\alpha<90^{\circ}\ sinver\alpha=60-\sin\left(90^{\circ}-\alpha\right)$$

$$\alpha>90^{\circ}\ sinvers\alpha=60+\sin\left(\alpha-90^{\circ}\right)$$

Agar hozirgidek doira radiusini 1ga teng desak,shunga ko‘ra quydagicha belgila-

nadi.

$$sinvers\alpha = 1 - cos\alpha$$

Trigonometriyaning rivojiga hissa qo‘shgan yana bir olim Abu-Rayhon Beruniy (973-1048). Beruniy “Masud Qonuni” asarida trigonometriyahaqida aniq va to‘liq bayon qilingan . U trigonometriyada vatarlarni aniqlash va doirada ichki chizilgan muntazam ko‘pburchaklarning tomonlarini topish bilan shug‘ullangan. Ketma-ket bo‘lishdan hosil bo‘ladigan vatarlarni topish qoidasi bizning belgilashlarda quydagicha


$$sin\frac{\alpha}{2} = \frac{1}{2}\sqrt{2 \cdot 2cos\alpha}$$

$$sin\frac{\alpha}{2} = \frac{1}{2}\sqrt{2 - \sqrt{2 + 2cos\alpha}}$$

$$sin\frac{\alpha}{2} = \frac{1}{2}\sqrt{2 - \sqrt{2 + \sqrt{2 \cdot cos\alpha}}}$$

Islom dinidagi qiblani, ya’ni Makkai Mukarramadagi Ka’bani aniqlash masalasi turli trigonometrik va geografik metodlar bilan yechiigan. Bu masalaga har bir musulmon kishi bir sutkada besh marta duch keladi. Yashash hududingizda qibla qaysi tomondaligini biror belgi orqali belgilab olgansiz. Agar siz dala yoki sahroda bo‘lsangiz qanday aniqlaysiz?

Bu masala IX–XIX asrlarda keng tarqalgan soddava taqribiy metodni Abu Abdullo Muhammad ibn Battoniy (850-929) ishlab chiqqan.



4-rasm

Faraz qilaylik, markazida kuzatuvchi turgan doirada shimol-janub chizig‘i MS va g‘arb-sharq chizig‘i WE o‘tkazilgan bo‘lsin. ∆φ va – Makka va kuzatuvchi joyining kengliklar ayirm, ∆L esa ular uzunliklarining farqi bo‘lsin, ya’ni EB=∆φ va SC=∆L ga teng.

Demak, WE ga parallel AB to‘g‘ri chiziq NSga parallel DC chiziq o‘tkaziladi. Bu to‘g‘richiziq M nuqtada kesishadi , u holda Makkaga yo‘nalish <SXM= q kabi aniqlanadi. M ni koordinata boshi deb qarash x=sin·L , y=sin·φ

$$q‘ = 90° - \ q = \ \text{arctg}\frac{\sin\Delta\varphi}{\sin\Delta L}$$

Shunday qilib

$$q = 90^{\circ} - arctg\,\frac{\sin\Delta\varphi}{sin\Delta L}$$

Trigonometrik masalalar. 1. Agar ctgα= √2-1 bo‘lsa, cosα ning qiymatini toping.

Trigonometrik funksiyalar orasidagi bog‘lanishlar formulasiga ko‘ra $ctg\alpha = \frac{\cos\alpha}{\sin\alpha}$ ga teng.

Bunda cosα ni cos2α ga keltiramiz , buning uchun

$$1 - cos2\alpha = \sin^2 2\alpha$$
$$1 = cos2\alpha + 2\cos^2\alpha$$

formulalaridan foydalanib,

$$cos\alpha = \sqrt{\frac{1+cos2\alpha}{2}}$$
$$sin\alpha = \sqrt{\frac{1-cos2\alpha}{2}}$$

ko‘rinishga keltiramiz.

$$ctg\alpha = \frac{cos\alpha}{sin\alpha} = \frac{\sqrt{\frac{1+cos2\alpha}{2}}}{\sqrt{\frac{1-cos2\alpha}{2}}} = \frac{\sqrt{1+cos2\alpha}}{\sqrt{1-cos2\alpha}}$$

Demak, $ctg\alpha = \frac{\sqrt{1+cos2\alpha}}{\sqrt{1-cos2\alpha}}$ teng bo‘lsa, shartga ko‘ra tenglikdan cos2α ni topib olamiz

$$\frac{\sqrt{1+cos2\alpha}}{\sqrt{1-cos2\alpha}} = \sqrt{2} - 1$$

Tenglikning ikkala tomonini kvadratga ko‘tarib olamiz ,

$$\frac{1+cos2\alpha}{1-cos2\alpha} = 3 - 2\sqrt{2}$$

ko‘rinishda keltiramiz .

$$1 + cos2\alpha = \left(3 - 2\sqrt{2}\right)\left(1 - cos2\alpha\right)$$
$$1 + cos2\alpha = 3 - 3cos2\alpha - 2\sqrt{2} + cos2\alpha$$
$$4cos2\alpha - 2\sqrt{2}cos2\alpha = 2 - 2\sqrt{2}$$
$$\left(4 - 2\sqrt{2}\right)\cdot cos2\alpha = 2 - 2\sqrt{2}$$
$$cos2\alpha = \frac{2-2\sqrt{2}}{4-2\sqrt{2}} = \frac{-\sqrt{2}}{2} = -\frac{1}{\sqrt{2}}$$

2. $sinx + ctg\,\frac{x}{2} = 2$ tenglamani yeching.

Tenglamani yechishda

$sinx = \frac{2tg\frac{x}{2}}{1+tg^2\frac{x}{2}}$ va $ctgx = \frac{1}{tgx}$

formuladan foydalanib,

$$\frac{2tg\frac{x}{2}}{1+tg^2\frac{x}{2}} + \frac{1}{ctgx} = 2$$

ko‘rinishda keltirib olamiz.

So‘ng $tg\frac{x}{2} = t$ deb belgilash kiritamiz $\frac{2t}{1+t^2} + \frac{1}{t} = 2$

$$\frac{2t+1+t^2}{t\left(t^2+1\right)} = 2$$

$$t^2 + 2t + 1 = 2t^3 + 2$$

$$2t^3 - t^2 + 1 = 0$$

$$\left(t-1\right)\left(2t^2 - t + 1\right)$$

Bu erda $2t^2 - t + 1 \neq 0$ chunki $D = b^2 - 4ac$ $D = 1 - 4 \cdot 2 = -7$

Demak $D<0$ bo‘lsa, tenglama yechimga ega emas .

$$t - 1 = 0$$

$$t = 1$$

$$tg\ x/2 = 1$$

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, matematikaning trigonometriya bo‘limi juda keng va katta. Demak tigonometriya birgina matematika fanida emas , balki astronomiya va geometriyada qo‘llanilgan. Tigonometriya hayotga qancha zarurligi, xizmat qilishi va hamda trigonometrik ifodalar orqali ba’zi masalalarni yechishda yana bir isbotini topdi. Trigonometrik ifodalarning qiymatlarini hisoblashda trigonometriya formulalarni bir biri bilan bog‘lanib sodda yechimlarga kelishini ajoyibligini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Abduraxmonov, A.Narmonov. N.Narmuratov.”Matematika tarixi “-T : “Fan va texnologiya”2016.

2. Abduraxmonov A. Algebra tarixidan T: “Universitet”1996.

3. Sidiqov X. O‘rta Osiyo, Yaqin Sharq olimlarining ishlarida geometriya . T: “Fan”, 1981.

4. Axmedov S, Otajonova Z, Abduraxmonov A,Beruniy asarlarida maktabbop masalalar. T: “O‘qituvchi”, 1975.

5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Trigonometriya

6. Ismoilov U, Bobojonov H. “Trigonometriyadan masalalar yechish” ,”Akademnashr “2009.

G‘olib SUYUNOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi
Ma’murjon JAMOLOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

BIOLOGIYA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada biologik laboratoriya faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning ahamiyati va axborot, moddiy va moliyaviy oqimlarni boshqarishni avtomatlashtirish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, tahlil vaqtini qisqartirish va qo‘lda qog‘ozbozlikdan voz kechish orqali samaradorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyaar berilgan.

Tayanch so‘zlar. Laboratoriya, ta’lim, muloqot, jihoz, tadqiqot, . axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, avtomatlashtirish, boshqarish.

В статье рассматривается значение использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в деятельности биологической лаборатории и автоматизации управления информационными, материальными и финансовыми потоками. Также даны рекомендации по повышению эффективности за счет сокращения времени анализа и отказа от ручной бумажной работы.

Ключевые слова. Лаборатория, обучение, общение, оборудование, исследования,. информационные и коммуникационные технологии, автоматизация, управление.

The article reflects on the importance of the use of information and communication technologies (ICT) in the activities of the Biological Laboratory and the automation of management of information, material and financial flows. There is also a recommendation to increase efficiency by reducing analysis time and giving up manual stationery.

Key words. Laboratory, education, communication, equipment, research,. information and communication technologies, automation, management.

O‘tkazilgan tahlillarning ishonchliligiga inson omilining ta’sirini bartaraf etish. Amalga oshirilgan tadqiqotlar uchun moliyaviy xarajatlarni kamaytirish.

Laboratoriya jarayonining barcha bosqichlarida axborotning ishonchli himoyasi va takrorlanishi.

Laboratoriya tadqiqot faoliyati uchun sun’iy intellektga asoslangan dasturlardan foydalanish imkoniyati. Ular biomaterialni qayta ishlashni nazorat qiladi, raqamli mikroskopdan olingan tasvirlarni tahlil qiladi, ma’lumotlarni shifrlaydi va dastlabgi xulosa chiqaradi.

Bundan tashqari, bioinformatika usullaridan foydalangan holda, turli xil biologik ma’lumotlarning katta to‘plamini qayta ishlash va muntazam tajribada har doim ham sezilmaydigan naqshlarni aniqlash mumkin.

Zamonaviy o‘quv jarayonida o‘qituvchi talabani o‘zi ma’lumot olishga, bashorat qilishga, tahlil qilishga, xulosa chiqarishga o‘rgatishga intiladi - bu barcha vazifalarni laboratoriya ishi davomida muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Biroq, har bir o‘qituvchi biladi, oldini olish juda qiyin bo‘lgan muammo bor - bu laboratoriya ishlarini bajarish jarayonini rasmiylashtirish natijasida talabalarning ushbu faoliyat turiga qiziqishini

yo‘qotishdir. Bolalar an’anaviy shaklda laboratoriya ishlarini tayyorlashga qiziqishlarini tezda yo‘qotadilar va natijada o‘quv materialini yomon o‘zlashtiradilar. Va agar biz biologiya kabinetlarining tadqiqot uchun asbob-uskunalar va materiallar bilan yetarli darajada ta’minlanmaganligini va darsga vaqt yetishmasligini hisobga olsak, laboratoriya ishi kabi biologik ta’limning muhim elementi umuman o‘z ma’nosini yo‘qotadi.

.

Laboratoriya ishi davomida olingan bilimlarni mustahkamlash laboratoriya ishlari bo‘yicha daftarlarda hisobotlarni tayyorlash jarayonida sodir bo‘lishi kerak. Va bu erda, tekshirish paytida, o‘qituvchi ko‘pincha rasmiy javoblar, yomon bajarilgan chizmalar, ko‘plab imlo xatolari va noto‘g'ri formatlash bilan duch keladi. Shu bilan birga, hamma biladiki, bu laboratoriya ishining o‘zi emas, balki uning darsning ko‘p qismini daftarda taqdim etishi va bolalarda noma'lum narsalarni o‘rganishga, kichik bo‘lsa-da, tadqiqotga vaqtlari qolmaydi. kashfiyotlar. Natijada o‘quvchilarda darsdan jarayonning rasmiyatchilik, to‘liq emasligi, jarayondagi o‘z ishtirokidan norozilik, chizmalar, tavsiflar va xulosalar muvaffaqiyatsiz tayyorlansa, olingan bahodan ham hafsalasi pir bo‘ladi. Muvaffaqiyatli talaba yaratish kerakligi haqida juda ko‘p gapiramiz, ammo natija umidlarni oqlamaydi.

Bunday ko‘p qirrali muammoni hal qilish, g'alati, bolalarning o‘zlari tomonidan taklif qilingan. Birinchidan, toifadagi bir nechta yigitlar, biz aytganimizdek - iqtidorli, laboratoriya hisobotini elektron shaklda topshirishga ruxsat so‘rashdi. Ularning qiziqishlari dars doirasidan tashqariga chiqdi, ular o‘rganilayotgan ob'ektni batafsilroq va ijodiy o‘rganishni xohlashdi; Tajriba sifatida men hisobotning ushbu versiyasiga ruxsat berdim.

Dars davomida bolalar hamma bilan birgalikda laboratoriya ishlarini bajardilar, daftarlariga eslatma va eskizlar tuzdilar, shuningdek, ish bosqichlarini va o‘rganilayotgan ob'ektlarni kamera bilan suratga oldilar. Hisobot uy sharoitida slayd taqdimot shaklida tayyorlandi. Shu bilan birga, dars davomida olingan fotosuratlarni kompyuterda qayta ishlash, qo‘shimcha ma’lumotlar, illyustratsiya va sxemalarni izlash, imlo xatolarini tuzatish imkoniga ega bo‘ldilar.

Natijada har bir ish individualdir, ko‘plab ishlar mavzuni o‘rganishda ko‘rgazma materiali sifatida xavfsiz foydalanish mumkin, ba’zi laboratoriya ishlari tadqiqot loyihalariga aylandi. Biror narsani tuzatish yoki sozlash zarurati tug'ilganda, bu kompyuter yordamida oson va tez amalga oshirildi. Agar talaba izohlarni inobatga olib, xatolarni o‘zi tuzatgan bo‘lsa, bu bahoda aks ettirilmaydi. Natijada muvaffaqiyat holati, o‘quv jarayoniga ijobiy munosabat, fanga qiziqish ortishi, ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarish va yangi kashfiyotlarga intilishdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Беспалько В.П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия). – М.: Изд-во Московского психолого-социального института; Воронеж: НПО “МОДЭК”, 2002. – 352 с.

2. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании. – М.: Издательский центр “Академия”, 2003. – 192 с.

3. Березенко Н.В., Пасечник В.В. ЭВМ в преподавании биологии // Биология в шк.- 1990.-№2.- С.36-38

4. Матрос Д.Ш., Полев Д.М., Мельникова Н.Н.Управление качеством образования на основе новых информационных технологий и образовательного мониторинга. – М.: Педагогическое общество России, 1999. – 96 с.

Nasiba XOLBOZOROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

“DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA ONA TILI TA’LIMIDA TALABALARNI O‘QUV-BILISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI” (boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi misolida)

Annotatsiya

Maqolada differensial ta’lim o‘qituvchilardan o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va o‘quv qobiliyatlarini (diqqat, fikrlash, xotira rivojlanish darajasi va boshqalar) o‘rganishni, ularning ma’lum bir fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar darajasini diagnostika qilishni talab qiladi, bu esa keyingi individuallashtirishni amalga oshirish haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar. Differentsial ta’lim, metodika, o‘qituvchi, ta’lim oluvchi, sinf, yechim.

В статье дифференцированное обучение требует от педагогов изучения индивидуальных способностей и обучающих способностей учащихся (уровня развития внимания, мышления, памяти и др.), диагностики уровня их знаний и умений по конкретному предмету, что предполагает осуществление дальнейшей индивидуализации.

Ключевые слова. Дифференциальное обучение, методика, учитель, обучающийся, класс, решение.

The article requires differential education teachers to learn the individual abilities and learning abilities of students (attention, thinking, memory development level, etc.), to diagnose their level of knowledge and skills in a particular discipline, which is thought to carry out further individualization.

Key words. Differential education, methodology, teacher, learner, class, solution.

Ona tilini o‘qitishda har bir bolada fanga qiziqishni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchi doimiy izlanishda. Qanday qilib zaiflarning ortda qolishiga yo‘l qo‘ymaslik va hamma muvaffaqiyatga erishishini ta’minlash kerak? Qanday qilib sinfni jalb qilish va o‘rganishni qiziqarli qilish kerak? Barcha o‘quvchilarning real ta’lim imkoniyatlarini hisobga olgan holdagina biz butun sinf uchun samarali faoliyatni tashkil etishimiz va sinfda tabaqalashtirilgan ta’limni amalga oshirish mumkin.

Lotin tilidan tarjima qilingan “farq” – bu butunni turli qismlarga, shakllarga, bosqichlarga bo‘lish, tabaqalash degan ma’noni anglatadi.

Differentsial ta’lim - bu: 1) o‘qituvchining o‘quvchilar guruhi bilan ishlaydigan, ularda ta’lim jarayoni uchun ahamiyatli bo‘lgan umumiy fazilatlarga (bir xil guruh) ega yoki yo‘qligini hisobga olgan holda tuzilgan o‘quv jarayonini tashkil etish shakli; 2) o‘quvchilarning turli guruhlari uchun o‘quv jarayonini ixtisoslashtirishni ta’minlaydigan umumiy didaktik tizimning bir qismi. Farqlanish L.S.Vygotskiyning proksimal rivojlanish zonasi nazariyasiga asoslanadi.

Ta’limning differentsiatsiyasi (ta’limga differentsial yondashuv): 1) turli maktablar, sinflar, guruhlar uchun aholining xususiyatlarini hisobga olish uchun turli xil o‘quv sharoitlarini yaratish; 2) bir xil guruhlarda o‘quv jarayonini amalga oshirishni ta’minlaydigan uslubiy, psixologik, pedagogik, tashkiliy va boshqaruv tadbirlari majmui.

Differentsial ta’limning maqsadi: ta’lim jarayonini shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish, ya’ni. uning imkoniyatlari va qobiliyatlari darajasida, bu har bir talabaga o‘z qobiliyatiga ko‘ra maksimal bilim olish va shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatini beradi. Ushbu texnologiya o‘quv jarayonini yanada samaraliroq qilish imkonini beradi.

Asosiy vazifa: o‘quvchining individualligini ko‘rish va uni saqlab qolish, bolaning o‘ziga ishonishiga yordam berish, uning maksimal rivojlanishini ta’minlash.

Shaxsni rivojlantirishning muhim jihati pedagogik jarayonda o‘quvchilarga individual va tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirishdir, chunki aynan shu narsa bolalarning moyilligi va qobiliyatlarini erta aniqlash va shaxsiy rivojlanish uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Bir sinfning bir nechta o‘quvchilari, ularning individual va intellektual qobiliyatlari hisobga olinmagan holda faqat yoshga qarab birlashtirilib, bilimlarni o‘zlashtirishda bir tekis va bir xilda oldinga siljiy olmaydi. Xuddi shu sinf o‘quvchilari bir xil vazifani bajarish uchun 5 daqiqadan 1,5 soatgacha vaqt sarflashlari mumkin. Ayrim o‘quvchilarda o‘z yoshi uchun moslashuvchanlik, fikrlash epchilligi, umumlashtirish qobiliyati, muayyan masalalarni yechishga ijodiy yondashish qobiliyati yo‘q, ular o‘quv materialini to‘ldirishda ortda qola boshlaydi. Bunday o‘quvchilar bilimga qiziqishni yo‘qotadilar va o‘rganishga salbiy qiziqish bildiradilar. Bu akademik muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. O‘qituvchining “o‘rtacha” talaba asosida dars berishi tufayli o‘z imkoniyatlaridan kam ishlashga majbur bo‘lgan kuchli talabalar bilan vaziyat yaxshi emas. Ular asta-sekin o‘quv topshiriqlarini bajarish qulayligiga o‘rganadilar va birinchi qiyinchiliklar ularni chalkashlik va o‘zlariga shubha bilan uradi. Va bu akademik ko‘rsatkichlarning pasayishiga olib keladi. Shuning uchun har bir o‘quvchining eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishish vazifasini faqat o‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganish asosida hal qilish mumkin. Buning zarurati yaqqol ko‘rinib turibdiki, bu talab pedagogik nazariyada differensial yondashuv tamoyili nomi bilan o‘z ifodasini topgan.

Darsga puxta tayyorgarlik ko‘rayotganda har bir o‘quvchining sinfining o‘ziga xosligi, psixologiyasi, salohiyatini hisobga olish, ona tili darslarida o‘quvchilarda mustaqillik, faollik tuyg‘ularini uyg‘otadigan shunday usullarni izlab topish va joriy etishga harakat qilish kerak. Fanni o‘rganish jarayonida ijodiy ishtirok etish. O‘qituvchi tomonidan talabaga yordam berish darajasiga va talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqillik darajasiga qarab vazifalarni farqlash hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu, ayniqsa, zaif talabalar uchun juda muhimdir. O‘qituvchining vazifalari bu talabalarni o‘rtacha darajaga yetkazish va ularga aqliy faoliyat texnikasini o‘rgatishdir. Kuchli talabalarga murakkablik darajasi yuqori bo‘lgan vazifalar va ijodiy xarakterdagi nostandart ishlar kerak. Bu ularga o‘z ta’lim qobiliyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish va rivojlantirish imkonini beradi. Ona tili darslarida kuchli talabalar bilan ishlash uchun quyidagi shakl va usullardan foydalanishingiz mumkin:

1. O‘quvchilarni “ishchi formada” ushlab turish, ya’ni ularning imkoniyatlariga qarab ish hajmini oshirish, bu o‘quvchilarning darsda band bo‘lishini ta’minlaydi.

2. Qo‘shimcha topshiriqlar orqali ish hajmini oshiring:

– qo‘sh undoshli so‘zlarni, bir xil o‘zakli so‘zlarni va bir so‘zning shakllarini yozing;

– so‘zlarga sinonim va antonimlarni tanlash;

– so‘zlar va gaplar sxemasini tuzing.

– ortib borayotgan murakkab vazifalarni qo‘llang:

– o‘quvchilar tomonidan darslikdagi mashqga o‘xshash didaktik materialni mus-

taqil tanlash;

– talabalar tomonidan qo‘shimcha topshiriqlarni mustaqil tanlash;

– ijodiy vazifalar: insholar - miniatyuralar, berilgan namunaga asoslangan insholar.

Ona tili darslarida o‘quv jarayonini boshqarish muammosi zaif o‘quvchilar bilan ishlashda ayniqsa keskin paydo bo‘ladi. Bunday maktab o‘quvchilari yetarli darajada bilimga ega emaslar, uni amalda qo‘llashni bilmaydilar va o‘quv faoliyati uchun zarur bo‘lgan texnikaga ega emaslar.

O‘rganishga differentsial yondashuv bilan sinf odatda uchta asosiy guruhga bo‘linadi:

1. Guruhlar, yuqori akademik qobiliyatga ega bo‘lgan talabalar, bu guruh talabalari juda murakkab bo‘lgan materiallar bilan ishlaydilar, ular noma’lum vaziyatda bilimlarni qo‘llash va o‘quv muammolarini hal qilishda mustaqil ravishda ijodiy yondashish qobiliyatini talab qiladi.

2. O‘rtacha qobiliyatli talabalar guruhi, lekin o‘qituvchi yoki qo‘llab-quvvatlovchi sxemalar yordamida yoki kuchli talabalar tomonidan tushuntirishdan keyin bu guruh talabalari birinchi guruhning vazifalarini bajaradi,

3. O‘rganish qobiliyati past bo‘lgan o‘quvchilar guruhi, bu guruh talabalari o‘quv vazifalarini aniq cheklashni, ko‘plab o‘quv ishlarini va darsdagi yangi narsalarni qo‘shimcha tushuntirishni talab qiladi.

Tabaqalashtirilgan o‘qitish usulidan foydalangan holda zaif o‘quvchilar bilan ishlashda maktabdan keyin qo‘shimcha o‘rganish kerak emas. Bu bo‘sh vaqt yetishmasligi muammosini hal qiladi.

Ta’limga tabaqalashtirilgan yondashuv muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi: darsda va darsdan tashqari vaqtlarda talabalarga individual va differentsial yondashuvni ta’minlash, o‘quv faoliyatini rivojlantirish, xususan, mustaqil ravishda ma’lumot olish, qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash, insholar, hisobotlar yozish va h.k.

Rus tilini o‘rganishga kognitiv qiziqishni saqlash va rivojlantirish.

Menimcha, darsning turli bosqichlarida tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish kerak.

I bosqich. O‘tilgan narsalarni takrorlash.

Turli xil murakkablikdagi talabalarning mustaqil ishi.

1-guruh ishni mustaqil bajaradi, turli ijodiy topshiriqlar oladi, masalan: so‘zni tarkibiga ko‘ra tahlil qilish, gap a‘zolari bo‘yicha gaplarni ajratish, so‘zni fonetik tahlil qilish, bir xil imlodan foydalanib o‘z so‘zini o‘ylab topish.

2-guruh va 3-guruh qoidalar bo‘yicha ma’lumotnoma namunalari yordamida ishlaydi, so‘ngra 2-guruh o‘quvchilari mustaqil ravishda, 3-guruh o‘quvchilari esa xuddi shu ishni model yoki tayanch namunalar yordamida bajaradilar.

II bosqich. O‘qituvchi materialni butun sinfga oldindan tushuntiradi, “kuchli” talabalar mustaqil ravishda xulosalar chiqaradilar va qoidalar tuzadilar. Keyinchalik, yangi bilimlarni amaliyotda qo‘llash usullari tahlil qilinadi (barcha guruhlar ishlaydi)

III bosqich. Barcha guruh talabalarining bilimlarni o‘zlashtirish sifatini va o‘rganilgan materialni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini aniqlash.

1-guruh. Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha mustaqil ish nafaqat o‘qitishni, balki olingan bilimlarni yangi, notanish vaziyatda qo‘llashni ham talab qiladi. Talabalar keraksiz takrorlash uchun vaqt va kuch sarflamasliklari kerak.

2-guruh va 3-guruh. Yordamchi diagrammalar yordamida asosiy masalalar bo‘yicha yangi materialni ikkilamchi tushuntirish.

2-guruh namunaviy yoki tayanch sxemalar bo‘yicha mustaqil ravishda ishni bajaradi.

3-guruh talabalari yangi materialni tushuntirishni yakunlash bilan shug‘ullanadilar: darslikdan nazariya va o‘quv ishlari ko‘nikmalarini egallash uchun o‘qituvchi rahbarligida standart o‘quv mashqlarini bajaradi.

IV bosqich. Mustaqil ish natijalarini tekshirish. 1-guruh 2-3-guruhlarning mustaqil ishlarini tinglaydi, o‘z ishlarida qayd qiladi, so‘ngra 2-3-guruhlarning ishlarini tinglaydi.

